

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 43
Часть-6_ Апрель -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Апрель - 2024 год

ЧАСТЬ - 6



INSON HUQUQLARI HIMOYASI

Ramazonova Sevinch Elbek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan fuqarolik jamiyati asoslarining rivojiga, butun dunyodagi insonlar huquqlari va erkinliklarining davlat organlari tomonidan himoyasiga inson sha'ni, qadr-qimmati hamda boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishini yoritishga, Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlari va inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro huquq normalari va qiyosiy tavsiflarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, xalqaro huquq, qadr-qimmat, erkinlik, inson huquqlari, daxlsizlik, ulug'lash, qadriyat, demokratiya, inson huquqlari kafolati.

ЗАЩИТА ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется развитию основ гражданского общества, в котором права и свободы человека являются высшей ценностью, защита прав и свобод человека государственными органами во всем мире, защита человеческого достоинства, достоинства и других неприкосновенных прав. посвящены высшим ценностям, международным стандартам защиты прав человека и нормам международного права и сравнительным характеристикам прав человека в области защиты.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, международное право, достоинство, свобода, права человека, уважение, достоинство, демократия, гарантия прав человека.

HUMAN RIGHTS PROTECTION

Abstract: This article focuses on the development of the foundations of a civil society in which human rights and freedoms are the highest value, the protection of human rights and freedoms by state bodies around the world, the protection of human dignity, dignity and other inviolable rights is the highest value, international standards for the protection of human rights and human rights International law norms and comparative descriptions in the field of protection are devoted.

Key words: Constitution of the Republic of Uzbekistan, international law, dignity, freedom, human rights, respect, dignity, democracy, guarantee of human rights.

KIRISH

Inson huquqlari bo'yicha, ayniqsa, so'nggi o'n yil ichida ko'plab milliy institutlar tashkil etilganligi ko'plab davlatlar boshqaruvning demokratik shakliga murojaat qilganligi, o'zlarining demokratik tuzilmalarini yaxshilashga harakat qilayotganligini bildiradi. Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari - inson va fuqarolarning Konstitutsiya shuningdek qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar shuningdek, shart-sharoitlar majmuyi hisoblanadi.

Inson huquqlari yer yuzida hayotning to'laonliligini belgilaydi hamda millatlar madaniyatlarining ajralmas qismi, insoniyat ma'naviy-huquqiy ideallarining eng yuqori darajadagi ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham, hozirgi zamon dunyosining ma'naviy qadriyatlari orasida umume'tirof etilgan inson huquqlari eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. Shu jumladan, mustaqil demokratik yo'ldan dadil odimlayotgan mamlakatimiz O'zbekistonning ham eng ulug' maqsadi, avvalo, xalqimiz mafaatlari amalga oshirishga qaratilgani bilan e'tiborlidir. BMT Nizomi va xalqaro konvensiyalarda hamda dunyoning turli mamlakatlari konstitutsiyalarida mustahkamlangan inson huquqlari fundamental va ajralmas huquqlar sifatida ongimizga singib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida ham inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak ma'suliyatni anglagan holda, fuqarolarning munosib hayot kechirishini ta'minlagan holda ushbu konstitutsiyaning qabul qilinganligi keltirilib, uning ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan.[1]

Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish va xalqaro tashkilotlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikni kengaytirish maqsadida BMTning Inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-oktyabrdagi Farmoni bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi tuzildi. Markazning asosiy vazifalari sifatida inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirilishiga, ushbu sohadagi O'zbekiston Respublikasi xalqaro majburiyatlarining bajarilishi bo'yicha davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish; inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilish holatini o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarning tavsiyalari bajarilishini monitoring qilish; O'zbekiston Respublikasida inson huquqlariga rioya etish va ularni himoya qilish bo'yicha milliy ma'ruzalar tayyorlash; normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, inson huquqlari sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro

shartnomalarini milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha takliflar tayyorlash; inson huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish masalalari bo'yicha davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa tashkilotlarga maslahat berish funksiyasini amalga oshirish va ularga amaliy ko'maklashish va yana shu kabi inson huquqlari bo'yicha bir qator faoliyatlarni amalga oshiradi. [2]

Bugungi kunda barcha demokratik davlatlar qatorida O'zbekistonda ham inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning universal mexanizmi davlat organlari, milliy institutlar samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR


Yurtimizda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, adolatni qaror toptirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar bugun BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilib, qo'llab-quvvatlanmoqda. Insonni ulug'lash uni muhofaza qilish va har tomonlama kamol toptirish yangi O'zbekistonning asosiy g'oyasiga aylantirildi. Ushbu inson huquqlari sohasida O'zbekistonda quyidagi huquqlar ta'minlanib, irqi, rangi, jinsi, tili, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, tug'ilganligi yoki boshqa holati sababli hech qanday kamsitishsiz xalqaro shartnomalarga muvofiq barcha odamlar uchun kafolatlangan huquqlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi
- uyushmalar va yig'ilishlar erkinligi, fikr bildirish
- sog'liqni saqlashning eng yuqori darajasiga erishish huquqi
- odil sudlov huquqi
- adolatli va qulay mehnat sharoitlariga bo'lgan huquq
- oziq-ovqat, uy-joy va ijtimoiy himoya huquqi
- ta'lim olish huquqi
- qonunni teng himoya qilish huquqi
- fikr, vijdon va din erkinligi
- ovoz berish va jamoat ishlarini yuritishda ishtirok etish huquqi
- madaniy hayotda ishtirok etish huquqi.

Har qanday inson huquqlari birinchi darajaga qo'yiladigan davlatlarda uning fuqarolari ham davlatning himoya kuchiga ishonishi kerak bo'ladi. Quyidagi statistikada butunjahon mamlakatlaridagi fuqarolarning o'z davlatida inson huquq va erkinliklari himoya mexanizmiga qanchalik ishonishlari keltirilgan.

Where People Do And Don't Believe In Human Rights

"There is such thing/no such thing as human rights" (%)*



Xulosa

Umuman olganda, mamalakatimiz miqyosida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini nafaqat mamlakat mexanizmida ko'rishimiz mumkin, balki qator normative huquqiy hujjatlarda ham ko'rishimiz mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekistonning demokratik o'zgarishlarga sodiqligini namoyish qilish, yurtimizda kechayotgan ulkan o'zgarishlar va yangilanishlar davrida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish birlamchi vazifalardan sanaladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasidagi barcha davlat organlarining maqsad, vakolatlari aynan inson huquqlari rivojiga va kafolatiga chambarchas bog'liq deya olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiyasi
2. <https://www.oriens.uz>
3. [//lex.uz](https://lex.uz)
4. <https://advance.lexis.com/api/permalink/beda1231-1e93-4eb9-b30f-7870656b8b2d/?context=1516831>
5. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markaz faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi Prezident qarori.

KIBERJINOYAT- GLOBAL XAVF: DUNYO QONUNCHILGI SHARHI

Jamoldinova Dilfuzaxon Zuxriddin qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola orqali muallif internet olamida tobora keng tarqalib borayotgan kiberjinoyat va uning turlari, kiberjinoyatlarining jamiyat hayotiga solayotgan xavfi va bugungi kunda kiberjinoyatlarni oldini olishga qaratilayotgan chora-tadbirlarni va kiberxavfsizlik masalalarini tahlil qilgan. Shuningdek, maqolada dunyoning bir qator rivojlangan davlatlaridagi kiberjinoyatlarining ham qiyosiy tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kiberjinoyatchilik, kiberjinoyatchilikda firibgarlik, o'grilik, fishing, smishing, vishing, kiberxavfsizlik

АННОТАЦИЯ

Киберпреступность – глобальная угроза: мировой юридический обзор

В этой статье автор проанализировал киберпреступность, которая становится все более распространенной в мире Интернета. Кроме того, имеется информация о видах киберпреступлений, факторах, вызывающих их возникновение, опасности, которую киберпреступления представляют для жизни общества, а также мерах, направленных на предотвращение киберпреступлений и проблемах кибербезопасности. Также в статье проводится сравнительный анализ киберпреступлений в ряде развитых стран мира.

Ключевые слова: Киберпреступность, мошенничество в киберпреступности, кража, фишинг, смишинг, вишинг, кибербезопасность.

ABSTRACT

Cybercrime - a global threat: a world legal review


Through this article, the author analyzed cybercrime, which are becoming more and more widespread in the Internet world. Additionally, there is some information about the types of cybercrime, the factors that cause their origin, the danger cybercrimes pose to the life of society, and the measures aimed at preventing cybercrimes and cyber security issues. Also, the article covers a comparative analysis of cybercrimes in a number of countries of the world.

Keywords: Cybercrime, fraud in cybercrime, theft, phishing, smishing, vishing, cyber security

Bugungi texnologiyalar rivojlangan davrda kiberjiniyatchilik butun dunyoga xavf solayotgan global muammolardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, unga qarshi kurashish ko'plab davlatlarning, shu qatorda O'zbekistonning ham eng asosiy

masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Kiberjinoyatchilik o'zi nima va u qanday ko'rinishlarda bo'ladi?


Kiberjinoyatchilik — axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi.^[1] Bu jinoyat virtual tarmoqda virus va boshqa noqonuniy zararli dasturlar, noqonuniy axborotlarni tayyorlash va tarqatish, spam, veb sahifalarga noqonuniy kirish, xakerlik hujumi, mualliflik huquqini buzish, kiberterrorizm, firibgarlik, o'g'rilik, soxta treyding, soxta kripto-birjalar, moliyaviy piramida, phishing, smishing, vishing ko'rinishida bo'lishi mumkin. Kiberterrorizm- vahima yoki qo'rquvni keltirib chiqarish uchun elektron tizimlarni buzishga qaratilgan harakat. Firibgarlik axborot tizimidan, shu jumladan axborot texnologiyalaridan foydalanib, aldash yoki ishonchni suiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqini qo'lga kiritish. O'g'rilik- axborot tizimiga kirib yoki undan foydalanib, o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish. Fishing-virusli dastur yuborish orqali karta boshqaruvini qo'lga kiritish. Kiberjinoyatning bu turi eng keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi. Buning dalili sifatida quyidagi statistikaning keltirishimiz mumkin.



● Barcha davlatlar ● Yevropa davlatlari ● Osiyo davlatlari

Smishing – bu havola yuborish orqali karta boshqaruvini qo'lga kiritish. Vishing – telefon qo'ng'iroqlari orqali karta boshqaruvini qo'lga kiritish.

Bilamizki, hozirda kiberjinoyatchilik butun dunyo bo'ylab, ayniqsa bir qator taraqqiy etgan mamlakatlarda avj olib borayotgan huquqbuzarliklardan biri hisoblanadi. Quyidagi statistika orqali buning guvohi bo'lishimiz mumkin.



2022-yilgi statistikaga ko'ra butun dunyoda 39%, Hindistinda 68%, AQShda 49%, Avstraliyada 40%, Yangi Zelandiyada 38%, Fransiyada 33%, Buyuk Britaniyada 33% Germaniyada 30% Yaponiyada 21% internet foydalanuvchilari kiberjinoyatlarga uchrigan. So'nggi yillarda kiberjinoyatchilik MDH davlatlarida jumladan, Qozog'istonda 10 baravarga, Belarussiyada 10 baravar, Rossiyada 11 baravarga ko'paygan. Ma'lumotlarga ko'ra, kiberjinoyatchilik bir yilda dunyo iqtisodiyotiga o'rtacha 26 milliard dollar zarar yetkazmoqda. Mana shu kabi ma'lumotlar orqali kiberjinoyatchilik jamiyat hayotiga qay darajada jiddiy xavf solayotganini anglashimiz mumkin.

Rossiya, Ukraina va Xitoy kiberjinoyatchilik tahdidlarining eng muhim manbalari reytingi bo'yicha yangi tadqiqotda dunyoning kiberjinoyatchilik o'chog'lari deb nomlandi.

Butunjahon kiberjinoyat indeksi Plos One jurnalida Oksford universiteti va Yangi Janubiy Uels universiteti (UNSW) Kanberra olimlari tomonidan olib borilgan uch yillik tadqiqotlar natijasida e'lon qilindi.

Indeksda aytilishicha, Rossiya kiberjinoyatchilikka qarshi eng katta tahdidga ega, undan keyin Ukraina, Xitoy, AQSh va Nigeriya. Buyuk Britaniya ro'yxatda sakkizinchi o'rinni egalladi.

Reyting tadqiqotchilar tomonidan to'plangan ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, ular dunyoning turli burchaklaridan kelgan 100 ga yaqin kiber jinoyatlar bo'yicha mutaxassislarni so'rov o'tkazib, har biridan kiberjinoyatlarning beshta asosiy turining eng muhim manbalarini aniqlashni, mamlakatlarni ta'siri, jinoyatchilarining texnik mahorati, ularning professionalligi va jinoyatchilik darajasi bo'yicha tartiblashlarini so'rashgan.

Tadqiqot hammuallifi, doktor Miranda Bryusning aytishicha, tadqiqot kiberxavfsizlik agentliklariga kiberjinoyatlarning asosiy markazlariga e'tibor qaratish, mablag'larni yo'naltirish va diqqatni yanada samaraliroq qaratish imkonini beradi. "Indeks asosini tashkil etuvchi tadqiqot kiberjinoyatchilar atrofidagi anonimlik pardasini olib tashlashga yordam beradi va biz bu daromadga asoslangan kiberjinoyatchilik xavfi ortib borayotganiga qarshi kurashda yordam beradi deb umid qilamiz", "Endi biz kiberjinoyat geografiyasini va turli mamlakatlar kiberjinoyatchilikning turli turlariga qanday ixtisoslashganini chuquroq tushundik" dedi u.

«Comparitech» har yili Global Cybersecurity Index metodologiyasi asosida «eng kiberxavfsiz» davlatni aniqlash yuzasidan mustaqil tadqiqot o'tkazib, davlatlar reytingini e'lon qiladi. 2021-yilda kompaniya tomonidan 75 ta davlatning kiberxavfsizlik darajasi tahlil qilindi va har bir davlat umumiy baholashda teng imkoniyatga ega 15 ta mezon asosida baholandi. Oxirgi ikki yil davomida Daniya 3,56 ball bilan eng kiberxavfsiz mamlakat hisoblanadi. U 15 ta mezondan 10 tasida kuchli uchlikka kirdi, ayniqsa, tovlamachi-troyanlar tomonidan hujumga uchragan foydalanuvchilar (0,02 foiz) va kriptomaynerlar tomonidan qilingan hujumlar foizi (0,11 foiz) kabi mezonlarda yaxshi ball to'pladi. Shuningdek, mobil tovlamachi-troyanlar va mobil bank tovlamachi-troyanlari tomonidan hujumga uchragan bitta ham foydalanuvchi yo'q.^[3] <https://advance.lexis.com/api/permalink/3882e975-7144-42d7-89cd-062c2647173a/?context=1516831>

Yuqoridagi statistikada ko'rganimizdek Nigeriya kiberjinoyatchilikning sodir etilishi bo'yicha dunyo davlatlari orasida yuqori o'rinlarni egallagan. The Nation All Rights Reserved Curbing cybercrime in Nigerianing maqolasida bu quyidagicha izohlanadi: Nigeriyada kiberjinoyat yoshlar orasida kun tartibiga aylandi. Ko'pchilik nigeriyalik yoshlarni kiberjinoyatchilar deb dadil aytish mumkin (nigeriyaliklar "Yahoo yigitlari" sifatida). Bu juda xavotirli, chunki u ko'p darajada Nigeriya xalqini/imidjini dunyo xalqlariga munosib tarzda taqdim etmaydi yoki taqdim etmaydi. Shunday qilib, boshqa mamlakatlardagi odamlar, ayniqsa AQSh va Buyuk Britaniya, ba'zi hollarda ba'zi nigeriyaliklar bilan qanday munosabatda bo'lishlaridan juda ehtiyot bo'lishadi.

Darhaqiqat, ko'plab nigeriyalik yoshlarning kiberjinoyatchilik bilan faol shug'ullanishiga ko'p omillar sabab bo'ladi. Ko'pchilik uchun bu mamlakatdagi tanqislik tufayli ularning kasbi va tirikchilik manbaiga aylandi. Nigeriyadagi ishsizlikning yuqori darajasi ular bilan shug'ullanish sabablari ro'yxatida birinchi o'rinda turadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilda Milliy statistika byurosi tomonidan e'lon qilingan yoshlar ishsizligi ko'rsatkichlariga ko'ra, "Nigeriyalik yoshlarning taxminan 53,40 foizi ishsizdir".

Ishsizlik ko'p jihatdan ular buni nima uchun qilishlariga yordam beradi. Mamlakatda ko'plab "hafsala" universitet bitiruvchilari ishsiz va "hamma narsa" qilishga tayyor, chunki ularga mamlakatda ular uchun hech narsa yo'qdek tuyuladi. Qashshoqlik, tengdoshlar/ijtimoiy/ota-ona bosimi va boyib ketish istagi kabi boshqa omillar nima uchun ular kiberjinoyatga aloqadorligini tushuntiradi.

Ammo shunisi e'tiborga loyiqlik, kiberjinoyat global hodisa bo'lib, uning oqibatlaridan har bir davlat alohida zarar ko'radi. Bu Nigeriyaning obro'siga putur etkazdi. Dunyo uchun Nigeriya keng tarqalgan kiberjinoyatchilar uyasi sifatida ko'riladi. Buning natijasida ba'zi "begunoh" nigeriyalik yoshlar ham bu baxtsizlikka sherik bo'lishadi. Ular ba'zi hollarda ushbu mamlakatlar fuqarolari bilan muvaffaqiyatli muloqot qila olmaydi yoki muloqot qila olmaydi.

Misol uchun, bir marta mening ukam AQShdagi do'stimning otasi uning nigeriyalik ekanligini bilgach, u bilan munosabatlarini yo'qotib qo'yganidan shikoyat qildi. Chet elliklar nigeriyaliklardan ehtiyot bo'lishadi, chunki ular aldanib qolishdan qo'rqishadi. Aslida, ushbu mamlakatlar o'z fuqarolarini nigeriyaliklarni ba'zi holatlarda jalb qilishlarini cheklash uchun profilaktika choralarini ko'rmoqda.

Qolaversa, yo'qotilgan narsalarni qaytarib olish uchun ba'zi narsalarni qilish kerak. Nigeriyada kiberjinoyatchilikni cheklash usullaridan biri bu kiberjinoyatchilar tomonidan qo'llaniladigan firibgarlik texnikasi yoki metodologiyalariga qarshi kurashish uchun kiberrazvedkani jalb qilishdir. Bunga kiberrazvedkani orqali erishish mumkin. Yana biri – yoshlar uchun ish o'rinlari yaratish. Bu ma'lum darajada kiberjinoyatchilikni cheklashga yordam beradi. Shuningdek, qonunga muvofiq intizomiy jazo belgilash orqali. Bularning barchasi kiberjinoyatlarning oldini olishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, men nigeriyalik yoshlarni firibgarlik bilan bog'liq biznesdan voz kechishga chaqiraman. Bu mamlakatning shonli qiyofasini tiklash va namoyon etishga yordam beradi. Internet makonida yoshlar pul ishlashlari mumkin bo'lgan bir nechta qonuniy biznes mavjud. Xuddi shunday, ular mamlakatda va undan tashqarida imkoniyatlardan foydalanishni o'rganishlari mumkin bo'lgan qimmatli ko'nikmalar mavjud.

O'zbekiston respublikasida esa 2019-yildan 2023-yilga qadar 45 baravarga ortgan (2019-yilda 601 ta, 2021-yilda 863 ta, 2023-yilda 5042 ta kiberjinoyatchilik sodir etilgan).



Xo'sh, O'zbekiston Respublikasida kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashish uchun qanday chora-tadbirlar olib borilmoqda?

2022-yil 15-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunning asosiy maqsadi kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir. 2023-yil 30-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli maxsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi PQ-381-son qarori qabul qilindi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida kiberxavfsizlikni ta'minlash maqsadida "Bir million dasturchi", "Hakaton" kabi yirik loyiha va tanlovlar o'tkazib kelinmoqda. Mazkur tanlovlarda g'olib bo'lgan yoshlar munosib rag'batlantirilib, ularning iqtidoridan samarali foydalanish ishlari olib borilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, kelgusida kibertahdidlarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kiberjinoiyat nafaqat ma'lumotlar buzilishi va xakerlik hodisalari bilan cheklanib qolmay, balki onlayn firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash va kiber-faol terrorizmga ham taalluqlidir. Texnologiya rivojlanishda davom etar ekan, kiberjinoiyatchilar butun dunyo bo'ylab zaif shaxslar va tashkilotlarni nishonga olib, yanada murakkablashmoqda.

Ushbu ortib borayotgan muammoni hal qilish uchun mamlakatlar razvedka, resurslar va tajriba almashish uchun birgalikda harakat qilishlari kerak. Bu kiberjinoiyatchilarni tergov qilish va jinoiy javobgarlikka tortish uchun xalqaro ishchi guruhlarni tashkil etish, shuningdek, kibertahdidlardan himoya qilish uchun yangi texnologiyalar va ilg'or tajribalarni ishlab chiqish bo'yicha hamkorlikni o'z ichiga olishi mumkin.

Bundan tashqari, hukumatlar kiberxavfsizliklar haqida xabardorlikni oshirish hamda fuqarolar va tashkilotlarni kiberhujumlarning oldini olish va ularga javob berish uchun zarur ko'nikmalar bilan jihozlash uchun kiberxavfsizlik infratuzilmasi va ta'limga sarmoya kiritishi kerak. Bunga kiberxavfsizlikdan xabardorlik madaniyatini yuksaltirish va kiberxavfsizlikning keng qamrovli strategiyalarini ishlab chiqish uchun davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish kabilarni kiritishimiz mumkin.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi kiberjinoyatlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatlar iqtisodiy yoki texnologik rivojlanishidan qat'i nazar, mamlakatlarga ta'sir ko'rsatadigan global hodisadir. Tahlil kiberjinoyatlarga qarshi samarali kurashish uchun xalqaro hamkorlik va mustahkam kiberxavfsizlik choralarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

Kiberjinoyatchilik - bu butun dunyo mamlakatlari tomonidan samarali kurashish uchun birgalikdagi sa'y-harakatlarni talab qiladigan dolzarb muammo. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, kiberxavfsizlik infratuzilmasi va ta'limga sarmoya kiritish hamda kiberxavfsizlikdan xabardorlik madaniyatini yuksaltirish orqali davlatlar kiberjinoyatchilik bilan bog'liq xavflarni yumshatish va o'z fuqarolari va iqtisodiyotlarini kiberhujumlarning halokatli oqibatlaridan himoya qilish uchun birgalikda ishlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nexis Uni- <https://advance.lexis.com/api/permalink/d3ab0474-dc18-4034-bf35-332e342ddf7b/?context=1516831>
2. Nexis Uni- <https://advance.lexis.com/api/permalink/1e29918b-a80b-4141-aa75-3fb36e2696fc/?context=1516831>
3. <https://xabar.uz/uz/tehnologiya/dunyo-davlatlarining-kiberxavfsi>
4. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/kiberjinoyatchilik-dunyoga-26-milliard-dollar-zarar-yetkazadi>
5. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik To'g'risida"gi qonuni

AXBOROT HUQUQI VA “YOLG‘ON XABAR” (“FAKE NEWS”) MUAMMOSI

Sobirova Ruxshona Otabek qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Axborot zamonida yolg‘on xabarlarining tarqalishi odatiy holga aylanib ulgurgan. Ularning katta qismi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, shuningdek, shou-biznesga oid ma’lumotlar va mavzularni qamrab oladi. Ushbu maqola hozirgi axborot asrida butun dunyoda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida ham rivojlanib borayotgan axborot huquqi hamda global hodisalardan biriga aylanib borayotgan “yolg‘on xabar” (“fake news”) muammosining maqsadlari, ularning internet tarmog‘ida tarqalish shakllari va unga qarshi kurashish bo‘yicha davlatimiz qonunlari bilan ham mustahkamlab qo‘yilgan choralarni yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: axborot huquqi, feyk xabarlar, yolg‘on ma’lumotlar, faktcheking, ijtimoiy media, OAV, mediasavodxonlik.

ПРАВО НА ИНФОРМАЦИЮ И ПРОБЛЕМА «ФЕЙКОВЫХ НОВОСТЕЙ»

АННОТАЦИЯ

В век информации распространение ложных новостей стало обычным явлением. Большинство из них охватывают информацию и темы, связанные с политическим, экономическим, социальным, культурным, а также шоу-бизнесом. В данной статье речь идет о праве на информацию, которое развивается во всем мире, а также в Республике Узбекистан, и целях проблемы «фейковых новостей», которая становится одним из глобальных явлений, формах их распространения. распространение в Интернете и против него разъясняются меры борьбы с ним, которые усилены законодательством нашей страны.

Ключевые слова: право на информацию, фейковые новости, ложная информация, проверка фактов, социальные сети, средства массовой информации, медиаграмотность.

THE RIGHT TO INFORMATION AND THE PROBLEM OF "FAKE NEWS"

ABSTRACT

In the age of information, the spread of false news has become commonplace. Most of them cover information and topics related to political, economic, social, cultural, as well as show business. This article is about the right to information, which is developing in the whole world, as well as in the Republic of Uzbekistan, and the goals of the "fake news" problem, which is becoming one of the global phenomena,

the forms of their spread on the Internet and it explains the measures to fight against it, which are strengthened by the laws of our country.

Key words: right to information, fake news, false information, fact-checking, social media, mass media, media literacy.

Kirish. Hozirgi davrda butun dunyo bo'yicha jamiyatlar oldida turgan eng katta muammolardan biri bu internet tarmoqlari, ijtimoiy media va platformalar orqali noto'g'ri, chalg'ituvchi axborotlarning tarqalishi bo'lib, u ko'plab muammoli vaziyatlarga sabab bo'lmoqda. Bu holat faqat jahonda emas, balki davlatimizda ham kengayib bormoqda.

Avvalo "fake news" ya'ni yolg'on xabar o'zi nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak, u to'qilgan, tasdiqlanadigan faktlar, manba va iqtiboslarsiz to'qilgan hikoya hisoblanadi. Lekin u keng ma'noda murakkab va nozik bo'lgan tushunchadir. Bu atamaning o'zi siyosiylashgan va har qanday qarama-qarshi nuqtayi nazarni obro'sizlantirish uchun keng qo'llaniladi. Ba'zi odamlar undan o'z raqiblarini, bahsli masalalarni yoki ayrim ommaviy axborot vositalarining ishonchliligini shubhaga qo'yish uchun foydalanadilar. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi kabi texnologik yutuqlar soxta yangiliklar va yolg'on xabarlarining tez va osonlik bilan tarqalishiga imkon beryapti. Chunki barchamiz insonlar bilan kun davomida ko'plab ma'lumot almashamiz va dunyoda nima sodir bo'layotganini tushunish uchun ko'proq ana shu tarmoqlardagi onlayn ma'lumotlarga tayanamiz.

Feyk xabarlar ko'plab davlat institutlarini tashvishga soladigan hodisa sanalib, u kamida uchta xususiyatni o'zichiga olgan bo'ladi:

1. Soxta yangiliklarda yolg'on ma'lumotlar mavjud.
2. Soxta yangiliklar aldamchi maqsadlarda yaratiladi.
3. Soxta yangiliklar an'anaviy yangiliklarga o'xshab ko'rsatiladi.


Birinchidan, agar soxta yangiliklar yolg'on ma'lumotni o'z ichiga olmasa, bu tashvish tug'dirmaydigan haqiqiy yangilik bo'lar edi. Ikkinchidan, yolg'on xabarlarini yaratishda aldamchi niyat albatta ishtirok etad, aks holda, halol, lekin noto'g'ri o'rganilgan ma'lumotlar (masalan, noto'g'ri hisobot) soxta yangiliklarning namunasi bo'ladi. Aldamchi maqsad turli shakllarda bo'lishi mumkin: Soxta xabarlar yaratuvchisi yolg'on ma'lumotni shunchaki bo'lishish niyatida bo'lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, ular reklamadan daromad olish uchun hosting veb-saytiga tashrif buyuruvchilarni jalb qilish uchun soxta yangiliklarni xohlashlari mumkin. Hal qiluvchi narsa shundaki, soxta yangiliklarni yaratuvchining haqiqiy motivatsiyasi shaffof emasligi va ularning niyati aniq ma'lumotni tarqatmaslikdir [1].

Muhokama va natijalar. Feyk xabarlar muammosi haqida bir qancha shaxslar, olimlar o'zlarining turli maqola va risolalarida bir qancha fikrlarni ilgari surishgan. Xususan, Raspopova S.S, Bogdan Ye.N "Feykoviye novosti, Informatsionnaya mistifikatsiya" nomli ilmiy risolasida feyk xabarlarining kelib chiqishi, ularning mavjud turlari, klassifikatsiyasi, ularning jamiyat hayoti hamda davlat siyosatiga ta'siri borasida bir qancha fikrlar ilgari surilgan. Feyk tarqatuvchilarning ba'zilar bu orqali kimnidur obro'sizlantirmoqchi bo'lsa ba'zilar piar yaratmoqchi bo'ladi. Shuningdek, ular aholi o'rtasida vahima uyg'otib, turli bo'htonlar tarqatishni va bu orqali davlat

hokomiyati organlari obro'sini to'kib, aholida unga nisbatan ishonchni yo'qotishni ham maqsad qilib olgan bo'ladi. [2]

Shu bilan birga Sitara Xolmatova "Faktcheking – axborotni verifikatsiya qilishning samarali vositasi sifatida" nomli maqolasida "Bizning fikrimizcha, faktlarni xolisona va mustaqil ravishda tekshirish jurnalistikaning eng kuchli instrumentlaridan hisoblanadi. Faktlarni tekshirishda xolis bo'lmagan va aniq manbaga asoslanmaganlarini berish OAV va ekspertlarga bo'lgan ishonchsizlikni orttiradi" degan fikrni ilgari suradi. [3]

Feyk xabarlar va yolg'on ma'lumotlarni dunyo mamlakatlaridagi tarqalish statistikasiga ham to'xtaladigan bo'lsak, ushbu surat orqali buni yaqqol ko'rishimiz mumkin:



Feyk xabarlar turli sohalarda insoniyat hayotiga xavf tug'diradigan holatlarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, saylov huquqini oladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi 8-moddasiga ko'ra, Saylov komissiyalari fuqarolarni o'z ishi to'g'risida, saylov okruglari, uchastkalari tuzilganligi haqida, saylov komissiyalarining tarkibi, ularning joylashgan yeri va ish vaqti to'g'risida xabardor etadi, saylovchilarning ro'yxatlari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro'yxati bilan tanishtiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar to'g'risidagi, shuningdek ovoz berish va saylov yakunlari haqidagi ma'lumotlarni ma'lum qilishi va Ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishini va saylov qanday o'tayotganligini yoritib borishi belgilangan. [4] Yoki "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida" xalqaro paktning 25-moddasida saylov erkin va adolatli bo'lishi uchun saylovchilar ovoz berishda partiyalar, nomzodlar va boshqa omillar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan. Lekin noto'g'ri ma'lumotlar

insonlarning ovoz berish usuliga hamda saylov va referendum natijalariga ta'sir qilishi mumkin.

Sog'liqni saqlash huquqida ham yolg'on xabarlar muammosiga to'xtaladigan bo'lsak, "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida" xalqaro paktning 12-moddasiga asosan, vaksinalar bilan bog'liq xavflar haqida hamda sog'liqni saqlash va kasalliklarning oldini olish bo'yicha noto'g'ri ma'lumotlar odamlarning sog'lig'ini himoya qiladigan sog'liqni saqlash qarorlarini qabul qilishdan to'xtatib qo'yishi va ularni xavf ostiga qo'yishi mumkin.[5] Masalan, Covid-19 pandemiyasi davrida sog'liqni saqlashga asoslangan noto'g'ri ma'lumotlar va feyk xabarlar dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida vaksinaga nisbatan ikkilanishni kuchaytirdi va bu aholi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Axborot huquqlarini himoya qilish va feyk xabarlar tarqalishining oldini olish bo'yicha butun dunyo bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va qonunlar ham qabul qilinmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining yolg'on xabar bo'yicha amaliyot kodeksi, Singapurning Onlayn yolg'on va manipulyatsiyadan himoya qilish to'g'risidagi qonuni kabi milliy darajadagi qonunchilik hujjatlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan tasdiqlangan kampaniya va maqsadi, butun dunyo bo'ylab manfaatdor tomonlarning keng doirasi feyk xabarlar muammosi, qanday qilib buni aniqlash va unga javob berish, oldini olishga qarshi kurashmoqda va harakat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham axborot huquqini himoya qilish va yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish maqsadida bir qancha qonunlar qabul qilingan va ular bo'yicha vazifalar amalga oshirilmoqda. Bunga misol tariqasida birinchi navbatda shuni ko'rsatishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning 19-moddasiga asosan axborot resurslari va axborot tizimlarini muhofaza qilish shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash, axborot resurslarining tarqalib ketishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishi, buzib talqin etilishi, to'sib qo'yilishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanishining oldini olish, axborotni yo'q qilish, to'sib qo'yish, undan nusxa olish, buzib talqin etishga doir ruxsatsiz harakatlarning hamda axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shakldagi aralashishlarning oldini olish, axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash maqsadlarida amalga oshiriladi" [6] degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.

Feyk xabarlar tarqalishining oldini olish uchun qo'llanilayotgan usullardan yana biri bu faktcheking hisoblanadi. Faktchekingda birinchi axborot manbasi va ekspertlarni o'z ichiga olgan faktlarni tekshirishning standart ko'rinishida tayyor materialni tasdiqlash yoki unga raddiya berishdagi tahrir qilishning 3 muhim bosqichi ajratib ko'rsatiladi:

- kontekstga moslikni tekshirish;
- uslub va grammatikani tekshirish;
- ishonchlilik darajasini tekshirish va keltirilgan faktlarni dalillash.

Bugunga qadar xalqaro miqyosda fakt-cheking kompaniyalari, tashkilotlar, turli jamoat tashkilotlari, ekspertlar guruhi faoliyat ko'rsatib keladi. Jumladan, Xalqaro ekspert-jurnalistlar surishtiruv guruhi "Belling cat"68 boshqa faktchekerkardan farqli ravishda, soha mutaxassislarini emas, balki fuqarolik jurnalistikasi vakillarini

hamkorlikka chorlaydi. Mazkur faktcheking platformasi kraudsorsing texnologiyasi asosida faoliyat olib borishi bilan boshqa faktcheking platformalaridan farq qiladi. Guruh asoschisi britaniyalik Eliot Xigginsning fikricha, har bir inson jurnalist bo'lishi mumkin. "Belling cat" ekspertlari foto, videomateriallarni verifikatsiyalash va identifikatsiyalash hamda jinoyat sodir etilgan yerdagi ziddiyatlarni o'rganishda geolokatsiyani aniqlash uchun YouTube, GoogleMaps, Reddit kabi ochiq manbalar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Sayt o'z surishtiruv metodlariga ega: ijtimoiy tarmoqlardagi har bir foydalanuvchiga videomateriallarni verifikatsiya qilish va botlar (feyk akkauntlar)ni aniqlash yuzasidan kengaytirilgan qo'llanmalar taqdim etiladi.

Taklif va xulosalar. Feyk ma'lumotlar va yolg'on xabarlariga chek qo'yish borasida yondashuv feyk xabar natijasida yuzaga keladigan inson huquqlariga salbiy ta'sirlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lishi kerak. Feyk xabarlar bo'yicha siyosat yoki qonun ishlab chiqishni ko'rib chiqayotgan siyosatchilar uchun birinchi qadamlardan biri ularning yondashuvi yolg'on xabarlar qonunlarini inson huquqlari nuqtai nazaridan baholash bo'yicha xalqaro qonun va standartlarga mos kelishiga ishonch hosil qilgan bo'lishi kerak. Bu, masalan, ma'lum bir noto'g'ri ma'lumot uchun javobgarlikka tortilishidan oldin yetkazilishi kerak bo'lgan obyektiv zarar uchun aniq qonuniy talablarni ifodalash yoki mustaqil sud organi tomonidan qanday ma'lumotlar doirasiga kirishini aniqlashni ta'minlashni anglatishi mumkin.

Tegishli organlar, tashkilotlar va siyosatchilar feyk xabarlar va yolg'on ma'lumotlarning ijtimoiy omillariga qarshi turadigan umumiy qonunchilik taqiqlariga muqobil yondashuvlarni ko'rib chiqishlari kerak. Bu ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi dasturlarini taqdim etish yoki mustaqil va tasdiqlangan faktlarni tekshirishni rag'batlantirishni o'z ichiga olishi mumkin. Ular, shuningdek, muammoni yanada kuchaytiradigan onlayn platformalarning biznes modellarini qanday hal qilishlari mumkinligi haqida o'ylashlari kerak: masalan, foydalanuvchi ma'lumotlariga asoslangan mikro-maqсадli va kuzatuv reklamalariga qarshi kurashuvchi yoki reklama va siyosiy tashviqotlar doirasida, ayniqsa, saylov vaqtida shaffoflikni talab qiluvchi samarali ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligini joriy etish orqali.

Demak, axborot olish huquqi demokratik jamiyatlarning asosi bo'lib, bu huquqni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Shu bilan birga, feyk xabarlar muammosi mediasavodxonlikni rivojlantiruvchi, mas'uliyatli jurnalistikani qo'llab-quvvatlovchi va texnologik innovatsiyalarni qamrab oluvchi muvozanatli yondashuvni talab qiladi. Hukumatlar, muassasalar va shaxslar birgalikda harakat qilish orqali ushbu muvozanatni saqlab qolishlari va jamoatchilikning to'g'ri va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishini ta'minlashi va yolg'on xabarlar xavfidan ogoh bo'lishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.gp-digital.org/a-human-rights-based-approach-to-disinformation/>
2. Raspopova S. S., Bogdan Ye. N. Feykovie novosti, Informatsionnaya mistifikatsiya. — M: Aspekt Press, 2018. C. 94
3. Xolmatova S.B. Faktcheking — axborotni verifikatsiya qilishning samarali vositasi sifatida // Molodoy ucheniy. — 2020. — № 4 (294). — s. 495-497. — URL: <https://moluch.ru/archive/294/66733/> (elektron manba murojaat vaqti: 30.05.2023).

4. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi.
5. “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida” xalqaro pakt.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun.
7. Nexis Uni - <https://www.gp-digital.org/a-human-rights-based-approach-to-disinformation/>
8. Nexis Uni - <https://www.pwc.com.au/digitalpulse/fake-news-problem-business.html>

XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA QO'LLANILADIGAN HUQUQLAR TAHLILI

Akmaljon Akramov

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquq kafedrası katta o'qituvchisi

Hamzayeva Gullola Shavkat qizi

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti talabasi

hamzayevagullola9@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda turli xil qonunlarning roli va ularning xalqaro arbitrajda qo'llanilishi doimiy bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Arbitraj jarayonida qo'llaniladigan huquq odatda taraflarning erk muxtoriyatidan kelib chiqadi. Biroq, taraflarning erk muxtoriyati har doim ham qo'llaniladigan huquqni aniq ko'rsatib berolmasligi va nizoni to'liq hal etmasligi mumkin. Ushbu maqolada xalqaro tijorat arbitrajida qo'llaniladigan huquq va qoidalar, ularning ahamiyati, shartnomaga va arbitraj jarayoniga nisbatan qo'llaniladigan huquqlar, umuman olganda, xalqaro arbitrajni tartibga solishning huquqiy manbalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, turli huquqlar bitimning turli jihatlarini tartibga soladigan holatlar, taraflar arbitraj joyi yoki qo'llaniladigan huquqni tanlamagan taqdirda nizoni hal etish tartiblari, kollizion huquqlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Qo'llaniladigan huquq, lex mercatoria, erk muxtoriyati, arbitraj kelishuvi, xalqaro va milliy huquq, kollizion huquq, renvoi.

АНАЛИЗ ПРАВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В МЕЖДУНАРОДНОМ КОММЕРЧЕСКОМ АРБИТРАЖЕ

Аннотация: Сегодня роль различных законов и их применение в международном арбитраже является предметом постоянных дискуссий. Право, используемое в арбитражном процессе, обычно исходит из автономии сторон. Однако свободная воля сторон не всегда может четко указать применимое право и не может полностью разрешить спор. В данной статье рассматриваются законы и правила, используемые в международном коммерческом арбитраже, их значение, права, применяемые к договору и арбитражному процессу, и в целом правовые источники регулирования международного арбитража. Также обсуждаются случаи, когда разные аспекты сделки регулируются разными законами, порядок разрешения споров в случае, если стороны не выбрали место арбитража или применимое право, коллизийное право.

Ключевые слова: Применимое право, lex mercatoria, свобода воли, арбитражное соглашение, международное и национальное право, коллизионное право.

ANALYSIS OF RIGHTS USED IN INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION

Abstract: Today, the role of various laws and their application in international arbitration is a subject of constant debate. The law used in the arbitration process usually comes from the autonomy of the parties. However, party autonomy may not always clearly indicate the applicable law and may not fully resolve the dispute. This article examines the laws and rules used in international commercial arbitration, their importance, the rights applied to the contract and the arbitration process, and in general, the legal sources of regulation of international arbitration. Also, cases where different laws regulate different aspects of the transaction, dispute resolution procedures in case the parties do not choose the place of arbitration or applicable law, conflict of laws are discussed.

Key words: Applicable law, lex mercatoria, party autonomy, arbitration agreement, international and national law, conflict law, renvoi.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida davlatlar o'rtasida rivojlanish dinamikasi kuchayib ular o'rtasida tijorat munosabatlari rivojlanib boradiki, arbitraj nizolarni hal qilishning eng maqbul vositasi hisoblanadi. Boisi, tijoriy xususiyatga ega bo'lgan yirik nizolarning 80 foizidan ortig'i aynan arbitrajlarda ko'rib chiqilmoqda¹. Ammo xalqaro tijorat arbitrajlarida nizoni hal qilish chet el elementi bilan murakkablashgan xususiy nizolarni hal qilgani bois turli huquq tizimlarini qo'llashni taqazo etadi. Turli huquq tizimlarida huquqiy institutlar ko'pincha turli tamoyillarga asoslanadi. Buning ustiga, Anglo-sakson va romano-german huquqiy oilalari mamlakatlarida huquqiy tafakkur ko'p masalalarda bir-biridan keskin farq qiladi. Yoki umumiy qoidaga ko'ra, Arbitrlar qaror chiqarishganidan so'ng yutqazgan taraf qaror shartlariga ixtiyoriy ravishda rioya qilishi kerak. Agar bunday bo'lmasa, ustun kelgan taraf qarorni yutqazgan taraf mol-mulkleri mavjud bo'lgan yurisdiksiyadagi sud tomonidan tan olinishi va ijro etilishiga harakat qiladi. Yutqazgan taraf ham ijro etuvchi sudda qarorga nisbatan e'tiroz bildirishi mumkin, biroq, bunda ham juda tor asoslarda bildiriladi. Umuman olganda, qaror mohiyatiga nisbatan e'tiroz bildirilishi mumkin emas, ya'ni, arbitrlar huquqqa oid xatolar yoki faktga oid xatolarga yo'l qo'ygan taqdirda ham, ular ijro etmaslik uchun asos bo'lmaydi va qaror ijro etiladi. Shu bois, qaror adolatli bo'lishi uchun ham taraflar va arbitr huquqni qo'llash jarayonida qo'llanuvchi huquqqa va huquqni qo'llashga

¹ <https://yuz.uz/uz/news/xalqaro-tijorat-arbitrajini-rivojlantirish--davr-talabi>

alohida e'tibor qaratishi kerak. Xalqaro tijorat arbitrajlarining ahamiyati oshib boradiki, unda qo'llaniladigan qonun va qoidalarning ahamiyati ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy xarakterdagi shartnomalarda tegishli mamlakat huquqi qo'llaniladigan huquq hisoblanadi. Biroq, shartnoma xalqaro bitimga tegishli bo'lsa, vaziyat ancha murakkabroq bo'ladi. Bunda shartnomaga nisbatan tegishli huquq ikki yoki undan ortiq turli xil milliy huquqiy tizimlar bo'lishi mumkin va ushbu turli xil milliy tizimlar ma'lum bir masala yoki masalalar bo'yicha qarama-qarshi huquq normalarini o'z ichiga olishi mumkin. Bir nechta milliy qonunlar arbitrajga to'g'ri qo'llanilishi mumkin bo'lsa, bu chigalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Muhokama va natijalar. “Qo'llaniladigan huquq” atamasi shartnomani talqin qilinishi, uning haqiqiyliigi, taraflarning huquqlari va majburiyatlari, ijro etish uslubi va shartnomani buzish oqibatlarini tartibga soluvchi maxsus huquq tizimini anglatadi². “Qo'llaniladigan huquq” atamasi bilan birga “tartibga soluvchi huquq”, “tegishli huquq” atamaları ham qo'llaniladi. Xalqaro tijorat arbitraji muammosi LP Anufrieva, V.N.Anurova, M.M.Boguslavskiy, V.P.Belov, E.V.Bruntsseva, E.A.Vinogradova, S.N.Nikolyukin, G.K.Dmitrieva, L.A.Lunts, S.N. kabi taniqli rus mualliflari shuningdek, xorijlik huquqshunos olimlar S.M. Shmitoff, U.Lorens Kreyg, J.K. Schaefer, C.R. Drahoza va boshqalar tomonidan o'rganildi. Yuqoridagi va boshqa olimlar nazariyalariga ko'ra, huquqni tanlash masalalari xalqaro tijorat arbitrajida muhim rol o'ynaydi. Xalqaro arbitraj bilan bog'liq ravishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'rtta huquqni tanlash masalalarini alohida ajratib ko'rsatish kerak:

(a) tomonlarning asosiy shartnomasi va boshqa da'volarining mohiyatini tartibga soluvchi moddiy huquq;

b) taraflarning arbitraj kelishuvini tartibga soluvchi moddiy huquq;

v) hakamlilik muhokamasiga taalluqli qonun («hakamlilik sudining protsessual qonuni»), «asosiy qonun» yoki «lex arbitri» deb ham ataladi);

(d) yuqoridagi qonunlarning har birini tanlashda qo'llaniladigan qonunlar ziddiyati qoidalari(kollizion huquq)³.

Umumiy bo'lmasa-da, bu to'rtta muammoning har biri milliy (yoki boshqa) qonunlar bilan tartibga solinishi kerak. Yuqorida aytib o'tilgan masalalarning har birida qonunni to'g'ri tanlash xalqaro arbitraj muhokamasiga muhim ta'sir ko'rsatishi mumkin. Arbitraj jarayonining turli bosqichlarida qo'llaniladigan turli milliy qonunlar har xil - ba'zan bir-biridan keskin farq qiladigan qoidalarni ifodalaydi. Ya'ni bir davlatning milliy huquqi boshqa davlatning milliy huquqiga to'g'ri kelmay qolishi mumkin. Shuning uchun qaysi milliy qoidalar qo'llanilishi mumkinligini tushunish xalqaro tijorat arbitrajida juda muhim bo'lishi mumkin.

² Margaret.L. Mozes. darslik: xalqaro tijorat arbitraji tamoyillari va amaliyoti; 3-nashr

³ Preface in Gary B. Born, International Arbitration: Law and Practice, (©Kluwer Law International; Kluwer Law International 2012) pp. XVII-XVIII.

Xalqaro tijorat arbitrajini xalqaro darajada tartibga soluvchi asosiy hujjatlar quyidagilardir: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro savdo huquqi bo'yicha Komissiyasining 1985 yildagi xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi namunaviy qonuni ("UNCITRAL" deb yuritiladi), 1976 yildagi UNCITRAL arbitraj qoidalari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy komissiyasining Yevropa mamlakatlari uchun 1966 yildagi arbitraj qoidalari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Iqtisodiy komissiyasining 1966 yildagi Osiyo va Uzoq Sharq uchun Xalqaro tijorat arbitraji qoidalari, shuningdek, xalqaro tijorat arbitraji bilan bevosita bog'liq bo'lmagan 1980 yilgi UNCITRAL deklaratsiyasi qoidalardir⁴.

Bilamizki, Arbitraj jarayonida qo'llaniladigan huquq odatda taraflarning erk muxtoriyatidan kelib chiqadi. U arbitrajning muhim elementi hisoblangani bois taraflarning erk muxtoriyati deyarli barcha arbitraj qoidalari va konvensiyalarida, masalan, **Yevropa konvensiyasi, Vashington konvensiyasi, UNCITRAL va ICC qoidalarida** aks etgan. Taraflar odatda o'z davlatlaridan biridagi milliy moddiy huquqni shartnomani sharhlash va shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizoni tartibga solish uchun tanlashadi. Ammo taraflardan birining milliy huquqini tanlaganda, bir taraf ikkinchi tomonning sud tizimi talablarini ikkinchi tarafdek mukammal bilmasligi, buning natijasida boshqa taraf ustunlikka ega bo'lishi ham mumkin. Agar bir taraf o'zining milliy huquqini boshqa tarafga tan oldirishga yo'l topa olmasa, taraflar muqobil moddiy huquq manbasiga murojaat qilishadi.

Yoki ba'zi hollarda turli huquqlar bitimning turli jihatlarini tartibga solishi mumkin. Bu **dépeçage** deb atalib, arbitraj amaliyotida odatda bu bo'lish deb tarjima qilinadi. Ba'zan taraflar bir davlat huquqini tanlashadi lekin qo'llanilishi kerak bo'lgan huquq boshqa davlat bo'lsa xuddi shu holat yuzaga keladi. Masalan, agar shartnoma tovarlar oldi-sotdisi haqida bo'lsa, taraflar BMTning tovarlar xalqaro oldi sotdisi bo'yicha Konventsiyani shartnomaning moddiy huquqi sifatida tanlashlari mumkin. Biroq, bu Konventsiya shartnomadagi barcha masalalarni tartibga solmagan sababli, taraflar Konventsiya tartibga solmagan qismlarni, masalan, shartnoma haqiqiyliги yoki shartnomaning sotilgan tovarlarga nisbatan yuzaga keltiradaigan oqibatlari, tartibga soluvchi milliy huquqni tanlashlari lozim. Ushbu masalalar milliy qonunchilikka havola qilingani tufayli taraflar nafaqat bu masalalarni balki boshqa Konvensiyada tartibga solinmagan boshqa jihatlarni ham qamrab oladigan milliy huquqni tanlashlari kerak. Agar taraflar milliy yoki xalqaro qonunchilikni tanlashda kelisholmasa, yoki xohlashmasa, ular o'z shartnomalariga **lex mercatoriani** tanlashlari mumkin, masalan, **xalqaro huquqning umumiy printsiplari, UNIDRUA xalqaro tijorat shartnomalari printsiplari yoki transmilliy tijorat huquqi.**

⁴ Д.Р.Хафизович, Р. Д.Хафизович, Правовой анализ источников правового регулирования международного коммерческого арбитража, Вопросы студенческой науки Выпуск №3 (19), март 2018

Davlatlar o'rtasidagi yoki davlatlar va xususiy taraflar o'rtasidagi shartnomalarda lex mercatoria tanlanishi mumkin.

Yuqorida taraflarning erk muxtoriyati haqida gapirdik. Biroq, savol tug'iladi? Arbitraj jarayonini aniqlashda taraflar haqiqatdan ham mutlaq erkinlikka egami? Har doim ham taraflarning erk muxtoriyatida ko'rsatilgan huquq bilan nizoni hal qilish imkoni bormi?

Ergasheva Umidaxon Ravshanovna

*Teacher, Fergana State University
English language and literature faculty*

Annotation. This article shows ways to use interactive methods of new pedagogical technologies to improve the professional skills of teachers and have a positive impact on quality.

Keywords. Core subjects, vocational education, interactive methods, innovative pedagogical technologies, creativity.

Today, special attention is paid to the introduction of new pedagogical technologies in secondary schools. Indeed, in the process of developing and designing the rational direction of such a technological education system, the main responsibility rests with the teacher. In this regard, the main task of the teacher is to convey information to students quickly, clearly and understandably. Although students have different ways of receiving news, their inclinations and personalities, the teacher must teach them to think independently, observe, spatialize and draw conclusions. In this process, the student is the main driving force, and his responsibility is to read, read, be able to use tools, and follow technical safety rules. To increase the effectiveness of studying economics at school, a teacher can use non-traditional teaching methods in the classroom. After all, such methods are an indicator that determines the content of the DTS (state educational standard) and the basic curriculum approved on this basis in all subjects, and are considered a criterion that determines the level of knowledge and practical work of students. To successfully complete this work, it will be advisable to use the methods of new pedagogical technology. "Interactive" method. Interactive comes from the Latin word "Inter", which in Uzbek means "between", "between". That is, the activity between teacher and student. The interactive method in education means acquiring knowledge and strengthening the relationship between teacher and student, as well as their activation. Teaching professional subjects in schools in a new way of content is a necessity and requirement of the time during the period of rapid development of science and technology and changes in the social situation. First of all, the teacher must determine the character of the children in the group of students, their

interest in these subjects, and their creative attitude towards them. Differentiated teaching of subjects means that difficult-to-change students have somewhat divided attention when verbally answering questions about mastered concepts, practical and independent work, and it is difficult for them to master this learning process. Therefore, the main goal of using this method is the equal involvement of all students in the lesson. The methods given below and used in practice will help school teachers. Today, interest and attention to the use of innovative pedagogical technologies in the educational process is growing every day, one of the reasons for this is that it increases the interest of students in the subject being taught, in the formation of speaking skills., and in them, new things lead to the generation of ideas and inspire confidence in their knowledge. The results of pedagogical experience in subsequent years confirm that interactive methods and pedagogical technologies are very useful in implementing such tasks.

Therefore, it is very important for teachers of special subjects working in professional educational institutions to know how to use innovative technologies in teaching in their specialties. Interactive methods are used and applied in the process of teaching specialized subjects. The advantages of using interactive methods include making information on complex topics understandable, facilitating the learning process for students, and activating them in the educational process. Basic concepts and terms of medical sciences, the use of symptoms and clinical diagnoses sometimes cause difficulties for students. Interactive methods can be of great help to the teacher in finding a solution to this situation. Therefore, the use of modern interactive methods, in particular: "Sinkway" (5 lines), the assessment method, SWOT analysis tables, case teaching technologies based on the topic, in teaching medical specialties gives the expected results. Therefore, teachers must be able to use appropriate teaching methods for each situation. To effectively acquire knowledge and skills in the modern educational process, it is necessary to take an individual approach to each student. In traditional teaching methods, teachers could only know to what extent each student had mastered the curriculum through an assessment at the end of instruction. The modern learning process includes a new assessment of one's knowledge, with an individual approach to each participant. The main goal of innovative education is to develop in students a sense of responsibility for the future and self-confidence.

Pedagogical technological monitoring is one of the interactive teaching methods that gives the best results in professional classes the "Teacher-Student" system. At the same time, the "Teacher" conveys his knowledge experience, and the "student" implements it with his knowledge and skills. At the same time, the student fully acquires theoretical and practical knowledge. In this way, students can meet the mandatory minimum requirements set by DTS for all subjects. To transfer theoretical knowledge and consolidate it in lessons, it is advisable to use the following methods.

Method 1. I ask face to face. Determines how well all students have mastered the lesson topics. The topics taught to them are given one after another and all the students' thoughts are focused on it. Students throughout the class actively participate in the front-line question and answer system.

Method 2. Ask individually. How deeply students have mastered a particular topic is determined using various examples, formulas, pictures, handouts and test questions.

Method 3: Ask in groups. Students in each row are given a multiple choice question on the board and are asked to quickly and accurately prepare an answer. During the lesson they are taught to think actively.

Method 4. Test method. This method is characterized by determining students' knowledge and the degree of mastery of topics. This method saves time in which the knowledge of the entire class is determined in a short time.

Method 5. Tracking method. This method is effective for practical training and independent work. At the same time, students see their work with their own eyes and express their opinions about the work done.

Method 6. Argument is a method of discussion. In this method, at the end of each chapter, questions, interesting topics and abstracts are written for students. Based on them, it is determined to what extent students have mastered the subject and their thinking, as well as the additional knowledge they received from literature.

Thus, as a result of the widespread use of methods of pedagogical technologies to improve the professional skills of teachers during the lesson, students' interest in these lessons increases, which contributes to the development of their deep knowledge, skills and abilities, based on these items. In this case, the teacher should choose methods based on the knowledge potential and level of the students in the class in which he teaches. Only then will these methods of new pedagogical technology be able to produce positive results.

References:

1. Zaripova G.K. Age and individuality of general secondary school students https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=IxFAX7A AAAAJ
2. Government of the Russian Federation: Academic Journal of Digital Economics and Stability <https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/885/847>, https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=IxFAX7A AAAAJ
3. Zaripova G.K. The spiritual-pedagogical purpose of self-education in the formation of students of general secondary education as a perfect person: "PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" international scientific and methodical journal

PEDAGOGICAL ACMEOLOGY" international scientific-methodical journal.
Zero(3) 2024.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=1xFax7AAAAAJ&sortby=pubdate&citation_for_view=1xFax7AAAAAJ:nrtMV_XWKgEC

4. Zaripova G.K. Spiritual and pedagogical role of self-education in the formation of general secondary schools students as perfect persons: Journal of new century innovations. Vol. 49 No. 1 (2024). Volume-49.

5. Zaripova G.K. Language learners. Journal of new century innovations. Vol. 49 No. 1 (2024), Volume-49. Issue-1, 161-184.

TALONCHILIK JINOYATNI FOSH ETISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI YECHIM VA MUAMMOLAR

Isaqqonov Fayozbek Elmurodjon o'g'li
IIV Akademiyasi 3-bosqich 303-guruh kursanti

Annotatsiya. Ushbu maqola ushbu jinoiy harakatni fosh qilish bilan bog'liq echimlar va muammolarni o'rganadi. Mavjud adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish orqali talonchilikka qarshi kurashning turli usullari o'rganiladi. Natijalar ushbu muammoni hal qilish bilan bog'liq murakkabliklarni ochib beradi, turli yondashuvlarning samaradorligi to'g'risida munozaralar olib boriladi. Oxir oqibat, maqola talonchilikni yumshatish va hamma uchun xavfsizlikni oshirish bo'yicha takliflar bilan yakunlanadi.

Kalit So'zlar: Talonchilik, jinoyatchilik, yechimlar, muammolar, fosh qilish, xavfsizlik.

Talonchilik nafaqat shaxsiy xavfsizlikka tahdid soladigan, balki ijtimoiy farovonlikka putur etkazadigan keng tarqalgan jinoyat bo'lib qolmoqda. Zo'rlik yoki qo'rqitish orqali boshqa shaxsdan mulkni noqonuniy ravishda olish harakati sifatida ta'riflangan talonchilik butun dunyo bo'ylab jamoalar uchun doimiy xavf tug'diradi. Bunday jinoiy xatti-harakatlarni fosh qilish kelajakdagi hodisalarni oldini olish va qurbonlar uchun adolatni ta'minlash uchun juda muhimdir. Biroq, talonchilikni ochish va unga qarshi kurashish jarayoni ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqola ushbu ishda duch kelgan to'siqlarni ta'kidlab, talonchilikni hal qilish uchun taklif qilingan turli xil echimlarni ko'rib chiqadi.

Mavjud adabiyotlarni ko'rib chiqish talonchilik bilan kurashish uchun bir nechta strategiyalarni ochib beradi. Huquqni muhofaza qilish idoralari ko'pincha kengaytirilgan kuzatuv texnikasidan foydalanadilar, shu jumladan videokuzatuv kameralarini joylashtirish va jinoyatchilarni ushlab turish uchun sting operatsiyalarini tashkil etish. Mahallalarni kuzatish tashabbuslari va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha seminarlar kabi jamoatchilikni jalb qilish dasturlari aholiga shubhali faoliyatni aniqlash va xabar berish imkoniyatini berishga qaratilgan. Bundan tashqari, texnologiyaning rivojlanishi mobil ilovalar va favqulodda ogohlantirish tizimlarining rivojlanishiga olib keldi, bu esa odamlarni talonchilik paytida tezda yordam so'rashga imkon beradi.

Ushbu sa'y-harakatlarga qaramay, talonchilikni fosh qilish va samarali hal qilishda qiyinchiliklar davom etmoqda. Kam xabar berish muhim masala bo'lib qolmoqda, chunki qurbonlar qasos olishdan qo'rqishlari yoki huquqni muhofaza qilish idoralariga ishonmasliklari mumkin. Bundan tashqari, onlayn platformalarning

ko'payishi kiber jinoyatlar va shaxsni o'g'irlash kabi talonchilikning yangi shakllarini osonlashtirdi va tergovchilar uchun noyob muammolarni keltirib chiqardi. Qaroqchilikka olib keladigan ijtimoiy-iqtisodiy omillar, shu jumladan qashshoqlik, tengsizlik va ishsizlik ushbu jinoyatga qarshi kurashni yanada murakkablashtiradi.

Talonchilikni fosh qilishda turli xil strategiyalarning samaradorligini baholash uchun ma'lumotlar ko'plab manbalardan, shu jumladan jinoyatchilik statistikasi, akademik jurnallar va huquqni muhofaza qilish organlarining hisobotlaridan to'plangan. Talonchilik hodisalari va huquqni muhofaza qilish organlarining javoblaridagi tendentsiyalar va naqshlarni aniqlash uchun sifatli va miqdoriy ma'lumotlar tahlili o'tkazildi.

Talonchilik jinoyatini fosh qilish har birining o'ziga xos echimlari va potentsial muammolariga ega bo'lgan turli omillarning murakkab o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi.

Yechimlar:

Kuzatuvning kuchayishi: videokuzatuv kameralari, dronlar va boshqa kuzatuv moslamalari kabi texnologiyalardan foydalanish talonchilik dalillarini olish va jinoyatchilarni aniqlashda yordam beradi.

Hamjamiyatni jalb qilish: jamoalarni hushyor bo'lishga va shubhali harakatlar haqida xabar berishga undash qaroqchilikning oldini olishga va jinoyatchilarni ushlab huquqni muhofaza qilishga yordam beradi.

Huquqni muhofaza qilish choralari: huquqni muhofaza qilish organlarini etarli resurslar, o'qitish va ishchi kuchi bilan mustahkamlash talonchilik ishlarini yanada samarali tergov qilish va ta'qib qilishga olib kelishi mumkin.

Jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalari: talonchilikning xavfi va oqibatlarini to'g'risida jamoatchilikni tarbiyalash potentsial huquqbuzarlarni to'xtatishi va jinoyatlar to'g'risida xabar berish madaniyatini kuchaytirishi mumkin.

Xavfsizlik choralari: banklar, do'konlar va turar joylar kabi zaif hududlarda xavfsizlik choralari kuchaytirish qaroqchilarga o'z jinoyatlarini amalga oshirishni qiyinlashtirishi mumkin.

Muammolar:

Maxfiylik xavotirlari: kuzatuvning kuchayishi maxfiylikka tajovuz qilish bilan bog'liq xavotirlarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa jamoat xavfsizligi va shaxsiy huquqlar o'rtasidagi muvozanat bo'yicha munozaralarga olib keladi.

Resurs cheklovlari: huquqni muhofaza qilish organlari byudjet, xodimlar va texnologiya jihatidan cheklovlarga duch kelishi mumkin, bu ularning talonchilik bilan samarali kurashish qobiliyatiga to'sqinlik qiladi.

Jamiyatning ishonchsizligi: ba'zi jamoalarda huquqni muhofaza qilish organlariga ishonchsizlik bo'lishi mumkin, bu esa qaroqchilik holatlarini oldini olish va hal qilishda hamkorlik qilishga to'sqinlik qilishi mumkin.

Hushyorlik xavfi: jamiyatning haddan tashqari jiddiy ishtiroki ba'zida hushyorlik yoki yolg'on ayblovlarga olib kelishi mumkin, natijada begunoh shaxslarga zarar yetkaziladi va Adliya tizimiga putur yetkaziladi.

Jinoyatchilar tomonidan moslashish: xavfsizlik choralari yaxshilanishi bilan jinoyatchilar o'zlarining taktikalarini moslashtirishlari mumkin, bu esa huquqni muhofaza qilish organlari uchun talonchilikning rivojlanayotgan usullaridan oldinda qolishni qiyinlashtiradi.

Ushbu echimlar va muammolarni hal qilish huquqni muhofaza qilish organlari, jamoalar, davlat idoralari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlikni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Shaxsiy huquqlar va shaxsiy hayotga nisbatan jinoyatchilikning samarali oldini olish zarurligini muvozanatlash juda muhimdir.

Topilmalar an'anaviy huquqni muhofaza qilish taktikasi va jamoatchilikka asoslangan tashabbuslarni qamrab olgan talonchilik bilan kurashish uchun ko'p qirrali yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Huquqni muhofaza qilish idoralari, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va texnologiyalarni ishlab chiquvchilar o'rtasidagi hamkorlik kuzatuv va aloqa texnologiyalaridagi yutuqlardan foydalangan holda talonchilikning asosiy sabablarini hal qiluvchi kompleks strategiyalarni ishlab chiqish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qilish organlari va ular xizmat ko'rsatadigan jamoalar o'rtasida ishonch va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan harakatlar hisobot va tergovdagi to'siqlarni engib o'tishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, talonchilik jinoyatini fosh qilish turli manfaatdor tomonlar va strategiyalarning kombinatsiyasini o'z ichiga olgan birgalikda harakatni talab qiladi. Talonchilikning kam ma'lumot berish va rivojlanayotgan shakllari kabi muammolar davom etsa-da, jamoatchilikni jalb qilish, kuchaytirilgan kuzatuv va maqsadli aralashuvlar kabi faol choralar qaroqchilik stavkalarini kamaytirishga va jamoat xavfsizligini oshirishga yordam beradi. Oldinga qarab, mavjud yondashuvlarni takomillashtirishni davom ettirish va talonchilik bilan samarali kurashish va hamma uchun xavfsiz jamoalarni yaratish uchun innovatsion echimlarga sarmoya kiritish zarur. Bundan tashqari, talonchilikni keltirib chiqaradigan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hal qilish uzoq muddatli profilaktika harakatlari uchun juda muhimdir.

Ushbu topilmalar asosida siyosatchilar talonchilikning asosiy sabablarini bartaraf etish va huquqni muhofaza qilish idoralari va jamoalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslarni moliyalashtirishga ustuvor ahamiyat berishlari kerak. Bundan tashqari, talonchilik hodisalari haqida xabar berish va qurbonlar uchun resurslar bilan ta'minlash muhimligini ta'kidlaydigan jamoatchilikni xabardor qilish kompaniyalari hisobot berishdagi to'siqlarni engib o'tishga va jinoyatchilik ma'lumotlarining aniqligini oshirishga yordam beradi. Birgalikda ishlash

orqali biz talonchilik jinoyatini fosh qilishimiz va kelajak avlodlar uchun xavfsizroq, xavfsizroq jamiyat yaratishimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1996 йил 27 февралдаги 3-сонли “Қонунга хилоф равишда қуролга эгаллик қилиш тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти ҳақида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – www.lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги 11-сонли “Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида”ги қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари миллий базасининг расмий веб-сайти – www.lex.uz
3. П.Бакунов. Зўрлик ишлатиб содир этиладиган талон-торож жиноятлари. Монография. Масъул муҳаррир: ю.ф.н., доц. М.Усмоналиев. -Т.: ТДЮИ нашриёти, 2011. 332 бет.
4. И.Р.Астанов. Зўрлик ишлатиб содир этиладиган жиноятлар ва уларни тергов қилишнинг ўзига хос жихатлари: ўқув қўлланма..-Т. ТДЮУ, 2015. - 140 б.
5. Усмоналиев М., Бакунов П. Талончилик учун жавобгарликни либераллаштириш муаммолари: Магистрантлар у-н ўқув қўлланма/ Усмоналиев М., Бакунов П.; ТДЮИ; Масъул муҳаррир: М.Х.Рустамбоев. - Т.: ТДЮИ, 2007.- 44 б.

TALONCHILIK JINOYATNI FOSH ETISH VA OLDINI OLISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Isaqqonov Fayozbek Elmurodjon o'g'li

IIV Akademiyasi 3-bosqich 303-guruh kursanti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talonchilikning xususiyatlari, uning oldini olish strategiyalari va turli xil profilaktika choralarining samaradorligi ko'rib chiqiladi. Keng qamrovli adabiyotlarni tahlil qilish orqali ushbu tadqiqot qaroqchilikning oldini olishda qo'llaniladigan usullarni, ushbu strategiyalarning natijalarini va ularning kelajakdagi jinoyatchilikning oldini olish harakatlariga ta'sirini o'rganadi. Topilmalar shuni ko'rsatadiki, ekologik dizayn, jamoatchilikni jalb qilish va huquqni muhofaza qilish tadbirlarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuv talonchilikning oldini olish uchun juda muhimdir.

Kalit so'zlar: jinoyatchilikning oldini olish, strategiyalar, adabiyotlarni tahlil qilish, jamoatchilikni jalb qilish.

Jinoyatchilik, tahdid yoki qo'rqitish orqali qimmatbaho narsalarni olish yoki olishga urinish harakati sifatida ta'riflangan talonchilik butun dunyo bo'ylab shaxslar, korxonalar va jamoalarga ta'sir qiladigan jiddiy jinoyat hisoblanadi. Zo'ravonlik va moliyaviy yo'qotish ehtimoli bilan talonchilik huquqni muhofaza qilish idoralari va siyosatchilar uchun katta muammolarni keltirib chiqaradi. Qaroqchilikning xususiyatlarini tushunish va oldini olishning samarali strategiyasini aniqlash ushbu keng tarqalgan jinoyatni hal qilishda muhim qadamlardir.

Ko'plab tadqiqotlar talonchilikning xususiyatlarini va uning paydo bo'lishiga yordam beradigan omillarni o'rganib chiqdi. Ushbu tahlillar qashshoqlik va tengsizlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning shaxslarni talonchilik bilan shug'ullanishga moyil qilishdagi rolini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, tadqiqotlar muayyan sohalarida talonchilik stavkalarining asosiy omillari sifatida jinoyatchilar uchun mos maqsadlar va imkoniyatlarning mavjudligi kabi vaziyat omillarini aniqladi.

Profilaktika nuqtai nazaridan olimlar talonchilik ehtimolini kamaytirish va uning qurbonlarga ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan turli strategiyalarni taklif qilishdi. Yaxshilangan yoritish va kuzatuv kabi atrof-muhitni loyihalash tamoyillari potensial huquqbuzarlarni oldini olish va aholi o'rtasida xavfsizlik hissini oshirishi isbotlangan. Jamiyatni jalb qilish tashabbuslari, shu jumladan mahallalarni tomosha qilish dasturlari va jinoyatchilikning oldini olish kampaniyalari, shuningdek, jamoalarni talonchilikka qarshi jamoaviy choralar ko'rishga safarbar etishda samarali ekanligini isbotladi.

Ushbu tadqiqot talonchilik va jinoyatchilikning oldini olish strategiyalari bo'yicha mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish uchun tizimli adabiyotlarni ko'rib chiqish

yondashuvidan foydalangan. Tegishli akademik ma'lumotlar bazalari "talonchilik", "jinoatchilikning oldini olish" va "aralashuv strategiyalari" kabi kalit so'zlar yordamida qidirildi."2000 yildan 2024 yilgacha nashr etilgan tadqiqotlar tahlilga kiritilgan bo'lib, empirik tadqiqotlar va ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilgan maqolalarga e'tibor qaratildi.

Talonchilik, odatda mulkni birovning egaligidan zo'rlik bilan yoki zo'rlik bilan tahdid qilish yo'li bilan noqonuniy ravishda olish harakati sifatida tavsiflanadi, bu haqiqatan ham jinoiy faoliyatning muhim jihati va uning oldini olishga qaratilgan harakatlardir. Bu ikkalasiga ham qanday mos kelishi haqida ma'lumot:

Jinoatchilikning xususiyatlari:

- Talonchilik mulkiy jinoyatlarning bir qismidir, ammo u jabrlanuvchiga to'g'ridan-to'g'ri qarama-qarshilik yoki tahdidni o'z ichiga olganligi sababli ajralib turadi. Zo'ravonlik yoki qo'rqitishning bu elementi uni o'g'irlik yoki o'g'irlik kabi boshqa mulkiy jinoyatlardan ajratib turadi.

- Bu ko'pincha jamoat joylarida, masalan, ko'chalarda, do'konlarda yoki banklarda uchraydi, bu erda qimmatbaho narsalarga ega bo'lgan potentsial maqsadlar mavjud.

- Talonchilik jinoyatchining holati va motivatsiyasiga qarab rejalashtirilgan yoki o'z-o'zidan bo'lishi mumkin.

Jinoyatni Fosh Qilish:

- Talonchilik tez-tez zudlik bilan xabar qilinadi, chunki ular to'g'ridan-to'g'ri qurbonlikni o'z ichiga oladi va odatda jabrlanuvchi va ba'zan boshqalar tomonidan guvoh bo'ladi.

- Kuzatuv kameralari, guvohlar va sud dalillari (barmoq izlari yoki DNK kabi) gumon qilinuvchilarni aniqlashda va talonchilik ishlarini hal qilishda yordam berishi mumkin.

- Ommaviy axborot vositalarida yuqori darajadagi talonchilik haqida xabardorlikni oshirishi va jamoatchilikdan gumon qilinuvchilarni ushlashda huquqni muhofaza qilishga yordam beradigan maslahatlarga olib kelishi mumkin.

Jinoatchilikning Oldini Olish:

- Huquqni muhofaza qilish idoralari talonchilikning oldini olish uchun turli xil strategiyalarni amalga oshiradilar, shu jumladan jinoatchilik yuqori bo'lgan hududlarda patrullarning ko'payishi, jamoat politsiyasi tashabbuslari va ma'lum jinoiy guruhlariga qarshi maqsadli aralashuvlar.

- Korxonalar va jismoniy shaxslar xavfsizlik kameralarini o'rnatish, zaif joylarda yoritishni yaxshilash, naqd pulni boshqarish tizimlaridan foydalanish va qaroqchilikning oldini olish va ularga javob berish bo'yicha xodimlarni o'qitish kabi talonchilik xavfini kamaytirish choralarini ko'rishlari mumkin.

- Xalq ta'limi kompaniyalari talonchilik xavfi to'g'risida xabardorlikni oshirishi va o'zini va mol-mulkini xavfsiz saqlash va himoya qilish bo'yicha maslahatlar berishi mumkin.

Talonchilik jinoiy faoliyatning muhim jihati bo'lsa-da, uni fosh qilish va oldini olish bo'yicha harakatlar huquqni muhofaza qilish harakatlari, jamoatchilikni jalb qilish va zaiflikni kamaytirish va xavfsizlikni kuchaytirish bo'yicha individual choralarni o'z ichiga oladi.

Topilmalar shuni ko'rsatadiki, qaroqchilikni samarali oldini olish uchun ekologik, ijtimoiy va vaziyatli aralashuvlarning kombinatsiyasi zarur. Atrof-muhitni o'zgartirish va maqsadli qattiqlashuv choralari talonchilik imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin bo'lsa-da, jamoatchilikni jalb qilish tashabbuslari aholi va huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida ishonch va hamkorlikni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bundan tashqari, qashshoqlik va ishsizlik kabi asosiy ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hal qilish talonchilikning asosiy sabablarini kamaytirish va jamiyatning uzoq muddatli xavfsizligini ta'minlash uchun muhimdir.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, talonchilik butun dunyo bo'ylab huquq-tartibot idoralari va jamoalari uchun doimiy muammo bo'lib qolmoqda. Qaroqchilikning xususiyatlarini tushunish va dalillarga asoslangan profilaktika strategiyasini amalga oshirish orqali siyosatchilar ushbu jinoyat va unga bog'liq zararni kamaytirishga harakat qilishlari mumkin. Shu bilan birga, talonchilikni keltirib chiqaradigan vaziyat va tarkibiy omillarni hal qiladigan yaxlit yondashuvni qo'llash juda muhimdir. Kelajakdagi tadqiqotlar turli xil profilaktika choralarining samaradorligini baholashni davom ettirishi va jamoat xavfsizligi va farovonligini oshirishga innovatsion yondashuvlarni aniqlashi kerak.

Adabiyotlar.

1. Baić, V. (2018). *Kriminalistička psihologija*. Belgrade: The Academy of Criminalistic and Police Studies.
2. Bjelovuk, I. (2016). *Praktikum za kriminalističku tehniku*. Belgrade: The Academy of Criminalistic and Police Studies.
3. Ivanović, Z., Bajić, V. (2016). *Taktika obezbeđivanja iskaza*. Belgrade: The Academy of Criminalistic and Police Studies.
4. Jovašević, D. (2006). *Leksikon krivičnog prava*. Beograd: Službeni glasnik.
5. Kolarević, D., Paunović, M. (2017). *Istraživanje kriminalistički relevantnih obeležja krivičnog dela razbojništva*. *Kultura polisa*, God. 14, br. 33.
6. Marinković, D., Lajić, O. (2019). *Kriminalistička metodika*. Belgrade: University of Criminal Investigations and Police Studies.

7. U.S. Department of Justice: Office of Justice Programs, National Institute of Justice (2010). Crime Scene Investigation: A Guide for Law Enforcement – research report.

8. Zdravković, Lj. (2012). DNK analiza i njena primena u kriminalističkoj praksi. Zbornik radova Pravnog fakulteta u Nišu, br. 59.

9. Ћarković, M., Ivanović, Z. (2017). Kriminalistička taktika. Belgrade: The Academy of Criminalistic and Police Studies.

10. Ћarković, M. (2005). Krivičnoprocesni i kriminalistički aspekti uviĐaja na mestu dogaĐaja. Belgrade.

ORGANIZMNI CHINIQTIRISH USULLARINING FIZIOLOGIK VA BIOKIMYOVIYASOSLARI

Suleymanova Marguba Kenjaboyevna

*Fargona politexnika instituti akademik litseyi biologiya
fani o'qituvchisi Farg'ona, O'zbekiston*

Sulaymonov Murodjon

FarPI akademik litseyi 6-23 guruh o'quvchisi

Annotatsiya: Maqolada oganizmni chiniqtirishning umumiy pinsplari, ta'sir etuvchi omillar va chiniqishni organizmning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish zarurati haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: chiniqish, termoregulyatsiya, suv, harorat, mashq, jismoniy qobiliyat.

Muhit haroratiga chiniqish shartli refleks asosida yuz berib, bunda omillarning ta'sir etish vaqti, o'ziga xos xususiyatlari va atrof - muhit shartli signal bo'lib xizmat qilishi lozim. Beriladigan muolajalarning miqdorini aniqlashda termoregulyatsiyaning fasllar davomida o'zgarib turishini hisobga olish lozim. Masalan, bahor va yozning boshlanishida kimyoviy termoregulyatsiya ancha intensiv bo'ladi. Bahorda sovuq haroratni sezish bo'sag'asi kuz paytiga nisbatan ancha past bo'ladi. Bundan tashqari, kimyoviy termoregulyatsiyaning o'zgarishi ertalabki soatlarda ancha tez bo'ladi. Sovuq haroratga chiniqish suv muolajalari va sovuq vanna orqali olib boriladi. Suvda haroratni o'tkazish kuchli bo'ganligi uchun u tanani tez sovutish xususiyatiga ega. Shuning uchun suv muolajalari qisqa bo'ladi (bir necha sekunddan , bir necha minutgacha). Sovuq haroratli suvda chiniqishda tananing ma'lum bir qismiga uning ta'sirini berish bilan ham amalga oshirish mumkin. Masalan, sovuq suvni badanga purkash, tanani yuqori qismini nam sochiq bilan artish, oyoqni sovuq vanna qilish, tomoqni chayqash va boshqalar. Bunda tanani aynan manashu qismi sovuq haroratga oldin ko'proq uchramagan bo'lishi kerakligiga e'tibor berish kerak. Masalan, yuz yoki qo'l uchlariga sovuq muolajalar bilan ta'sir etib organizmni chiniqtirib bo'lmaydi. Chunki tananing bu qismlariga sovuq harorat doim ta'sir etib turadi. Ba'zan organizmni chiniqtirish issiq va sovuq suvni navbatma -navbat ta'sir ettirish bilan amalga oshiriladi. Bunday yo'l bilan chiniqtirishda termoregulyatsiya jarayoni mukammallashib boradi.

Har qanday jismoniy faoliyat organizmni bevosita qizitadi, ya'ni termik effekt beradi. Buning uchun ham sovuq sharoitda mashq bajarish ancha yengil o'tadi. Chunki bunday paytda organizmning ichki suyuqliklar hisobidan ketishiga

tashqi haroratning pastligi yo'l qo'ymaydi. Issiq sharoitda aynan shunday intensivlikdagi ishni bajarish ancha qiyin kechadi. Chunki, muhitning issiqligi ichki issiqlik bilan qo'shilib tana harorati oshib ketadi (40-41 C) va organizmning me'yoriy ishlashi qiyinlashadi. Charchash termoregulyatsiyani buzadi, shuning uchun chiniqish jarayonlarini organizm chachaganda olib borish maqsadga muvofiq emas. Charchagan paytda tana juda tez sovib, harorat pasayib ketishidan saqlanish kerak. Bir vaqtning o'zida organizmni chiniqtirish uchun issiq yoki sovuq ta'sirini me'yoridan ko'p qabul qilmaslik kerak.

Qish payti ochiq havoda sovuq suvda cho'milish tana haroratini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun sovuq suvda cho'milish muddatini oshiqcha cho'zish mumkin emas. Bunday paytlarda suvdan chiqqandan keyin tana haroratini tezlik bilan o'z o'rniga keltirish kerak. Sovuq suvda me'yorida ortiq bo'lsa, ishtaha yo'qoladi, uyqu qochadi, kishi ozib ketadi, jinsiy faoliyat buziladi. Haddan tashqari ko'p mashq qilish dastlab, organizm chiniqqanligining nospesifik komponentiga salbiy ta'sir etishi kuzatiladi (bir vaqtning o'zida spetsifik komponent saqlanadi). Shuning uchun ham me'yoridan ziyod mashq qilish sportchilarda shamollash holatiga olib keladi. Sportning qaysi turi bo'lmasin mashq qilish jarayoni ma'lum tartibda tuziladi. Har bir mashq qilish texnik tomondan bir necha qismlarga bo'linadi. Birinchi qism – kirish qismi, bunda sportchi bo'lajak ish uchun tayyorlanadi (razminka qiladi). So'ngra, umumiy va maxsus qismlarga o'tiladi, uning umumiy qismi nerv tizimida optimal qo'zg'alishni uyg'otish, moddalar almashinuvi va tana haroratini ma'lum darajaga ko'tarish, nafas olish va qon aylanish tizimi ishini yuqori funksional holatga yo'llash kabi holatlar bilan xarakterlanadi. Keyin bajariladigan maxsus qism esa bo'lajak ishda bevosita qatnashadigan muskullar tizimida optimal qo'zg'aluvchanlikni vujudga keltiradi. Shu sababli razminka uchun maxsus xarakterlar tanlab olinadi. Razminka natijasida sportchi organizmida ishga kirishish xolati sodir bo'ladi.

Ikkinchi qism - asosiy qism bo'lib, bunda texnik, umumiy va maxsus tayyorgarlik amalga oshiriladi. Bu qismning mazmuni, uslubi sportchiga beriladigan yuklamaning hajmi va intensivligini aniqlaydi. Bu qismda qo'zg'alish eng yuqori darajada bo'ladi.

Uchinchi qism - yakunlovchi qism deyiladi. Bu davrda qo'zg'aluvchanlik bir muncha kuchsizlanadi, bajariladigan harakatlar esa bo'lajak qaytarilish jarayonini kuchaytirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bevosita ishga qatnashgan muskullarning tarangligi asta sekin kamaytiriladi.

Mashq qilishning ko'rib o'tilgan qismlarini yurak urishini (pulsni) hisoblab aniqlash tavsiya qilinadi. Birinchi qismda u tezlasha boshlashi, ikkinchi qismda maksimumga yetishi va nihoyat uchinchi qismda bir muncha sekinlashishi kerak.

Sportchining umumiy tayyorgarligi yoki mashq qilganligi uning ma'lum sport turi bilan shug'ullanishida muhim ahamiyatga ega. Bunday holat dastlabki paytlarda, ya'ni mashq qilishning boshida ko'proq ahamiyatli. Keyinchalik, yoki yuqori malakaga erishilganidan keyin umumiy jismoniy tayyorgarlik ham maxsus (o'z sohasiga yaqin) olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Mashq qilishning umumiy prinsplaridan yana biri bu mashq qilishning uzluksiz davom ettirilishidir. Bu prinsp o'z o'rnida mashq qilishning sharttli reflektor faoliyat ekanligini ko'rsatadi. Mashq qilish orasida katta tanaffus yoki uzilish hosil bo'lgan vaqtda bog'lanishning(shartli refleksi) yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun mashq qilish uzluksiz davom ettiriladi, orada tanaffus ham sportchining tayyorgarlik darajasi yoki individual xususiyatlariga ko'ra tanlab olinadi. Ana shunda mashq qilish unumli bo'ladi. Ko'pincha mashq qilish organizm ish qobiliyati yuqori bo'lganda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin ba'zan chidamlilikni kuchaytirish uchun ish qobiliyati oshmasa ham mashq qilinadi. Mashq qilish orasida tanaffus 10-20 minutgacha bo'lishi mumkin. Hafta davomida qayta mashqlar o'rtasidagi oraliq vaqt 48 soatdan ko'p bo'lmasligi kerak, aks holda mashq qilganlikning samaradorligi yo'qoladi. Sportchining jismoniy tayyorgarligi yuqori bo'lganda mashq qilish haftasiga 5-6 marta va hatto bir kunda ikki marta bo'lishi ham mumkin.

IJTIMOIY SIYOSATDA AHOLINING IQTISODIY FAOLLIGI

Haydarova Feruza Umurzoqovna

Samarqand viloyat Toyloq tuman- 2-son kasb-hunar maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy siyosatda aholing iqtisodiy faolligi va aholi bandligi iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qilingan, shuningdek O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni barqarorlashtirish sharoitida mehnat bozorini takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif asosida bandlikni ta'minlashning ijtimoiy munosabatlari to'g'risida tahlil va natijalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy siyosat, aholining ish bilan bandligi, mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi, iqtisodiy nafaol aholi, mehnat bozori, ishchi kuchi:

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется экономическая активность населения и занятость населения как экономическая категория в социальной политике, а также совершенствование рынка труда в условиях стабилизации экономики в Республике Узбекистан. Представлены анализ и результаты анализа и результатов улучшения занятости населения, социальных отношений обеспечения занятости на основе спроса и предложения рабочей силы.

Ключевые слова: Социальная политика, занятость населения, трудовые ресурсы, экономически активное население, экономически неактивное население, рынок труда, рабочая сила;

ABSTRACT

In this article, the economic activity of the population and the employment of the population as an economic category are analyzed in the social policy, as well as the improvement of the labor market in the conditions of the stabilization of the economy in the Republic of Uzbekistan, the improvement of the population employment, and the social relations of ensuring employment based on the demand and supply of labor force. analysis and results are presented.

Key words: Social policy, population employment, labor resources, economically active population, economically inactive population, labor market, workforce,

KIRISH

Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jadallashgani va O'zbekiston yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'ygani, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ta'limiy, ilmiy muhitning o'zi esa ancha murakkab va serqirra bo'lib borayotgani, bu sodir bo'layotgan jarayonlarni uzluksiz tahlil qilishning, tezda tuzatishlar kiritishning,

boshqaruvni takomillashtirish va o'sishning yangi manbalarini kreativ tarzda topishning dolzarbligini oshirishi barchaga ayon bo'ldi.

Shuning uchun 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining qabul qilinishi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaga tuzatishlar kiritish hamda ularni umumxalq muhokamasiga kiritish jarayonining boshlanishi qonuniy ko'rinadi. Shuningdek, asosiy konsepti "inson – jamiyat – davlat" bo'lgan islohotlar falsafasining keyingi evolyutsiyasi tabiiy ko'rinadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021- yil 7 -dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tabrigida "Hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat", degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati yetdi" deb ta'kidlagandi.

Ijtimoiy davlat har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat prinsiplari asosida munosib yashash sharoitlarini yaratib berishini, u – ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam berish bo'yicha samarali siyosat olib boradigan davlat modeli ekanini ta'rifladi.

Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 27 fevraldagi videoselektor yig'ilishidagi chiqishidan quyidagi jumla kambag'allik bilan kurashishga majmuaviy yondashuv mohiyatini yaqqol tasvirlaydi: "Kambag'allikni qisqartirish ish haqi yoki nafaqalar miqdorini oshirish, ommaviy kreditlar berishni anglatmaydi. Avvalo, aholini kasbhunarga o'rgatish, moliyaviy savodxonligini oshirish, aholini tadbirkorlik bilan shug'ullanishga undash, infratuzilmani, ta'lim va davolash sifatini yaxshilash, manzilli ko'mak berish tizimini joriy etish zarur".

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Keyingi vaqtlarda chop etilayotgan ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda va lug'atlarda ijtimoiy sohaning nazariy asosi faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib ta'riflanmoqda. Jumladan, G.E.Slezingerning fikricha, ijtimoiy sohaning predmeti inson va uning ehtiyojidan kelib chiqadigan, davlat boshqaruvi ilmiy, o'quv, mehnat va xo'jalik faoliyatidan iborat jabhalarni namoyon qiladi.¹ Yoki V.G. Ignatov va boshqalar tomonidan yozilgan o'quv qo'llanmada ta'riflanishicha, ijtimoiy soha iqtisodiy kategoriya sifatida insonlarning ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy munosabat jabhalarini o'zida namoyon qiladi.² B.A.Rayzberg va boshqalar hamkorligidagi tayyorlangan lug'atda, insonlarning ehtiyoji, farovonligini, turmush darajasi va shaklini aniqlovchi hamda bevosita ular bilan bog'langan tashkilotlar, korxonalar, tarmoqlar yig'indisi ijtimoiy sohaligi ta'riflanadi.³

¹ Слезингер Г.Э. Социальная экономика – М.: Дело и сервис, 2001. - С. 9.

² Игнатов В.Г. и др. Экономика социальной сферы. М.: Март, 2005. - С.11.

³ Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь – 30-е изд.

O‘zbekistonlik olimlardan N.To‘xliiev rahbarligida yozilgan darslikda, aholining turmush sharoiti, hayot kechirishi va turmush darajasini yaxshilash bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sohalar ijtimoiy sohalar hisoblanadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalari, uy-joy kommunal xo‘jaligi, madaniyat va san’at, sport va boshqa ijtimoiy infratuzilma sohalar ijtimoiy sohalar hisoblanadi. Axborot va telekommunikatsiya, yo‘lovchi transporti, aholiga pulli xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar ham ijtimoiy ahamiyatga ega xizmatlar ko‘rsatuvchi tarmoqlarga kirishi keltiriladi.⁴

X.Abulqosimov va O.Xamraevlarning o‘quv qo‘llanmasiga ko‘ra, “Ijtimoiy soha – bu aholini turmush darajasi, hayot tarzi va ularning farovonligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlar, korxonalar majmuidir. U o‘zida xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini (ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta’minot, uy-joy kommunal xizmatlari, yo‘lovchi tashish transportlari, aloqa) mujassamlashtiradi”.⁵

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, tarixiylik, tanqidiy, qiyosiy, mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari, respublika yangi iqtisodiy siyosatda izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar, O‘zbekistondagi transport-logistika tizimini raqamlashtirish, ailmiiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, monografik kuzatuv, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash bo‘yicha iqtisodiy tajribalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha olib borgan ilmiy tadqiqotlar asosida yoritilgan. Mavzuga oid pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni o‘rganib tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa-so‘rovnomalar, ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalarini o‘rganish, pedagogik tajriba, taqqoslash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyoti izchil, barqaror va jadal o‘sayotgan jahondagi juda kam sonli mamlakatlar safidan mustahkam o‘rin olayotganligini faxr bilan e’tirof etish mumkin. Ijtimoiy, madaniy sohalarda mamlakatimiz erishayotgan ulkan yutuqlar nufuzli halqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan yuksak baholanmoqda.

Axborotlar almashinuvi birinchi o‘ringa chiqayotgan yangi etapda ijtimoiy xizmatlarning ahamiyati yanada ortmoqda va mazmunan boyib, mantiqan inson faoliyatining barcha turlari bilan chambarchas bog‘lanmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida qabul qilingan va davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Xususan, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Oylik va maoshlar, pensiya, stipendiya, va ijtimoiy nafaqalarning bosqichma-bosqich oshirib borilishi.
2. Aholining ish bilan bandligini oshirishning samarali usullarini yaratish.

Перереб. и доп. – М.: ИНФРА, 2001. – С.37

⁴ To‘xliiev N. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti T.: “O‘zbekiston”, 2016. -B. 443.

⁵ Abulqosimov X.Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish-T.: “Iqt-Moliya”, 2014.-B.170

3. Aholini arzon va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash;
4. Aholining yashash sharoitlarini yaxshilash.
5. Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish.
6. Aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish.
7. Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish.
8. Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish.

Endigi vazifa ijtimoiy xizmatlarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish va izchil rivojlantirish hamda istiqbolli yo'nalishlarini belgilab olishdan iborat. Ushbu vazifalarning bajarilishi kelgusida aholining ijtimoiy xizmatlardan samarali foydalanishga va yangi zamonaviy xizmatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

XXI asr intellektual asri deb e'tirof etilishi ijtimoiy sohada tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyatini tug'dirmoqda. Bu o'z navbatida ijtimoiy xizmatlar va tadbirlar rivojlanishi evolyutsiyasini o'rganishni va shular asosida bugungi ijtimoiy majmuani yaratish maqsadga muvofiq bo'lmoqda.

O'tgan yillarda O'zbekistonda iqtisodiy faol aholining soni 15 071,3 ming kishini tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 90,6 ming nafarga ko'p.

Iqtisodiy faol aholi ulushi mamlakat umumiy mehnat resurslarining 77,3 foizini tashkil etadi.

2022 yilda O'zbekiston bo'yicha mehnat resurslari soni 19 494,6 ming kishini tashkil etdi.

O'zbekiston hududlari orasida eng ko'p mehnat resurslari Samarqand viloyatiga to'g'ri keldi va uning respublika mehnat resurslari umumiy sonidagi ulushi 11,1 foizni tashkil yetdi.

1-jadval

Mehnat resurslari soni viloyatlar bo'yicha quyidagicha:⁶

T/r	Hududlar	Soni
1	Samarqand	2 160,4 ming;
2	Farg'ona	2 095,5 ming;
3	Toshkent shahri	1 916,8 ming;
4	Qashqadaryo	1 819,3 ming;
5	Andijon	1 777,9 ming;
6	Toshkent	1 616,3 ming;
7	Namangan	1 592,8 ming;
8	Surxondaryo	1 469 ming;
9	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 074,6 ming;

⁶ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

10	Buxoro	1 073,4 ming;
11	Xorazm	1 050,1 ming;
12	Jizzax	791,1 ming;
13	Navoiy	570,2 ming;
14	Sirdaryo	487,2 ming kishi.

Aholining ish bilan bandligi sohasi tarkibiga mehnat bozoridan tashqari aholining o'zini-o'zi ish bilan ta'minlashi, ularning uy xo'jaliklari tarkibidagi faoliyatlari, kadrlarni tayyorlash va ishga joylashtirish maqsadli dasturlari ham kiradi. Ya'ni, ish bilan bandlik sohasi mehnat bozori tushunchasidan kengroqdir. Mehnat bozorini tartibga solish ish bilan bandlikning bir qismi hisoblanadi.

2-jadval

Hududlar ishsizlik darajasi, %⁷

T/r	Hududlar	2018	2019	2020	2021	2022
	Respublika bo'yicha:	9.3	9.0	10.5	9.6	8.9
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	9.5	9.1	10.5	10.1	9.1
2	Andijon	9.6	9.2	10.9	9.9	9.1
3	Buxoro	9.0	8.9	10.6	9.8	8.8
4	Jizzax	9.4	9.2	11.0	10.1	9.3
5	Qashqadaryo	9.7	9.3	11.1	10.2	9.3
6	Navoiy	8.7	8.5	9.4	8.8	8.0
7	Namangan	9.5	9.1	10.6	9.7	8.9
8	Samarqand	9.7	9.3	11.0	9.9	9.3
9	Surxondaryo	9.5	9.3	11.1	10.2	9.3
10	Sirdaryo	9.6	9.3	11.0	10.2	9.3
11	Toshkent	9.0	8.9	10.5	9.4	8.8
12	Farg'ona	9.7	9.3	10.9	10.0	9.2
13	Xorazm	9.5	9.1	10.9	9.9	9.0
14	Toshkent sh	7.9	7.4	8.0	7.0	6.5

O'zbekistonda 2022 yil holatida ishsizlik darajasi 8,9 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 foizga kamaygan.

2022 yil holatida mehnat resurslari soni 19 517,5 ming kishini tashkil etib, 2021 yilning shu davriga nisbatan 0,9 foizga yoki 172,5 ming kishiga oshgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni 13 706 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,23 foizga (167,1 ming kishiga) oshgan.

3-jadval

⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Mehnat resurslarining iqtisodiy faol va nofaol aholi bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi).⁸

Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022
Jami mehnat resurslari	18829,6	18949,0	19158,2	19345,0	19517,5
Shahar	10032,5	10052,7	10471,7	10609,2	10394,1
Jamiga nisbatan foizda	53.3	53.1	54.7	54.8	53.3
Qishloq	8797,1	8896,3	8686,5	8735,8	9123,4
Jamiga nisbatan foizda	46.7	46.9	45.3	45.2	46.7
Iqtisodiy faol aholi	14641,7	14876,4	14797,4	14980,7	15038,9
Shahar	7682,0	7838,2	8189,8	8406,1	7945,3
Jamiga nisbatan foizda	52,5	52.7	55.3	56.1	52.8
Qishloq	6959,7	7038,2	6607,6	6574,6	7093,6
Jamiga nisbatan foizda	47.5	47.3	44.7	43.9	47.2
Iqtisodiy nofaol aholi	4187,9	4072,6	4360,8	4364,2	4478,6
Shahar	2350,5	2214,5	2281,9	2203,0	2448,8
Jamiga nisbatan foizda	56.1	54.4	52.3	50.5	54,7
Qishloq	1837,4	1858,1	2078,9	2161,2	2029,8
Jamiga nisbatan foizda	43.9	45.6	47.7	49.5	45,3

2022 yil holatida mehnat resurslari soni 19517,5 ming kishini tashkil etib, 2021 yilning shu davriga nisbatan 0,89 foizga yoki 172,5 ming kishiga oshgan, 2018 yilga nisbatan 3,65 foizga oshgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lganlar soni 13,7 million kishini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,24 foizga yoki 167,1 ming kishiga oshgan.

Shuningdek, 2022 yil holatiga ko'ra, rasmiy sektorda band aholi soni 6 milliondan ortiq kishini tashkil qilib, 2021 yilning shu davriga nisbatan yuridik shaxslardan band bo'lganlar soni 4,1 foizga yoki 240,6 ming kishiga oshgani kuzatilgan.

Norasmiy sektorda band bo'lganlar soni 5,69 million kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 8,2 foiz yoki 507,5 ming kishiga kamaygan.

Tahlillarga ko'ra, ishga muhtoj bo'lganlarning umumiy soni 1,326 million kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 8,8 foizni tashkil etmoqda. 16-30 yoshgacha bo'lganlar orasida ishsizlik darajasi 14,5 foiz, ayollar orasida ishsizlik

⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

darajasi esa 12,8 foizga yetgan. Bundan tashqari, ishlashni xohlamaydigan yoki darhol ishga joylashishga imkoniyati yo'qlar o'tgan yilga nisbatan 183,6 ming kishiga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotgan talabalar hamda tug'ruq ta' tilidagi ayollar soni 222,4 ming kishiga oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ish bilan band bo'lganlar sonining kamayishi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan bandlik tarkibining jiddiy ravishda o'zgarishi, ish bilan norasmiy bandlik ko'lamlarining kengayishida o'z ifodasini topadi. Ushbu jarayonlar shakllanishining qonuniyatlarini aniqlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari belgilash, ekonometrik modellar tizimi yordamida ishchi kuchini samarali taqsimlash mexanizmini takomillashtirish, aholining ish bilan bandligini tarkibiy jihatdan o'zgartirish dasturlarini ishlab chiqishda nihoyatda muhimdir. Keltirilgan vazifalarni amalga oshirilishi o'z navbatida mamlakat aholisi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, mamlakatimizda ish o'rinlarini tashkil etish sohasidagi davlat siyosati ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko'paytirish bo'yicha xorijiy davlatlar singari aniq usullar asosida ishlab chiqilishi kerak.

Buning uchun quyidagi tadbirlarni e'tiborga olish zarur deb o'ylaymiz:

- davlat tomonidan iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni rag'batlantirish, bu esa yangi ish joylarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;
- yangi ish joylari tashkil etilganda tadbirkorlarga va kichik biznes korxonalariga soliq imtiyozlari berish;
- o'z-o'zini ijtimoiy zarur mehnat bilan band qilishni rag'batlantirish;
- kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikda investitsion faollikni rag'batlantirish asosida shart-sharoitlar yaratish, bu ko'plab mamlakatlarda aholi bandligini ta'minlashning muhim uslubi sifatida o'rganilmoqda;
- tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ishsiz qolgan yoki ishidan ajralib qolish xavf solayotgan shaxslarning ish izlashlarini faollashtirish maqsadida kasbga o'qitish, qayta tayyorlash va ularga axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatish;
- mehnat bozorida vositachilik qilayotgan mehnat birjalari va bandlik xizmatlarini rivojlantirish, friksion ishsizlik va tarkibiy o'zgarishlar bilan bog'liq ishsizlikni pasaytirish maqsadida vakant ish joylari to'g'risida ma'lumotlar yig'ish, tahlil qilish va ularga tezkor murojaatini ta'minlash (axborot-maslahat markazlari);
- aholining alohida guruhlarini - yoshlar, nogironlar, ishlash qobiliyati chegaralangan insonlar uchun ish joyi sharoitlarini yaratish bilan bog'liq xarajatlarni qoplashlari uchun ish beruvchilarga kompensatsiyalar ajratish;
- kompetentlik va mehnatga ijodiy munosabat uchun moddiy rag'batlantiradigan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratish;

- zarurat tug'ilganda oilalarga ishchi kuchi zich bo'lgan hududlardan vakant joylar bo'lgan xududlarga ko'chib o'tishida subsidiya va kreditlar berish yo'li bilan ko'maklashish;

- bandlik muammolarini hal qilishda xalqaro hamkorlik, xalqaro mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalarni hal qilish;

- davlat sektorida – ta'lim, tibbiy xizmatlar, kommunal xo'jaligi, jamoatchilik binolari va inshootlarini qurish sohalarida ishchi o'rinlarini yaratish; - maqsadli jamoat ishlarini tashkil qilish va hokazo.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida aholi ish bilan bandligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari bo'yicha xorijiy amaliyotlar tajribasini ilmiy tadqiq va tahlil etish mazkur davlatlar tajribasining ilg'or, respublikamiz uchun qulay bo'lgan jihatlaridan foydalangan holda, aholi ish bilan bandlik darajasini oshirishning samarali, istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси “Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида”ги Қонуни. (янги тахрирда). –Т., 1998. 4-10 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодекси, Тошкент, Адолат, 1996, 256 бет
3. “2022 — 2026 Yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot stranegiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Prezidentining PF-60-son Farmoni 28.01.2022 y
4. “2021-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish strategiyasi”
5. Mirziyoev.Sh.M. .Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -Т.: O'zbekiston. 2017. –326 b.
6. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta'siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiyhuquqiy masalalari. –Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.
7. O'tamuradov A. Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyusiyasi. Monografiya, -Т.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. -B. 192.;
8. Sh.Raximov. “Demokratik jamiyat qurish jarayonida “fuqarolar faolligi” va “siyosiy faollik” tushunchalari” //“Jamiyat va boshqaruv” jurnali, T., 2018. № 4 (82). B. 58.
9. Yakubov Sh. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlari / Monografiya. – Т.: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2018. – 205 b.

10. Odilqoriev H.T. O‘zbekiston davlati va jamiyati innovatsion rivojlanishining huquqiy jihatlari/O‘quv qo‘llanma. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-Matbaa uyi, 2019. – 70 b.
11. Yazdonov U.T. Jamoatchilik fikri va ijtimoiy hayot. -Samarqand: “SamDU”, 2019. -B.25.
12. Aliev B. va Otaboyev A. “O‘zbekistonda davlat va jamiyat munosabatlari tahlili”, “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020. B. 4.
13. Слезингер Г.Э. Социальная экономика – М.: Дело и сервис, 2001. - С. 9.
14. Игнатов В.Г. и др. Экономика социальной сферы. М.: Март, 2005. - С.11.
15. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь – 30-е изд.
16. Переб. и доп. – М.: ИНФРА, 2001. – С.37
17. To‘xliiev N. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti T.: “O‘zbekiston”, 2016. - B. 443.
18. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlari.

CONDUCTING A LESSON ON THE SUBJECT OF "RATIONAL EQUATIONS" IN AN INTERACTIVE WAY (EXAMPLE OF VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS)

Tojihanova Shahsanam

Teacher of Vocational School No. 1 of Uychi District

Abstract: In this scientific work, the topical issues of interactive organization of the lesson on "Rational Equations" within the framework of mathematics in professional educational institutions are discussed. Practical training on the subject and organization of independent work are covered in the work. Some reforms in the professional education system were also discussed.

Key words: Rational equations, interactive, professional education, method, formulas, training.

INTRODUCTORY PART

In accordance with the priority tasks for the socio-economic development of the country, raising the growing young generation to be modern educated and highly spiritual, fundamentally improving the content of personnel training, creating the necessary conditions for training specialists at the level of international standards, and regulatory legal documents regulating the activities of educational institutions at all levels in order to coordinate the preparation processes, several legal documents were developed and amendments and additions were made to some of the current documents.

To increase the quality of education at all levels of education, to introduce international experience and requirements in the field, to include children up to school age in pre-school educational institutions, to increase the coverage of graduates of general education schools, academic lyceums and vocational colleges to higher education, to expand facilities and opportunities for applying for higher education and access to ensure the fair and transparent organization of examinations, to reconstruct the buildings of educational institutions based on the requirements of the times and to build modern ones and to update their material and technical base, to attract the private sector to the field, to improve the system of material incentives for teaching staff and to increase their salaries step by step measures are being taken.

In particular, according to the decree of the head of the state "On approval of the concept of development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030", the Republic of Uzbekistan will be among the first 30 advanced countries of the world by 2030 according to the PISA (The Program for International Student Assessment) rating. task was set. In addition, in order to organize international studies in the field of education quality assessment in the public education system, it was

decided to create a national system for assessing the quality of education in general education schools, PISA, which is aimed at assessing the level of literacy of students in reading, mathematics and natural sciences.

The objectives of the "Uzbekistan-2030" strategy are to ensure the balance of the labor market and the development of its infrastructure, to create conditions for the full realization of work and entrepreneurial activity of the working population, to improve the quality of the workforce, and to expand the system of training people in need of work.

MAIN PART

It is necessary to further improve the quality of education in vocational schools in order to effectively implement the above tasks and achieve the set goal quickly and qualitatively.

We found it necessary to provide the necessary basic concepts (without proof) in order to free the students from referring to various manuals on theories and certain concepts during independent practical training. In giving these basic concepts, in the guide as a whole, an attempt was made to maintain the sequence of the university's program for teaching the course, but in order to maintain scientificity and facilitate the presentation of concepts, it was necessary to deviate from this principle.

Each paragraph is followed by several examples and problems with solutions, followed by a series of examples and problems for independent solution, and their answers are given at the end of the manual.

The topic "Rational equations" is considered as an example.

LESSON OBJECTIVE		
Educational	Educational	Developer
Teaching rational equations and methods of solving them.	To increase interest and respect for mathematics, encourage independent thinking.	Consolidate the topic, form new BKM in the minds of students.

When choosing examples and problems for independent solution, we tried to be as close as possible to the materials of general education schools.

It is also possible to divide into groups and give different tests on the subject.

TEST:

OPTION 1

1. Multiply the units: $3a \times 6ab^2$
A) $18ab^2$ B) $18a^2b^2$ C) $2ab^2$ D) $9ab^2$
2. Divide the units: $16a^3b^2 : 4a^2b^2$
A) $4a$ B) $4ab$ C) $2ab^2$ D) $4a^2b^2$
3. Multiply the polynomial by the polynomial: $(a-2b)(a+2b)$
A) a^2-4b^2 B) a^2+4b^2 C) $a-2b$ D) $a+2b$
4. Divide the polynomial into polynomials: $(18a^3+21a^2):(3a^2)$
A) $6a$ B) $13a$ C) $6a^3+7a^2$ D) $6a+7$

OPTION 2

1. Multiply the units: $2b \times 5ab^2$
A) $10ab$ B) $10a^2b^2$ C) $10ab^3$ D) $10b^2$
2. Divide the units: $24a^3b^2 : 3a^2b^2$
A) $8a$ B) $8ab$ C) $6ab^2$ D) $8a^2b^2$
3. Multiply the polynomial by the polynomial: $(a-3b)(a+3b)$
A) a^2-9b^2 B) a^2+9b^2 C) $a-3b$ D) $a+9b$
4. Divide the polynomial into polynomials: $(9a^3+24a^2):(3a^2)$
A) $3a$ B) $11a$ C) $3a^3+8a^2$ D) $3a+8$

Taking into account the complexity of the training, a training plan is initially drawn up. After that, the lecture text is prepared. While preparing the text of the lecture, it is necessary to study foreign sources as well as the books of local scientists. In particular, electronic resources and books related to the topic will be considered.

It is also advisable to conduct exercises or interactive games on various topics during the training.

"Mathematical dominoes" game

$a(2a+c)=$	$(3-2b)^2=$	$(7+m)^2=$
$(q-3p)^2=$	$c^2-d^2=$	$X^2-1=$
$(x-4)(x+4)=$	$9m(n+1)=$	$9m^2-25n^2=$

Make an anagram

A	V	T	K	D	R	A
I	M	A	K	S	A	O
I	A	E	M	N	A	D

Such interactive exercises should be organized by dividing the audience into small groups. In this, healthy competition is formed between groups. And this is achieved by the active participation of all members of the group. The main thing is to ensure physical activity of the students during the exercise, it is also necessary to pay attention to working as a team. Through this, it is possible to repeat the subject and improve their physical and mental condition.

CONCLUSION

From this point of view, it is desirable to make the topics clear and understandable for the students of professional educational institutions in a simple way and to professionalize the lessons.

It is important to explain the topic in a practical way with real-life examples, which will attract the attention of the student and ensure that he understands the topic and remembers it for a long time.

REFERENCES

1. "Increasing the quality and efficiency of the educational process through the modernization of primary education. Tashkent 2016
2. Rozieva D. et al. Interactive methods: essence and application, Met. hand. - T.: TDPU, 2013.
3. International research journals-citefactor 2020-21: 0.89 doi: 10.24412/2181-1385-2021-10-579-594 issues of ensuring population employment while reducing poverty Uzakov K. https://cyberleninka.ru/article/n/issues_of_providing_high-employment-in-poverty-increase/viewer
4. my.moqt.uz Professional Education Development Institute
5. www.strategy.uz "Development Strategy" Center.
6. www.lex.uz National database of legal documents of the Republic of Uzbekistan.

ANALGETIKLAR

*Ilmiy rahbar: Toshkent davlat stomatologiya instituti
Mikrobiologiya farmakologiya va virusologiya kafedrası
katta o'qtuvchisi Nigora Yakubova*

*Maqola muallifi: Toshkent davlat stomatologiya instituti
Davolash ishi fakulteti talabasi
Tursunov Sobirjon Ibragimovich*

Antonatsiya: analgetik dori vositalarning turlari va klasifikatsiyasi ularning organizmga ta'siri markaziy va periferik nerv sistemasiga tasiri qo'zg'atuvchi va bloklovchi retseptorlar va foydali va nojo'ya tasirlari va qo'llashga qarshi ko'rsatmalari haqida to'xtalib o'tamiz

Kalit so'zlar; analgetiklar, narkotik, morfin, promedol

Analgetiklar

Og'riqni qoldirish shifokorning amaliyotida muhim vazifadir. Chunki u bemorga azob beruvchi, xastalik belgisi bo'libgina qolmay, dardini og'irlashtiradi va uning oqibatiga salbiy ta'sir etadi. Jumladan, jarrohatlarda u karaxtlik va o'limga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham shifokor og'riqni susaytiruvchi yoki uni daf etuvchi dorilar ta'sirini va ularni qo'llashni yaxshi bilishi kerak.

Og'riqni sezish organizmda teri, tomir, bo'g'im, mushak va a'zolarida joylashgan, alohida retseptorlar-nositoseptorlar orqali amalga oshadi. Bu retseptorlar ekzogen (mexanik, kimyoviy, termik) va endogen (bradikinin, gistamin, serotonin, prostaglandin E₂, K⁺) ta'sirotlari natijasida qo'zg'aladi. Bosh miya po'stloq qavatiga og'riq impulslari, alohida o'tkazuvchi yo'llar orqali etadi. Lekin MNSda og'riqqa qarshi turuvchi, uni kuchini kamaytiruvchi, tizim mavjud (antinositoseptiv sistema havorang dog', chokning katta yadrosi, retikulyar yadrolar). Bu tizim yuqoridan pastga qarab ta'sir etadi va og'riq sezishini susaytiradi. Bundan tashqari organizmda bir qator faol biologik moddalar bo'lib ular og'riqni sezishini o'zgartiradilar (og'riqsizlantiruvchilari): endogen peptidlar-enkefalin, β -endorfin, dinorfin. Og'riqni kuchaytiruvchi: r-susbstansiya.

Neyrogormonlar ham faqat mediator (vositachi) bo'libgina qolmay, notsitseptiv qo'zg'alishining modulyatori (o'zgartiruvchisi) vazifasini ham bajaradi. Og'riqni qoldiruvchi peptidlar, opioidlar o'zlariga hos bo'lgan va har-xil funksional ahamiyatga ega bo'lgan, retseptorlar bilan bog'lanadilar $-\mu$, $-\lambda$, $-\kappa$, $-\delta$. Demak organizmda murakkab antinotsitseptiv tizim bo'lib, uning faolligi pasaygandagina og'riqsizlantiruvchi vositalarni qo'llash zaruriyati tug'iladi. Og'riqsizlantiruvchi vositalar, faqatgina og'riq sezishni kamaytirib, boshqa sezuvchanlikka, es-xush va

harakatlarga terapevtik dozalarda ta'sir etmaydilar, ya'ni ular tanlab ta'sir ko'rsatadilar. Ta'sir mexanizmi va farmakodinamikaga asoslanib, hozirgi zamon analgetiklari quyidagi 2 ga guruhlarga bo'linadilar:

I. Asosan markaziy ta'sirli vositalar

1. Narkotik analgetiklar (opioidlar):

- agonistlar *morfin, promedol, fentanil, sufentanil, alfentanil*

- agonist-antagonist (paraaminofenol hosilalari.) *pentozotsin, nalorfin, nalbufin, butorfanol, buprenorfin*

- antagonist *nalokson. naltrekson*

2. Noopioid analgetiklar: *paratsetamol, klofelin amitriptilin, dimedrol, karbamazepin*

3. Aralash ta'sir mexanizmli analgetiklar: *tramadol*

II. Asosan periferik ta'sir etuvchi vositalar:

- nosteroid tuzilishli yallig'lanishga qarshi preperat

Narkotik analgetiklar va ularning antagonistlari

Narkotik analgetiklar uchun quyidagilar xosdir:

- kayf chaqirish, tobelik, qaramlik (jismoniy va ruhiy), o'rganish.

- kuchli og'riqsizlantirish, ayniqsa jarohatlar va kuchli og'riqlarda (infarkt, saraton va boshqalar).

- o'rganib qolganda berilmasa, abstinensiya sindromini yuzaga chiqishi.

Og'riqsizlantirish va zaharli ta'sirini, ularning o'zigagina xos bo'lgan antagonistlari yo'qotadi.

Narkotik analgetiklarning ta'sir mexanizmi, ularning opiat retseptorlariga ta'sir etishi bilan bog'liq. Ana shu retseptorlar bilan bog'lanish turiga qarab narkotik analgetiklar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

MORFIN – opiy-qoradori tarkibiga kiruvchi alkaloid. Qoradori bu ko'knoring pishmagan ko'sagi qobig'ini tirnaganda chiqadigan, shirasi havoda qurishi natijasida, hosil bo'ladi. Uni uzoq vaqtdan beri kayf beruvchi, yo'talga qarshi va ichni to'xtatish vositasida sifatida qo'llashgan. Qoradori tarkibi murakkab bo'lib 20 dan ortiq alkaloidlar ajratilgan. Alkaloidlar opiy vazni 20% tashkil etadi. Undan tashqari oqsillar, polisaxaridlar va boshqalar bor. Kimyoviy tuzilishiga qarab, opiy alkaloidlari, piperidin fenantren va benzil izoxinolin hosilalariga kiradilar. Qoradorining asosiy alkaloidi bo'lib, morfin hisoblanadi. Qoradorining farmakodinamikasi morfin bilan bog'liq. Opiyda morfin miqdori 10%ni tashkil etadi. MNSga morfin bir xil ta'sir etmaydi: ba'zi markazlarni qo'zg'atadi, ba'zilarini esa susaytiradi, chunki morfin tarkibida 2ta gidroksil radikali bor bo'lib, biri fenol gidroksili (susaytiruvchi), ikkinchisi alkogol gidroksili (qo'zg'atuvchi). Narkoz chaqiruvchi vositalardan farq qilib, morfin ta'siri faqat, bosh miyasi kuchli rivojlangan jonivorlardagina yuzaga chiqadi va u MNSni falojlovchi ta'siri bilan bir qatorda uni qo'zg'atadi ham.

Og'riqsizlantirish morfin farmakodinamikasining asosini tashkil etadi, morfin boshqa sezuvchanliklar (taktil, harorat, eshitish, ko'rish, hid bilish)ga ta'sir ko'rsatmaydi, bu uni tanlab, faqat og'riq sezishga ta'sir ko'rsatishga asosdir. Ko'p jihatdan morfinning og'riqsizlantirish ta'siri, bemorning og'riqqa bo'lgan munosabatini o'zgartirish bilan bog'liqdir, chunki morfin MNS Talamus tushuvchi ta'sir ko'rsatadi.

Morfinning ta'sir mexanizmi: opiat retseptorlari bilan bog'lanib, antinotsitseptiv sistemaning faolligini oshiradi, hamda MNS (supraspinal yadrolar)da neyronlararo sinapslarda og'riq impulslarini o'tkazilishini buzadi. Bunda morfin orqa miya neyronlariga bevosita susaytiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Umuman morfin pastga tushuvchi, tormozlovchi sistema ta'sirini kuchaytiradi. Morfin terapevtik dozalarda yuzaki va yorqin tushlar ko'rish bilan kechuvchi uyqu ch O'rta miya nning tinchlantiruvchi ta'siri miyaning po'stloq qavatidagi neyronlar, retikuliyar tormatsiya, limbik sistema va gipotalamusga ta'siri bilan bog'liq bo'lsa Uzunchoq miya ng tinchlantiruvchi ta'siri kayf bilan kechadi, ayniqsa qayta qabul qil an uning aksi bo'ladi. Morfin faqat katta dozalarda tana haroratini tushiradi (haroratni boshqarish markazini susaytirish hisobiga).

- peshob ajralishini (antidiuretik gormon) kamaytiradi.
- ishtahani (adrenalinni buyrak usti bezidan ajralish kuchaytirib, giperglikemiya chaqiradi) pasaytiradi.
- parasimpatik nervlar tonusini (mioz, bradikardiya, bronxospazm, MIT sfinkterining tonusi ortadi, qal NA t, bachadon qisqarishini) kuchaytiradi.
- nafas olish markazini susaytiradi, uning CO₂ ga bo'lgan ta'sirchanligini pasaytiradi (nafas kamayadi, lekin chuqur bo'ladi, keyin ortadi, lekin yuzaki bo'ladi, keyin davriy nafas yuzaga chiqadi).
- qayt qilish markazini susaytiradi.
- peshob xaltasini sfinkteri tonusini oshiradi (peshob ajratish qiyinlashadi).
- katta va zaharlovchi dozalarda, morfin qon aylanish markazi faoliyatini susaytiradi. Qon bosimini pasayishida, tomirlar kengayishida, gistamin miqdorini ortishi muhim rol o'ynaydi.

MIT dan morfin yaxshi so'riladi, lekin jigarda parchalanadi, shuning uchun uni parenteral yo'l bilan kiritiladi (teri ostiga). Morfinning og'riqsizlantirish ta'siri 4-6 soat. Morfin ta'sirida tizza refleksi u bilan o'tkir zaharlanganda ham saqlanadi. Morfin terida qichishish, shilliq qavatlarning shishi kabi allergik reaksiyalar chaqiradi, chunki uning ta'sirida semiz hujayralardan gistamin ajralishi ortadi.

Morfinga o'rganish rivojlanishining (tolerantlikni ortishi) sababi enkefalin va endorfinlarni hosil bo'lishini kamayishi yoki ularning parchalanishini kuchayishi bilan bog'liq bo'lsa kerak.

Morfin bilan o'tkir zaharlanish: koma, lekin tizza reflekslari saqlangan bo'ladi, tana harorati, nafas olish kam, yuzaki bo'ladi. Og'ir hollarda Cheyn-Stoks davriy nafasi kuzatiladi. Yurak yetishmovchiligi va o'pka shishi o'limga sabab bo'ladi. O'lim 6 soat ichida ro'y beradi. Agar bemor 12 soat ichida o'lmasa, u tirik qoladi, chunki morfin organizmda tez parchalanadi.

Birinchi yordam: oshqozon permanganat kaliy eritmasi bilan yuviladi, (morfinni oksidlaydi). Kislorod ingyalyasiyasi, korazol, kerak hollarda suniy nafas oldiriladi. Nalorfin-morfinning antagonistlari kiritiladi.

Morfin bilan surunkali zaharlanish-morfinizm deb ataladi. Davolash og'ir masala bo'lib, ruhiy xastaliklar shifoxonasida o'tkaziladi.

OMNORON-qora dori tarkibidagi hamma alkaloidlaridan iborat dori vosita. 50%-ni morfin tashkil etadi, tarkibida papaverin (spazmolitik vosita) bor. Bu dori vositaga ham humorlik, o'rganish, tobelik rivojlanadi.

KODEIN - opiy alkaloidi(0,5%). Kayf chaqirmaydi, o'rganish rivojlanmaydi, og'riqsizlantirish qobiliyati morfinnikidan 7 marta sust. Nafas markaziga salbiy ta'siri etmaydi, MIT ga ta'siri yo'q, yo'tal markazini susaytiradi, lekin morfindan sustroq.

ETIL MORFIN (dionin) - yarim sintetik modda, kodeinga o'xshash ta'sirga ega.

PROMEDOL - sintetik modda. Og'riqsizlantiruvchi ta'siri morfinga nisbatan 2-4 marta sust, ta'siri 3-4 soat davom etadi. Nafasni unchalik susaytirmaydi, bronxospazm chaqirmaydi, peshob yo'llarini bo'shashtiradi, lekin MITdan yaxshi so'riladi, uning sfinkterlarini tonusini oshiradi. Bachadonni qisqarishini kuchaytiradi,

To'liq bo'lmagan agonistlar (agonist-antagonistlar)

Bu guruhga ta'siri aralash bo'lgan dorilar kiradi. Ular opiat retseptorlari qismlari bilan turlicha bog'lanadilar, Shu sababli ba'zi ta'sirlari bo'yicha agonistik effektlar, ba'zi ta'sirlari bo'yicha antagonistik effektlarni yuzaga keltiradilar. Bularga Pentazotsin, butorfanol, nalbufin kiradi.

PENTAZOTSIN(LEKSIN, FORTRAL) - sintetik dori vosita. Fenantren hosilalariga qaraganda strukturasi bitta halqa yetishmaydi. Preparat δ va κ retseptorlar agonisti va μ -retseptorlar antagonistlari hisoblanadi. Og'riqsizlantirish kuchi va davomiyligi morfinnikidan past.Uni qo'llaganda doriga qaramlik paydo bo'lish xavfi past(qolgan agonist opioid analgetiklarga nisbatan), eyforiya chaqirmaydi. Morfinga nisbatan nafasni kamroq susaytiradi, kamroq qabziyat va peshob ajralishini buzadi, qon bosimini oshiradi, taxikardiya chaqiradi(miokard infarktida qo'llash mumkinmas). MITdan yaxshi so'riladi. Mahalliy yallig'lanish qo'zg'atishi mumkin. Narkomanlarga kiritilsa, abstinensiya sindromini rivojlantiradi(opioid agonist analgetiklarga antagonist bo'lgani uchun). Pentazotsinni davomli qo'llaganda, unga tobelik rivojlanish xavfi past, lekin o'rgangan bemorga kiritilmasa, abstinetsiya sindromi rivojlanadi. Morfin ishlatiladigan holatlarda qo'llaniladi.

Antagonistlar

Bu guruh dori vositalari retseptorlar bilan bogʻlanib, endogen va ekzogen opiatlar taʼsirini daf etadilar.

NALOKSON - ogʻriq qoldiruvchi taʼsiri yoʻq. Morfin va u kabi agonistlar chaqiradigan oʻzgarishlarni daf etadi, yaʼni nafas buzilishini, MIT sfinkterining spazmini, mioz va boshqalarni. Chunki agonistlar bilan raqobat qilib ularni opiat retseptorlaridan siqib chiqaradi. Nalokson ayniqsa μ va κ retseptorlariga yaxshi taʼsir etadi: μ retseptorlar analgeziya, kayf, nafasni susaytirish va jismoniy tobelikni chaqiradilar. κ retseptorlar esa spinal analgeziya, mioz, tinchlantiruvchi (uyqu) chaqiradilar. Naloksonni mushak va tomir ichiga kiritiladi, chunki ichilganda samaradorligi juda past. Parenteral yoʻl bilan kiritilganda, taʼsir 1-3 daqiqadan keyin boshlanib 2-4 soat davom etadi.

Vena ichiga yuborish uchun maxsus uzoq taʼsirli Nalmafen qoʻllanadi(10 soat).

Qoʻllanilishi:

- nalokson narkotik analgetiklar bilan oʻtkir zaharlanganda,
- alkogol komasida, turli xil shoklarda (bunda endogen opiat sistemasi faollashadi, nalokson qon bosimini tushishini susaytiradi).

Narkomanlarga nalokson kiritilsa, abstinensiya sindromi xuruji rivojlanadi. Bu narkomaniyani tashxisida qoʻllaniladi. Narkotik analgetiklarni saqlash, tavsiya etish va aptekalarda sotilishida qattiq nazorat talab etiladi. Bu haqida Oʻzbekiston Respublikasining «Psixotrop vositalar toʻgʻrisida» qonuni bor («Oila shifokori», 1999 yil, oktyabr).

Opioid analgetiklar uzoq qoʻllanganda doriga qaramlik kelib chiqadi. Buning sababi ularni qoʻllaganda eyforiya yuzaga kelishi va salbiy emotsiyalar bartaraf boʻlishi yaxshi kayfiyat, oʻziga ishonch paydo boʻlishi kuzatiladi. Qayta qoʻllanganda yuzaga kelgan oʻrganib qolish esa har safar yuqoriroq dozalarni olishni talab etadi. Ularni qabul qilishni birdan toʻxtatish abstinensiya ga olib keladi. Bunda qoʻrquv, bezovtalik, uyqusizlik, agressivlik kuztiladi. Fiziologik buzilishlar va kollaps boʻlishi va hatto oʻlimgacha borishi mumkin. Preparatni berish simptomlarni yoʻq qiladi. Tobora surunkali zaharlanish kuchayib boradi. Aqliy va jismoniy faoliyat buzilishi teri sezuvchanligi, soch toʻkilishi, qabziyat, chanqoq kuzatiladi.

Bunday bemorlarni davolash juda mushkul vazifa boʻlib statsionarda uzoq davolanishni talab etadi. Opioid analgetik dozasi sekinlik bilan kamaytirib boriladi. Koʻpgina bemorlarda retsidivlar kuzatiladi. Toliq sogʻayish kam holatlarda uchraydi.

Anilin unumlari

Bular markaziy taʼsir qiluvchi noopioid analgetiklar guruhidir. Bu guruh birikmalari, asosan ogʻriqsizlantirish va isitma tushirish taʼsiriga egadirlar. Yalligʻlanishga qarshi taʼsiri juda sust. Fenatsetin isitma tushirishi boʻyicha, atsetilsalitsilat kislotasidan kuchsiz. Fenatsetin organizmda paratsetamolga aylanadi va

u farmakologik ta'sirni yuzaga chiqaradi. Anilin unumlari MITdan yaxshi so'riladi. 25-35 % qon oqsillar bilan birikadilar. Fenatsetin paratsetamolga nisbatan zaharliroq va Shuning uchun noxush ta'sirlarga ega.

- metgemogloblin hosil bo'lishi (ko'karishi, qon bosimini pasayishi, hansirash)
- fenatsetinli nefrit.
- gemolitik anemiya
- sariqlik, terida toshmalar. Chuqur zaharlanishda kollaps rivojlanadi.

Paratsetamol (atsetaminofen, panadol, taylenol, efferalgan va yana kombinirlangan koldreks, solpadein, panadein, sitramon-P tarkibida) fenatsetin aktiv metabolite hisoblanadi. U og'riq qoldiruvchi va issiq tushiruvchi effektlarga ega. Tahminga ko'ra ularning ta'siri MNS da SOG-3(siklooksigenaza-3) fermentini ingibirlash va Shu orqali prostaglandinlar sintezini to'xtatish orqali bo'ladi. Periferik to'qimalarda prostaglandinlar sintezi to'xtamagani sababli yallig'lanishga qarshi ta'siri yo'q.

Analgetik va isitma tushirish effektivligiga ko'ra aspiringga o'xshab ketadi. MIT dan tez va to'liq so'riladi. Qonda maksimal konsentratsiya 30-60 minutda aniqlanadi, $T_{1/2} = 2$ soat. Oqsillar bilan plazmada ko'p bog'lanmaydi. Jigarda konyugat va sulfatlarni hosil qiladi. Preparat bosh og'rig'i, mialgiya, artralgiya, nevrалgiya, operatsiyadan keying og'riqlarda va isitma tushirishda ishlatiladi. Terapevtik dozada nojo'ya ta'siri yo'q. aspirindan farq qilib me'da shilliq qavatini shikastlamaydiva trombositlar agregatsiyasini chaqirmaydi (SOG-1 ni ingibirlamagani uchun). Asosiy kamchiligi terapevtik kenglikning kattamasligidir. Terapevtik dozani 2-3 barobar oshirishning o'ziyoq toksik doza bo'lib xizmat qiladi. O'tkir zaharlanishda jigar va buyrak shikastlanadi. Bunda toksik metabolit, N-atsetil-p-benzoxinonimin to'planib qoladi. Terapevtik dozalarda bu metabolit glutation bilan konyugatsiya qilinib zararsizlantiriladi. Katta dozalarda esa hammasi ham zararsizlantirishga ulgurilmaydi va hujayrada yig'ilib qolib uni shikastlaydi. Bu esa gepatotsitlar va buyrak kanalchalari nekroziga olib keladi (24_48 soat ichida). Bunday o'tkir zaharlanishlarda me'dani yuvish, aktivlangan ko'mir ichirish, atsetilsistein va metionin yuborish(jigarda glutation sintezini oshiradi) kerak bo'ladi. Metionin va atsetilsistein ichishni 12 soat ichida amalga oshirish effekt beradi. Yo'qsa hujayralarda qaytmas o'zgarishlar yuzaga keladi.

Paratsetamol pediatriyada og'riq qoldiruvchi va isitma tushiruvchi sifatida qo'llanadi. 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda uning nisbatan xavfsizligi Shu yoshdagi bolalarda sitoxrom P-450 tizimi yaxshi rivojlanmagani va Shu sababli paratsetamol biotransformatsiyasining sulfatlanish yo'li ustun turishi bilan bog'liq. Ya'ni bunda toksik metabolitlar hosil bo'lmaydi

Analgetik aktivlikka ega bo'lgan turli farmakologik guruh vakillari

Bulardan biri antigipertenziv vosita sifatida ishlatiluvchi α_2 -adrenomimetik klorfelin hisoblanadi. Hayvonlardagi eksperimentlarda analgetikligi bo'yicha uning morfindan ustunligi aniqlangan. Analgetik effekti segmentar va suprasegmentar darajada α_2 adrenoretseptorlar ishtirokida bo'ladi. Preparat gemodinamika tomonidan og'riqqa reaksiyani yo'qotadi, nafasga ta'sir etmaydi va qaramlik chaqirmaydi. Klinik tekshirishlar ham klorfelinning yetarlicha og'riq qoldira olishini ko'rsatdi (miokard infarktida, operatsiydan keying davrda, o'smaga bog'liq og'riqlarda). Uning qo'llanishi gipotenziv va sedativ effekti sabab cheklanib turadi. Odatda orqa miyaga yuboriladi.

Amitriptilin va imizin antidepressant bo'lish bilan birga orqa miyaning orqa shoxlaridagi notsiseptiv stimullarni boshqaruvchi pastga yo'naluvchi nerv yo'llarida serotonin va adrenalinning neyronal qayta so'rilishini susaytirish orqali surunkali og'riqlarda effektiv analgetik samara ko'rsatadi. Kuchli og'riqlarda ham (postgerpetik nevrалgiya va fantom og'riqlar) antipsixotik moddalar bilan birga qo'llanadi.

Aralash ta'sir mexanizmidagi analgetiklar

TRAMADOL (TRAMAL) - Opioid retseptorlari bilan bog'lanadi hamda og'riq impulslarini o'tkazishda qatnashuvchi monoaminergik sistemaga ta'sir etadi. Analgeziyaning noopioid ta'sir mexanizmi serotonin va noradrenalinni neyronal yutilishini kamaytirish bilan bog'liq, chunki uning ta'sirida serotoninergik va adrenergik nervlarda neyronlar aro notsiseptiv impulslarni orqa miyada o'tkazilishining tormozlanishi kuchayadi. Morfinga qaraganda 5-10 marta aktiv. Nafas sistemasi va MITga kam ta'sir ko'rsatadi. MIT dan yaxshi so'riladi, ta'siri 3-5 soat davom etadi. Enteral, parenteral, rektal yo'l bilan kuniga 4 mahal o'rta va kuchli darajadagi o'tkir va surunkali og'riqlarda analgetik sifatida qo'llaniladi. Nojo'ya ta'sirlari: boshda og'riq, va aylanish, harakat reaksiyalar tezligi susayishi, teri ajralishi ko'payishi, gipotenziya, taxikardiya, qabziyat, og'iz qurishi, teri qichishi, qorinda og'riqlar. Tramadolning antidoti **nalokson**.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

- Фармакология : учебник / Д. А. Харкевич. — 10-е изд., испр., перераб. И доп. — М. : ГЭОТАР-Медиа, 2010. — 752 с. : ил
- [://nmu-student.narod.ru/farmacology](http://nmu-student.narod.ru/farmacology);
- <http://max.1gb.ru/farm/>
- [://www.cibis.ru/catalogue/pharmacology_pharmacy_toxicology/a/sites/52185.html](http://www.cibis.ru/catalogue/pharmacology_pharmacy_toxicology/a/sites/52185.html); [://medvedev-ma.narod.ru/farmakologia/0.htm](http://medvedev-ma.narod.ru/farmakologia/0.htm);
- Azizova C.C. Farmakologiya. Darslik, T.:2006
- Yakubova K.A. Farmakologiya. Darslik, 2021

GLOBALIZATSIYA JARAYONING OBYEKTIV MAVJUDLIGI VA HUQUQ GLOBALIZATSIYASI TUSHUNCHASI

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Jomurodov Jasurbek Abduraxmon o'g'li

jomurodovjasurbek77@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonining ahamiyati ko'rsatilib o'tilgan. Bundan tashqari, globallashuv xususan, huquq globalizatsiyasi tushunchasini mazmun mohiyati to'g'risidagi bir qator olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, Globallashuv obyektiv fenomen sifatida nimalarda namoyon bo'lishi yoritib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье показано значение процесса глобализации, кроме того, проанализированы научно-теоретические взгляды ряда ученых на сущность содержания понятия глобализация права в частности. Также освещается, в чем проявляется глобализация как объективное явление.

Annotation: This article shows the importance of the globalization process, in addition, globalization in particular analyzes the scientific theoretical views of a number of scientists about the content of the concept of globalization of law. It has also been highlighted what globalization manifests as an objectivity phenomenon.

Kalit so'zlar: Globallashuv, huquq globalizatsiyasi, fenomen, gomogenlashuv, destruktiv, huquq tizimi, institutsional, konversiya, integratsiya, transmilliy korporatsiya

Ключевые слова: Глобализация, правовая глобализация, феномен, гомогенизация, деструктивная, правовая система, институциональная, преобразование, интеграция, транснациональная корпорация

Keywords: Globalization, globalization of law, phenomenon, homogenization, destructive, system of law, institutional, conversion, integration, transnational corporations.

Bugungi dunyoda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonlarni tushinish, ularni baholash oson emas, chunki bu jarayon juda keng qamrovli voqealarni, makonni qamrab olmoqda. Turli ommaviy axborot vositalari va ko'plab ilmiy adabiyotlarda "global", "globalizatsiya", "globallashuv" tushunchalari keng ishlatilmoqda. Ularning umumiy xususiyatlari umuminsoniy hamda umumplanetar voqelikda namoyon bo'lmoqda. Globallashuv alohida atama, aksioma sifatida talqin qilinadi. "Global" so'zi fransuzchadagi "global" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "umumga oid", "umumga taalluqli", : "umum bilan bog'liq" kabi ma'nolarini anglatadi. Etimologik

nuqtai nazardan olib qaralganda “globus” ya’ni “shar” degan ma’noni bildirgan. Globus deganda yer shari tushuniladi.

E.Giddens fikriga ko’ra, “globallashuv bir-biridan ko’p uzoqlarda ro’y beradigan mahalliy voqea-hodisalarning butunjahon sotsial munosabatlarga intensivlashuvidir”¹. U globallashuv jarayonining boshlanishini XVIII asr bilan belgilaydi. X.S.Jumaniyazov, M.A.Sobirova va U.B.Nig’manovalar globallashuvga “turli mamlakatlarning, xalqlarning jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalaridagi o’zaro ta’siri va bog’liqligining keskin kuchayishidir” deb, – ta’rif beradilar. Uning asosiy xususiyatlarini quyidagicha sharhlash mumkin:

- globallashuvning muttasil davom etadigan jarayon ekanligi;
- globallashuvning jahonning gomogenlashuvi va universallasuvi jarayoni ekanligi;
- globallashuvning milliy chegaralarning “yuvilib ketish” jarayoni ekanligi;
- ishlab chiqarishning xalqaro formalariga o’tilishi, ishlab chiqarish omillari harakatining jadallashuvi;
- jahon mamlakatlari iqtisodiyotida yagona xalqaro standartlarning joriy etilishi;
- ko’pchilik mamlakatlar xalqlarining madaniyatida, kundalik hayotida Yevropacha turmush tarzining (vesternizatsiya- g’arblashish), amerikacha turmush tarzining namoyon bo’lishi;

- globallashuvning investitsiyalar, kapital, texnika va tovarlarning butun dunyo bo’ylab oqimining jadallashib va keng miqyosda ega bo’lib borayotgan murakkab jarayon sifatida baholanishi;

- globallashuvning turli xalqlarni nihoyatda yaqinlashtiradigan ommaviy madaniyat tufayli yuzaga kelgan tub o’zgarishlar bilan bog’liqligi;

- globallashuvning demokratik jarayonlar natijasi sifatida butun yer yuzida hayot darajasi yuksalib borishiga va qashshoqlik darajasining ancha pasayishiga yordam beruvchi shart-sharoit deb qaralishi;

- globallashuv ishlab chiqarish samaradorligini rag’batlantirish va imkoniyatlarni kengaytirish, iqtisodiyotni o’stirish evaziga qo’shimcha ish joylarini yaratadigan integratsion jarayon sifatida qaralishi;

- globallashuv axborot sohasidagi inqilob bilan chambarchas bog’liqligi;

Globallashuv ayrim insonlar, oilalar va elatlar uchun yashash joyini o’zgarishi va moliyaviy munosabatlar bilan bog’liq xavf-xatarning ortishida namoyon bo’ladigan

¹ Giddens A. The Consequences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990. P.64.

muayyan tahdidlarga ega bo'lishdan iborat². "Globallashuv" atamasi dastlab ilmiy iste'molga AQSHlik sotsiolog T.Livitt tomonidan kiritilgan. U o'zining 1983-yili "Harvard Business review" jurnalida chop ettirilgan maqolasida globallashuvni transmilliy uyushmalar (korporatsiyalar)ning jahon bo'ylab olib borayotgan biznes-faoliyati, jahon tovar bozorlarida savdo-sotiqnlarni amalga oshirayotgan hamkorligi sifatida tahlil qilgan va tilga olgan. Shundan buyon globallashuvni amalga oshirishning vositalari ustida bahs-munozaralar ketadi.

R. Robertson "globallashuv" atamasini o'z maqolasida juda batafsil talqinini berdi. Robertsonning fikricha, globallashuv "xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan turli alohida mamlakatlardagi ijtimoiy reallikka tobora ko'payib borayotgan ta'sir jarayonidir". Bizning fikrimizcha ushbu tushunchaning mohiyatini tasniflashda yana bir qancha yo'nalishlari bor:

Madaniy, iqtisodiy hamda ideologik integratsiyaning universal va ko'p qirrali ko'rinishidir:

1. Bu yangi, asosan kompyuter texnologiyalari asosida yagona global moliyaviy-iqtisodiy makonni shakllantirish jarayonidir;
2. bu barcha asosiy ijtimoiy faoliyat butun sayyoraga cho'ziladigan hodisadir;
3. Bu xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan turli omillarning (masalan, yaqin iqtisodiy va siyosiy aloqalar, madaniy va axborot almashinuvi) alohida mamlakatlarning ijtimoiy voqeligiga tobora ko'payib borayotgan ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Global ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lgan tizimi inson faoliyatini tuzish va baholashning universal boshqaruv sxemalari va standart mezonlaridan foydalanishni nazarda tutadi, madaniy xususiyatlar va geografik omillar tufayli qo'yilgan cheklolar odamlarning ijtimoiy tuzilishi, kundalik ta'sirini kamaytirishga olib keladi. Globallashuvni obyektiv jarayon sifatida keng tushunish insoniyat taraqqiyoti tarixidagi uning shart-yo'nalishlarini qidirishni ko'zda tutadi. Sayyora miqyosida rivojlantiradigan, chuqurlashtiradigan hodisa "to'satdan", "hech qayerdan" ko'rinmaydi, balki uning kelib chiqishi, shart-taomillari va kelib chiqish davri - ibtidoaga ega. Globallashuv jarayonining tezlashishiga yana bir sabab tovar_pul munosabatlariga o'tish(kapitalizm). Birinchi Yevropada, keyin esa boshqa davlatlarda liberallashtirish jarayoni globallashuv jarayonini faollashtirish va kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi.

Globallashuv jarayonining rivjlanishiga keyingi sabab, ilmiy-texnik inqilob ,so'ngra axborot inqilobi bilan ro'y berdi. Ochiqroq aytilsa, globallashuv madaniy-tarixiy tabiatning obyektiv jarayon ekanligiga ishonish uchun sabablar mavjud. Biroq, agar

² Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari.-Toshkent: Navro'z, 2015,12-13b.

biz madaniyatni inson bo'lishning bir usuli sifatida tushunadigan bo'lsak, to'plangan tajriba va bilimlarni avloddan-avlodga va shaxsga biologik bo'lmagan tarzda, turli xil vositalar yordamida, unga yashash uchun qulay sun'iy dunyoni yaratishga imkon beradigan butunlay va to'liq asoslab beradigan bo'lsak, unda globallashuv jarayoni yana bir - subyektiv - tomonga ega bo'lishi kerak. U kishilarning maqsadli faolligi bilan bog'liq bo'lib, u insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichidan boshlanib, o'z taraqqiyotini davom ettirmoqda.

Shunday qilib, globallashuvning ikki tomoni bor: obyektiv, bu ijtimoiy-madaniy makonning universallashtirishida namoyon bo'ladi; Bu odamlarning ijtimoiy sa'y-harakatlariga bog'liq bo'lib, har xil kengayishda o'zini namoyon qiladi, ya'ni odamlarning sferaga faol kirib borishga, ta'sirini kengaytirishga va o'z qarashlarini, madaniy shakllarini qo'yishga intilishlari. Fikrlar doirasi bu yerda juda keng. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, uzoq vaqtga qaramay ushbu hodisani ilmiy o'rganish va ko'plab ilmiy izlanishlarga qaramay globallashuvga bag'ishlangan tadqiqotlar, globallashuv fenomeni tushunchasi va mazmuni masalasi muhokama uchun ochiq bo'lib qolmoqda, bu mavzu hali tugamagan. Ijtimoiy hayotning alohida sohalarida globallashuv bo'yicha tadqiqotlar yanada dolzarb bo'lib tuyuladi. Globallashuv fenomenini ko'rib chiqishda bir yoqlama yondashuv bo'lmaydi. Odatda, globallashuv haqida gapirganda, globallashuv jarayoni cheksiz, aniq davom etishi mumkinligini anglatadi butun dunyo birlashmaguncha³.

Globalashuvning obyektiv fenomen ekanligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jahon xalqlari, davlatlari global hamkorlikni tabiiy zaruriyat, ijtimoiy taraqqiyot qonuni sifatida qabul qilayotganida;
- jahon bozori va jahon jamiyati subyektiv qarashlar mahsuli bo'lmay, ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya, transmilliy aloqalar va hamkorlik natijasiga aylanib borayotganida;
- inson faoliyati va qiziqishlari doirasining global tarzda kengayib, milliy chegara va lokal tartiblarni “qayta baholash”ga undayotganida;
- erkin bozor munosabatlari turli iqtisodiy, moliyaviy, ekologik, ma'naviy inqirozlarni keltirib chiqarib insoniyat hayotini xavf ostiga qo'yishi yoki xomashyolar urushni keltirib chiqarishi mumkinligi real voqelik sifatida qaralayotganida;
- intellektual izlanishlar bir tomondan, insonning ijodiy, kreativ faoliyatini oshishiga yordam berishini, ikkinchi tomondan, aynan ushbu intellektual kuch yadro quroli orqali kelajakka, sayyoraga fojialar keltiruvchi fenomenga aylanishi mumkinligi anglanayotganida;
- kuchlarning, antiglobalistik g'oyalarni targ'ib etishi va umumsayyoraviy muammolar yechimiga qarshi chiqayotgani, asta-sekin bo'lsa-da, jahon hamjamiyati tomonidan real xavf sifatida e'tirof etilayotganidadir.

³ М.У.Красавце. правовая глобализация: Понятие и содержание. {SNV}. - 2016.

Globallashuvni real voqelik, o'ziga xos fenomen ekanini endi asoslashga o'rin yo'q, u bugun aksioma sifatida hatto antiglobalistlar tomonidan ham tan olinmoqda. Ba'zi biror xalq davlat globalizatsiyani rad etmaydi, unga qarshi chiqayotgani yo'q.

M.N.Marchenko tushunchasiga ko'ra, globallashuv turli davlat-huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy va ijtimoiy-siyosiy institutlarning tizimli, ko'p qirrali va ko'p darajali integratsiyasi, g'oyalar, prinsiplar, bog'lanishlar, axloqiy, siyosiy, moddiy va boshqa qadriyatlar, turli munosabatlardir.

Shunday qilib, globallashuv jarayonining mohiyatini belgilash uning tamoyillaridan iborat, ular Global tizimlar va o'zaro bog'lanishlarining yaratilishi va rivojlanishini ta'minlaydi. Globallashuv, shuningdek globallashuvning asosiy jarayonlari hosilasi bo'lgan va qonunlarda iqtisodiy va hududiy globallashuv ehtiyojlariga moslashuvida aks etadigan murakkab tushunchadir. Kucherkov I.A. va Voronina T.V. huquqiy globallashuvni huquqiy tartibga solishning yagona huquqiy prinsiplari va usullarini hamda huquqiy tartibga solishning yagona huquqiy tizimi va supranational me'yorlarini shakllantirish maqsadida huquqni qo'llash tizimini yaratish jarayoni deb belgilaydi ⁴.

V. V. Bogatyrevning tadqiqotlariga ko'ra, huquq globallashuvining qonunga ta'siri uchta asosiy yo'nalishda: qonun chiqarish bosqichida, qonunlarning ijrosini ta'minlash bosqichida va qonun manbalarida o'z aksini topadi. Shu bilan birga, M.V.Zaxarovaning fikriga ko'ra, globallashuv sharoitida qonunning o'zgarishi quyidagi mezonlarga amal qilishi kerak:

- Huquqiy tizimlarni konversiyalash va xalqarolashtirish darajasini oshirish;
- Milliy qonunchilikni tashqi boshqaruv organlari tomonidan "qo'shish" va "almashtirish" ta'sirini ko'paytirish jamoatchilik bilan aloqalar;
- Turli turdagi integratsiya ta'sirida "fuqarolik" va "hudud" institutlaridagi o'zgarishlar.
- Turli guruh yo'nalishidagi huquqiy tizimlar o'rtasida teskari qabul.
- Huquq sohasini faqat milliy kishanlardan ozod qilish.
- Zamonaviy huquqiy tizimlarning institutsional segmentini progressiv ta'siri ostida o'zgartirish, axborot jamiyatini rivojlantirish.
- Birlashma jarayonining ta'siri ostida tubdan noyob huquqiy institutlarning paydo bo'lishi turli kvalifikatsion yo'nalishdagi globallashuv (iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy).

Huquqiy globallashuvning ahamiyatini aniqlash uchun uning tushunchasi bilan bog'liqligini ko'rib chiqish kerak. "Qonun konvergentsiyasi" bu ham integratsiya jarayonlarini nazarda tutadi. Integratsion rivojlanish ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-

⁴ И.К.Морозов. Особенности правовой глобализации в современном мире. Научно-методический. 2018- Й Сентябрь.

iqtisodiy progressiyaning umumiy tendensiyalari va imperativlariga asoslanadi. Natijada "konversiya" va "globallashuv" tushunchalari tadqiqotchilar tomonidan yagona integratsiya jarayonining bir qismi sifatida ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy dunyoda konversiya va globallashuv asoslari:

-Bozorlarning integratsiyalashuvini aks ettiruvchi iqtisodiy soha (kapital, mehnat, tovar va xizmatlar) va iqtisodiy shakllari, qaysi kapitalistik tashkilotning eng yuqori shakli;

– transmilliy korporatsiyalar paydo bo'lishi bilan iqtisodiyotning tashkiliy tuzilmalarini kengaytirish deb tushuniladi;

-Madaniy-ideologik soha;

- Hududiy-siyosiy soha – davlat va supranationalni kengaytirish jarayoni

- Axborot-kommunikatsiya sohasi;

- Etnik integratsiya, u 2 omilni o'z ichiga oladi:

a) Sayyoraning umumiy aholisining o'sishi;

b) turli etnik guruhlarning etnik guruhlar o'rtasidagi chegaralarning bosqichma-bosqich o'chirilib borishi bilan o'zaro assimilyatsiyasi;

-Huquqiy integratsiya ⁵. Bunda huquq tizimlarining birlashishi va mantiqan bir-birining to'ldirilib turilishi tushuniladi.

Shu bilan birga, huquq globallashuvi global huquqiy makon yaratish jarayonidir. Bunda milliy qonunchilik tizimlari o'z ahamiyatini yo'qotishi kerak.

Global huquq tizimini yaratishning vositalaridan biri Qonun konvergentsiyasi hamda uning maqsadi milliy huquqiy tizimlarning eng samarali milliy huquqiy amaliyotlarni birlashtirish uchun o'zaro ta'sirdir. Qonunning konvergentsiyasi global huquq tizimini yaratish vositalaridan biri bo'lib, uning maqsadi milliy huquqiy tizimlarning eng samarali milliy huquqiy amaliyotlarni birlashtirish uchun o'zaro ta'siridir. Shu bilan birga, ushbu mezon ancha shartli bo'lib, bu jarayonlarning birlashgan huquqiy mohiyatini ta'kidlashga imkon beradi. Huquq sohasini axborotlashtirish ham huquqiy globallashuvning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, normativ huquqiy aktlarning rasmiy nashr etilishi interaktiv hisoblanadi, Rossiya Federatsiyasida bir qator davlat idoralari, jumladan, Oliy sud murojaatchilariga internet orqali shikoyat qilish imkoniyatini yaratib berdi, sud jarayonlarida videokonferentsaloqa tizimlaridan faol foydalaniladi.

Globallashuv huquq tizimining barcha tarmoqlarida o'zini namoyon etadi. Xususiy huquq tarmoqlarida globallashuv murakkab xususiyatga ega bo'lgan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatining turli turlari (bank qonunchiligi, energetika qonunchiligi va h.k.), shuningdek transmilliy xususiyatga ega huquqiy

⁵ Т.А.Кули-заде. правовая глобализация Понятие и содержание. International research journal. 2017.12.29.

munosabatlarni huquqiy tartibga solishning yagona standartlarini ishlab chiqishda o'zini namoyon qildi. Masalan, fuqarolik ishlarida globallashuv jarayonlari fuqarolik ishlarining deyarli barcha institutlarini qamrab olgan AIP/UNIDROIT xalqaro fuqarolik jarayonini qurishning yagona printsiplari shakllantirishda ifodalanadi: yurisdiksiya, da'vo taraflarini xabardor qilish qoidalari, da'voni ta'minlash chora-tadbirlari, dalillarga murojaat qilish qoidalari va dalillarni taqdim etish qoidalari, g'ayriqonuniylik, sud jarayonining tuzilishi, sud jarayonida sudning burchlari.

Shu bilan birga, huquq globallashuvi global huquqiy makon yaratish jarayoni bo'lib, bunda milliy qonunchilik tizimlari o'z ahamiyatini yo'qotishi kerak, shu bilan birga qonunning konvergentsiyasi global huquq tizimini yaratish vositalaridan biri bo'lib, uning maqsadi milliy huquqiy tizimlarning eng samarali milliy huquqiy amaliyotlarni birlashtirish uchun o'zaro ta'siridir. Shu bilan birga, ushbu mezon ancha shartli bo'lib, bu jarayonlarning birlashgan huquqiy mohiyatini ta'kidlashga imkon beradi. Huquq sohasini axborotlashtirish ham huquqiy globallashuvning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, normativ huquqiy aktlarning rasmiy nashr etilishi interaktiv hisoblanadi, Rossiya Federatsiyasida bir qator davlat idoralari, jumladan, Oliy sud foydalanuvchilarga internet orqali shikoyat qilish imkoniyatini yaratib berdi, sud jarayonlarida videokonferentsaloqa tizimlaridan faol foydalaniladi. Globallashuv huquq tizimining barcha tarmoqlarida o'zini namoyon etadi. Xususiy huquqning tarmoqlarida globallashuv murakkab xususiyatga ega bo'lgan, tadbirkorlik va xo'jalik faoliyatining turli turlari (bank qonunchiligi, energetika qonunchiligi va h.k.), shuningdek transmilliy xususiyatga ega huquqiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning yagona standartlarini ishlab chiqishda o'zini namoyon qildi. Masalan, fuqarolik ishlarida globallashuv jarayonlari fuqarolik ishlarining deyarli barcha institutlarini qamrab olgan AIP/UNIDROIT xalqaro fuqarolik jarayonini qurishning yagona printsiplarini shakllantirishda ifodalanadi: yurisdiksiya, da'vo taraflarini xabardor qilish qoidalari, da'voni ta'minlash chora-tadbirlari, dalillarga murojaat qilish qoidalari va dalillarni taqdim etish qoidalari, g'ayriqonuniylik, sud jarayonining tuzilishi, sud jarayonida sudning burchlari. ishlar, sud qarorlarini qabul qilish tartibi, sud qarorlarining mulohaza yuritish shartlari, sud qarorlarini ijro etishning umumiy shartlari. O'z navbatida, umuminsoniy qonunchilikning filiallarida globallashuv huquqiy tartibga solishning supranatsion mexanizmlarini yaratishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, jinoyat huquqida bunday tizimning elementi xalqaro jinoyatlarning maxsus toifasi - insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyatlardir. O'z navbatida, kriminalistikada globallashuv jinoyat ishlarida xalqaro inson huquqlari normalarida namoyon bo'ladi, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida va Rossiya Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda ko'zda tutilgan. Ushbu standartlar tizimi quyidagi tamoyillardan iborat:

1. Qiynoqni taqiqlash va boshqa kamsituvchi muomala.

2. Shaxsning ozodlik va xavfsizlik huquqi.
3. Aybsizlik prezumptsiyasi.
4. Buzilgan huquqlarning samarali vositasiga bo'lgan huquq.
5. Himoya huquqi.
6. Odil sudlov huquqi.
7. Uyning daxlsizligi.
8. Yozishmalar sirasi.
9. Shaxsiy va oilaviy hayotga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda aralashishdan himoya qilish huquqi. Bu normalar milliy Rossiya qonunchiligida ham o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Yo'qoridagilardan ko'rinib turibdiki, globalizatsiya ijtimoiy hayotning barcha sohalarini, xususan, huquqiy sohani tobora ko'proq qamrab olyabdi, bu esa o'z navbatida davlatlar qonunchiligida uchrashi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni oldini oladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Giddens A. The Con ceguences of Modernity. Cambridge: Polity Press, 1990.P.64.
2. Qarang: Jumaniyazov X.S., Sobirova M.A., Nigmanova U. B. Globallashuv asoslari.-Toshkent: Navro`z, 2015.12-13b.
3. И.К.Морозов. Особенности правовлй глобализации в современном мире.
4. М.Й.Красаве правовая глобализация: Понятие и содержание.
5. Т.А.Кули-заде. правовая глобализация Понятие и содержание. International rearch journal. 2017.12.29

О‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOEMOTSIONAL HOLATLARNING О‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nishonova Lobar Mirzakulovna

Toshkent shahar Xalqaro Nordik Universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: O‘smirlik –bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. Ushbu maqolada, o'smirlik davrida stress holatlar korreksiyasining muammolari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi

Kalit so‘z: O'smirlik, davr, stress, muammo, korreksiya, bolalik, kattalik, balog'at davri

Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilgan ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko‘rsatadigan ob’ektlarga sub’ekt sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirgan ekan, bu narsalarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya’ni kayfiyatimizni ko‘tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba’zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko‘rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo‘ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Kishilar idrok qilayotgan, ko‘rayotgan, eshitayotgan, bajarayotgan, o‘ylayotgan, orzu qiladigan narsalarga befarq bo‘lmaydilar. Bir xil predmetlar, shaxslar, xarakterlar, voqealar bizni quvontiradi, boshqalari xafa qiladi yana boshqalari g‘azab, nafratimizni uyg‘otadi. Biz xavf ostida qolganimizda qo‘rquvni his qilamiz, dushman ustidan g‘alaba qozonish yoki qiyinchilikni engish zavq uyg‘otadi.

Hissiyotlar o‘zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, odamning organik ehtiyojlarini qondirishi bilan bog‘liq bo‘lgan hissiyotlar odamda rohatlanish, qanoatlanish tuyg‘usini yuzaga keltiradi. Organik hissiyotlarni qondira olmaslik

odamning ruhini tushirib, kayfiyatini buzib, azoblanish, toqatsizlanish hissiga sabab bo'ladi.

Hissiyot odamda sodir bo'layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo'lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a'zolariga ta'sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo'zg'ovchilardan aniq bo'lib ajraladi, ba'zilar bir-birlari bilan qo'shilib ketadi va paydo bo'lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada ta'ssurot uyg'otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma'lum qo'zg'atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo'ladi. Hissiyotning mana shu darak beruvchilik vazifasi psixologiyada hissiyotning impressiv tomoni deb ataladi.

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po'sti qismining faoliyati bilan bog'liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po'stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a'zolari faoliyati bilan ham bog'liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog'liqdir. CHunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo'rqan paytida esa rangi o'chib, qaltirab ketadi, xattoki odamning ovozida ham o'zgarish paydo bo'ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi. Endi esa o'smirlarning psixo emotsional holatlarini ko'rib chiqsak.

O'smir o'zining juda ko'p istaklari, "xohlayman"larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, qo'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat "kerakligi" uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday "xohlayman" va "kerak" o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi.

Tarbiyalangan odamda "xohlayman" faqat "kerak"ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va "kerak" bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi, hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning

mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda,

jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi.

U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi. O'smirlar davriga kimningdir xatti-harakatini imitatsiya qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning xatti-harakatlariga imitatsiya, taqlid qiladilar. O'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qolishlari ham mumkin. O'smir katta odam, shuningdek, chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini noqulay his qiladi. Psixik rivoji jihatidan bolalarga yaqin, lekin ehtiyojlari jihatidan kattalarga yaqin bo'lgan o'smirda juda ko'p noqulay va tashvishgatushuvchi holatlar bo'ladi va ular o'smirda krizisni yuzaga keltirib chiqaradi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, shuningdek psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqei o'zgaradi, o'zining yaqinlari, do'stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o'zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin.

Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlar davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning kechishida namoyon bo'ladi. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirda ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir qiladimi — bu narsa uning axloqiy qiyofasi bilan bog'liq

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'smirlar ik davrida o'smirning "men" qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi. O'smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bo'lib

qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o‘smir shunday qilishga xaqqi borligiga o‘zini-o‘zi ishontiradi, chunki men endi “katta bo‘lib qoldim” deb o‘ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar “katta bo‘lib qolganlik tuyg‘usi”ni shaxsning o‘smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. -T.: Universitet, 96
3. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
4. Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori –T: "Sharq", 1997 yG‘oziyev
5. E. Psixologiya: (Yosh davrlari psixologiyasi): -T.: "O‘qituvchi", 1994.

О‘SMIRLIK DAVRIDA O‘SMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN DISTРУКТИВ XULQ-ATVOR

Nishonova Lobar Mirzakulovna

Toshkent shahar Xalqaro Nordik Universiteti

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada oila va oilaviy tarbiya uslublarini bola shaxsining kamolga yetishidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning bola shaxsida deviant xulq-atvorni shakllantirishning asosiy omillari ochib berilgan. Ayniqsa, oiladagi ota-ona avtoreteti, tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan usul va uslublarining o‘smir shaxsida deviant xulq-atvorni shakllantirishiga doir ilmiy nazariy ma‘lumotlarning tahlillari keltirilgan.

Kalit so‘z: oila, oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya uslublari, o‘smir shaxsi, deviant xulq-atvor, shaxslararo munosabat, ota-onaning obro‘si, ijtimoiylashuv, axloqiy me‘yorlarning buzilish, noto‘g‘ri tarbiya, noto‘liq oila, muammoli oila.

Bugungi kun zamonaviy jamiyatda oila tarbiya institut sifatida o‘zining samarali roli va vazifalarini amalga oshirib kelmoqda. Shunday vazifa va funktsiyalaridan biri bu kelajagimiz davomchilari bo‘lgan yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashdir. Ma‘lumki, oila inson bolalik davrining ilk kunlaridan boshlab nimani qo‘lga kiritgan, egallagan bo‘lsa uni butun hayoti davomida saqlaydi. Shu bois, oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy jihatlari ko‘p bo‘lib, u sevgi va g‘amxo‘rlikda yaqqol ifodalanadi. Ta‘kidlash joizki, bola hayotida ota-onaning obro‘si, tarbiya uslublarining ta‘sirchanligi muhim hisoblanadi.

Ayniqsa, oila shaxs kamolotini belgilab beruvchi birlamchi omillardan sanaladi. Ma‘lumki, oilada ota-ona tomonidan tarbiya uslublarini to‘g‘ri va oqilona tanlay olish ularni kelajakdagi kamoloti ta‘minlab beradi. Ayrim o‘rinlarda oilada ota-ona munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi bola shaxsini shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bois, ko‘pgina fanlar doirasida oila, oilaviy tarbiya va oila muhitida bola shaxsini tarbiyalash masalasiga katta e‘tibor beriladi. Bundan ko‘rinadiki, oilaning maqsadli, funktsional va mazmunli roli mamlakat, jamiyat va shaxs uchun ko‘p qirrali ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, oila xususida fikr yuritilganda oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya uslublari, ota-ona va bola munosabatlarining o‘ziga xos jihatlarga e‘tibor qaratish lozim. Shunga muvofiq ravishda adabiyotlarda oilaviy munosabatlarning 4 ta turi ajratib ko‘rsatiladi.

Psixofiziologik – biologik qarindoshlik va jinsiy qoniqish munosabatlarini o‘z ichiga oladi. Psixologik – oila a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, ochiqlik, samimiylik, ma‘naviy va hissiy yordam, bir-birlariga nisbatan g‘amxo‘rlik qilishni nazarda tutadi. Ijtimoiy – oiladagi moddiy qaramlik, oilaviy rollarni taqsimlanishi, shuningdek, jamiyatdagi ustuvor munosabatlarga bo‘ysunishi, hokimiyatga intilish, yetakchilik kabilarni o‘z ichiga oladi. Madaniy – bu oila yuzaga kelgan va mavjud bo‘lgan madaniy shart-sharoitlarda rivojlangan urf-odatlar, an‘analar bilan bog‘liq o‘ziga xos turdagi oilaviy munosabatlar. Yuqoridagi murakkab bog‘lanishlar tizimi oilaviy tarbiyada yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuning bilan birga oilada bolalarni tarbiyalashdagi

buzilishlarning asosiy sababalari ota-onalik funktsiya, vazifalarini to'g'ri yo'lga qo'yilmasligi, o'zaro munosabatlarida axloq me'yorlariga muntazam rioya qilmaslik, o'zaro hurmat, himoya, psixologik yordam, g'amxo'rlik va e'tiborning yetishmasligi bilan belgilanadi.

Bugungi kunda xorijiy ilmiy adabiyotlarda inson tarbiyasining birinchi sub'ekti oila bo'lib, u shaxs shakllanishida yetakchi o'rin tutadi degan fikrlar mavjud. Shu bois, oilada bolaning barcha asosiy fazilatlarini tarkib topadi hamda uning dunyoqarashi, e'tiqodi, atrofdagi dunyoga, mehnatga, boshqa odamlarga va o'ziga nisbatan munosabatlar tizimi shakllanadi (A.N.Ganicheva, O.L. Zverova A.G.Selevko, G.K.Selevko, I.S.Kon, L.B. Shneyder va boshqalar) Bunda ko'rinadiki, oila bola hayotini biologik jihatdan ta'minlab qolmasdan balki, ijtimoiy kamolotini belgilab beruvchi maskandir. Shu nuqtai nazardan olganda, oilaning farzand tarbiyasidagi roli muhim ekanligini e'tiborga olsak, u o'smir shaxsida deviant xulq-atvorini (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida oiladagi o'zaro munosabatlar negizida shaxsga ta'sir qiluvchi turli xil og'ishlar mavjudligi kuzatiladi.

Ma'lumki, muammoli oilalar o'smir shaxsida deviant xulq-atvorni shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilishda biz dastlab oila tasniflari nuqtai nazardan yondashishga harakat qildik. Buning uchun V.A.Gurieva tomonidan ilgari surilgan oila tasniflariga e'tiborimizni qaratdik. Uning tasnifiga ko'ra, ijtimoiy moslashuv darajasiga asoslanib, oilalarni yuqori, o'rta, past va juda past kabi turlarga ajratiladi. Shunga muvofiq ravishda farovon oila, xavf ostida bo'lgan oila, disfunktsional oila va asotsial oilalarga ajratiladi. Unga ko'ra, farovon oilalar moliyaviy, psixologik va boshqa ichki zahiralarga asoslangan holda moslashuvchanlik qobiliyatlari yuqori bo'lganligi tufayli o'zlariga tegishli bo'lgan funktsional vazifalarni muvaffaqiyatli bajaradilar. Farovon oilalarda kamolga yetayotgan bola shaxsining ehtiyoj va moyilliklari o'z vaqtida va o'rinli ravishda qondiriladi va ta'lim bilan bog'liq muammolar muvaffaqiyatli hal qilinadi.

Xavf guruhiga kiruvchi oilalarda bola shaxsiga ta'sir ko'rsatuvchi noxush, salbiy holatlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Bunday oilalarga to'liq bo'lmagan oila, kam ta'minlangan oila, jamiyatning ushbu bo'g'inlariga nisbatan moslashish qobiliyatini kamaytiradigan buzg'unchi ota-ona munosabatlariga asoslangan oilalar misol bo'ladi. Bu toifadagi oilalarda ota-onalar kuchli darajadagi stresslar bilan voyaga yetishadi. Shu bois, o'zlaridagi turmush tajribalariga asoslanib, o'zgalarga ta'lim-tarbiya berishga harakat qilishadi. Haqiqatdan, ham bu oila vakillari farzandlarini kamolga yetkazishda o'zlarining hayotlari andoza vazifasini o'taydi.

Disfunktsional oilalar – hayot faoliyatining ma'lum bir sohasida yoki aksariyat hollarda past darajasidagi ijtimoiy maqom bilan tavsiflanadi. Disfunktsional oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda begonalashuv, o'zaro munosabatlarda bir-biridan uzoqlashish, o'zidan katta insonlardan ajralib turish va tez-tez jismoniy jazolarni qo'llanilishi kuzatiladi. Bunda asosan kattalar o'zlariga yuklatilgan oilaviy vazifa va funktsiyalarni bajara olmaydilar.

Natijada bola shaxsidagi moslashuvchanlik salohiyatiga yetarlicha baho berilmasligi va kamolga yetayotgan shaxs tarbiyasi muammo va qiyinchiliklar bilan kechadi.

Asotsial oilalar – oilaning katta vakillarini odobsiz, axloqsiz noqonuniy turmush tarziga asoslangan oilalar. Mazkur oilalarda yashayotgan insonlarning yashash sharoitlari oddiy epidemiologik meʼyorlarga toʻgʻri kelmaydi. Koʻpincha bunday toifadagi oilalarda ota-onalar bolalarning taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanmaydilar natijada oʻsmirlar qarovsiz holatga tushib qoladilar hamda intellektual va jismoniy rivojlanishida yoshga bogʻliq kechikishlar uchraydi. Shu bois, bolalar aksariyat hollarda ota-onalari yoki ularga teng ijtimoiy mavqeidagi boshqa fuqarolar tomonidan zoʻravonlik harakatlarining qurboni boʻlishadi.

Maʼlumki, oʻsmir xulq-atvorida qiyinchiliklarning paydo boʻlishiga sabab boʻladigan yoki yordam beradigan muayyan oilaning xususiyatlari qanday koʻrinishga ega? Mazkur masala boʻyicha turli xil yondashuvlar mavjud boʻlib, ular asosan bir-biriga zid emas, balki bir-birini toʻldiradi va baʼzan takrorlaydi. Jumladan, L.S.Alekseeva disfunktsional oilalarning quyidagi turlarini ajratadi: a) ziddiyatli; b) axloqsiz; v) pedagogik qobiliyatsiz; d) ijtimoiy

Yuqoridagi fikrlardan koʻrinadiki, oilada bola shaxsini tarbiyalash oʻzining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, oʻsmir shaxsida deviant xulq-atvorni shakllanishida oilaviy munosabatlar, oilaviy tarbiya usullari, oilada ota-onaning shaxsiy obroʻsi muhim sanaladi. Shu bois, bugungi kun oilalarimiz bola taʼlim-tarbiyasi bilan shugʻullanishida keltirib oʻtilgan mezonlarning mohiyatini bilishi va amaliyotga tadbiiq qilishi lozim. Bu esa oʻz navbatida jamiyatimizda kelajakka umidvor, ulkan maqsadlar ega, har tomonlama bilimli yoshlarimizni kamolga yetkazishga muvaffaq boʻlamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алмазов Б.Н. Психологические основы педагогической реабилитации: учеб. пособие / под ред. Э. Ф. Зеер. Екатеринбург, 2015.

2.Беляева С.И. Психологическая поддержка матери подростка с делинквентным поведением – М., 2013.

3.Бондаренко А.Ф. Психологическая помощь: теория и практика. Киев, 1997.

4.Буянов, М. И. Ребенок из неблагополучной семьи [Текст] / М.И. Буянов. – М.: Сфера, 2008. – 188 с.

5.Воспитание трудного ребенка: Дети с девиантным поведением / Под ред. М.И. Рожкова. М., 2001.

О'SMIRLIK DAVRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nishonova Lobar Mirzakulovna

Toshkent shahar Xalqaro Nordik Universiteti

Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada O'smirlik davri haqida tushuncha, o'smirlarning anatomik fiziologik xususiyatlari va o'smirlarning bilish jarayonlarining xususiyatlari taxlil qilindi.

Kalit so'z: O'smirlik davri, fiziologik xususiyatlari, o'smirlarning bilish jarayonlar, bolalarning psixik rivojlanishi, ta'lim va tarbiya.

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf o'quvchilarini.

O'smir o'quvchilarni ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi. Kichik va katta yoshdagi maktab o'quvchilariga qaraganda o'smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'p qiyinchiliklar boladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bolgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bogliqdir. Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdir. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Sana shu nuqtai nazardan o'smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang'ich sinfni tugatadi. Bolaning o'rta maktabda o'qishga o'tishi uning hayotida buriqish davri hisoblanadi.

O'smirlarning yangi ijtimoiy jihatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi. Shunday qilib, o'smirlarga ta'lim-tarbiya berishning yangi to'g'ri usullari

hamda vositalarni topishi uchun o'smirlik yoshining o'ziga xos xususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak.

O'smirlik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o'zgaradi. Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o'smirlar ongiga og'ir, ba'zan kuchi yetmaydigan bolib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o'smirlar uchun xarakterli bolgan norozilik, qo'pollik, qaysarlik, o'z-o'zini analiz qilishga moyillik sub'ektiv olamga va shunga o'xshash hislatlarni keltiradigan jinsiy etilishga nihoyatda katta ahamiyat beradilar. Jinsiy yetilish munosabati bilan paydo boladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar go'yo o'smirlar ongida hukmron boladi. Ularning xulqi atvorini belgilaydi. Mana shu tariqa oqibat natijada o'smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg'iz sof biologik omil deb qaraladi.

Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg'iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bolmay balki bolaning ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o'zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bolishi natijasida o'smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashkil qilish o'smirlarning konkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo'lmaydi. Bu davrda yurak qon tomirlari sitsemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisasi kuchlaniladi. Bu paytda yurak xajmi jihatidan ancha kattalashadi, ancha kuchli ishlay boshlaydi. Ko'pincha qon aylanishining vaqtincha bo'zilikida qok bosimining yoshga bogliq xolda ko'tarilishiga, yurak faoliyatining zor berilishiga olib keladi. Natijada o'smirlarda uchraydigan bosh aylanishi, yurak urishi, bosh og'rig'i paydo boladi.

O'smirlarning yoshi ham jismoniy psixik xususiyatga egadir, organizm Pavlov ta'limotiga ko'ra, bir butun sitsemadan iborat bolib, bunda barcha to'qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan boglangan boladi. Lekin bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan boglangan yuqori qismi I.P.Pavlov so'zi bilan aytganda organizmda sodir boladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po'tsi asosiy yetakchi rolni o'ynaydi. O'smirlik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o'sa boshlaydi va miya ichki tuzilishining murakkablashishga o'tadi. Katta yarim sharda nerv hujayralarning etilishi tugallanadi.

O'smir organizmining jismoniy taraqqiyoti uning organlari va to'qimalarining rivojlanishi bosh miya po'tsining boshqaruvchanlik roli otsida amalga oshadi, ammo o'sib borayotgan to'qimalar va organlar oz navbatida nerv sitsemasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik yoshida o'pkaning xajmi kattalashadi nafas olish ancha miqdorda tezlashgan va sayoz bladi. O'smirlik yoshida bola qancha toza havoda yursa shuncha foydalidir. Bu davrda ichki sekretiya bezlarining qayta qurishiga bogliq bo'lgan jinsiy etilish davridir. Bu bezlarning yetilishi kishi organizm faoliyatida xizmati juda kattadir. O'smirlik yoshining xarakterli xususiyatlaridan biri jinsiy etilish jarayonidir.

O'smirlar maktabdaga o'qituvchilar. kattalar ota-onalar nutqidagi kamchiliklarga kitob, gazeta radio va televidenie diktoralari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat qilish o'rgatsa, ikkinchi tomondai kattalar ham nutq, qoidalari bu'zilishi mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi. U endi o'z mutqida yosh bola singari emas, bolki katta odamlardan so'zlarni tanlashga harakat qiladi. Nutq madaniyatnii egallash borasida o'smir uchui o'qituvchi, albatta, namuna bo'lishi shartdir.

Aynan maktab talimi o'smir bilshi jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishdi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq ham oshadi, ham yozma mavjud bo'lishi bilan ham kuchli vosita xisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etiliishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi.

Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirniig muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishi ehtiyoj va intilish hisoblanadi. O'smirlik davrida o'qish va yozma monologik nutq jadal rivojlanadi. 5 sinfdan boshlab to 9-sinfgacha o'qish to'g'ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monilogik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, ogzaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o'zgaradi. Yozma nutq ham yaxshilangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar.

Qo'zg'alish jarayonlari jo'shqin, lekin tez o'sadi. Ikkinchi tomondan o'smir kuchli hayajonlanish paytida ayniqsa tegishli ijtimoiy sabablari asosida hayajonlanganda oz hatti-harakatlarini idora etaolmaydi. Osmirlik yoshida ikkinchi signal sitsemasining roli kuchaya boradi. Qo'zg'ovchi vazifasini bajaruvchi so'z bilish jarayonida bashqa kishilar bilin munosabatda bo'lishda va oz hatti-harakatlariga baho berishda ko'proq rol o'ynay bashlaydi. Shu bilan bir qatorda o'smirning nerv sitsemasining o'sishi hali tug'ilmagan bo'lib, tarkib topish bosqichida bo'ladi. U uzoq vaqt davom etadigan kuchli qo'zg'aluvchiga bardosh bera olmaydi. Ba'zan shu sababli ancha tez qo'zg'alish holatiga o'tib ketadi. Bu esa o'smir nerv sistsemasining ma'lum darajada bo'shligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida o'smirning nerv sitsemasining tarkib topayotgan munosabatlari tarkibiy natijasida kuchayadi va mutsahkamlanadi. O'smirni ish o'qish hamda sport mashg'ulotlari paytida to'g'ri va chuqur nafas olishga o'rgatish zarurdir. Bu narsa shuning uchun ham muhimdirki, bo'yning tez o'sishi organizmda modda almashishining jadallashishi bilan o'smir ko'p miqdorda kislorodga muhtoj bo'ladi. Bu yoshda o'smirning toza havoda bo'lishi ayniqsa muhimdir. Osmirlik yoshida yurak ikki baravardan ko'proq o'sadi, gavda esabir yarim barobar o'sadi. Arteriyalari diametrining o'sishi yurakning o'sishidan orqada qoladi. Qon tomirining yo'li yurak hajmiga nisbatan

kamayadi va bu nerv qalqonsimon bezlari faoliyatining kuchli darajada tezlashuvi bilan birgalikda qon bosimining ortishiga va yurak faoliyatining kuchayishiga olib keladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Jalolova M. SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 25. – №. 1. – С.
2. Jalolova, Mohinur. "SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE." Archive of Conferences. Vol. 25. No. 1. 2021.
3. Jalolova, M. (2021, May). SENSORY DEVELOPMENT IN PRESCHOOL AGE. In Archive of Conferences (Vol. 25, No. 1, pp. 153-157).
4. ИСАКОВА М. Т. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) //СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий". – №. 8. – С.
5. ИСАКОВА, МУЪАЗАМ ТУЛКИНОВНА. "СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН)." СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий".
6. ИСАКОВА, М. Т. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН). СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН) Учредители: Общество с ограниченной ответственностью" Центр инновационных технологий", (8), 45-52.

ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПСИХОЛОГИЮ ЧЕЛОВЕКА

Рохаталиев Махсудали Махмудали угли

*Ташкентский государственный технический университет,
факультет геологии и горного дела, преподаватель
инженерной психологии*

Нарзуллаев Хасан Бахтиёрович

*Студент Ташкентского государственного
технического университета*

Абдихоликов Сардор Абдирасул угли

*Студент Ташкентского государственного
технического университета*

Истамов Бекжон Мехриддиннович

*Студент Ташкентского государственного
технического университета*

Аннотация: В этой статье исследуется сложное взаимодействие между современными технологиями и психологией человека, исследуется, как достижения цифровых технологий влияют на общение, когнитивные функции, эмоциональное благополучие, модели поведения и этику. Изучая многогранные отношения между технологиями и психологией, мы можем лучше понять преобразующее воздействие современных технологий на человеческую психику и ориентироваться в новых цифровых технологиях с осознанием и устойчивостью.

Ключевые слова: инновации, Интернет, компьютер, общество, искусственный интеллект, сознание.

В наше время современные технологии произвели революцию в том, как мы воспринимаем, переживаем и взаимодействуем с окружающим миром. От повсеместного распространения смартфонов и социальных сетей до достижений в области искусственного интеллекта и виртуальной реальности — технологии стали неотъемлемой частью нашей повседневной жизни, формируя наши мысли, поведение, эмоции и психологию в целом. Быстрый темп технологических инноваций создал беспрецедентные возможности и проблемы, глубоко затрагивающие различные аспекты человеческой психологии. У современных технологий и Интернета есть много положительных сторон, и все зависит от того, как люди используют Интернет и технологии. В современном мире очень много людей, которые ежедневно используют компьютеры, и большинство из

них не представляют своей жизни без всемирной паутины, Интернета, наоборот, считают это величайшим достижением в мире. Это верно с одной стороны, потому что людям больше не нужно ходить в библиотеки, искать информацию, которой там может не быть, или ждать, пока кто-то ею воспользуется, и особенно в наши дни никто не хочет ждать чего-то часами. Однако сегодня технологии и Интернет развиваются настолько, что каждый пользователь может без особых затрат времени и усилий найти все, что пожелает.

Информационные и коммуникационные технологии играют важную и, возможно, решающую роль в экономическом, политическом, социальном и культурном развитии современных обществ. Информационные технологии – стратегически важная отрасль, которая затрагивает все стороны жизни любого современного общества. Оно также создает широкие возможности для экономического роста и социального развития отдельных лиц и общества в целом. Исходя из образовательного процесса, использование современных информационных технологий, безусловно, очень эффективно и удобно как для преподавателя, так и для ученика при объяснении и понимании предмета. Например, вместо того, чтобы просто объяснять ход урока и писать мелом на доске, полезнее проявить фантазию учащимся, показывая слайды с компьютера, заинтересовать их игровыми технологиями и иметь представление о теме. Это останется в памяти надолго.

В сегодняшней век цифровых технологий современные технологии стали неотъемлемой частью нашей повседневной жизни, глубоко формируя человеческое поведение, восприятие, эмоции и общую психологию. Широкое использование смартфонов, социальных сетей, искусственного интеллекта, виртуальной реальности и других технологических достижений существенно повлияло на то, как мы думаем, чувствуем и взаимодействуем с миром.

1. Коммуникация и социальное сотрудничество:

Современные технологии произвели революцию в общении, позволив людям общаться с другими через различные цифровые платформы в режиме реального времени. Хотя эта взаимосвязь облегчила общение и социальное взаимодействие, она также изменила качество личного общения и межличностных отношений. Распространенность социальных сетей привела к возникновению таких проблем, как социальное сравнение, FOMO (страх упустить выгоду), киберзапугивание и цифровая зависимость, которые влияют на самооценку, благополучие и психическое здоровье людей.

2. Когнитивные функции и обработка информации:

Постоянное воздействие цифровых устройств и информационная перегрузка влияют на когнитивные функции и обработку информации.

Исследования показали, что слишком много времени перед экраном и многозадачность могут ухудшить внимание, концентрацию, память и способность принимать решения. Культура «всегда на связи», увековеченная современными технологиями, привела к снижению концентрации внимания, снижению когнитивного контроля и повышенной восприимчивости к отвлекающим факторам, которые влияют на когнитивные способности и продуктивность людей.

3. Эмоциональное благополучие и психическое здоровье:

Использование современных технологий связано с изменениями в эмоциональном благополучии и состоянии психического здоровья. Киберзапугивание, онлайн-преследование, стресс, вызванный социальными сетями, и нарушения сна — вот некоторые из психологических проблем, с которыми люди сталкиваются в эпоху цифровых технологий. Кроме того, постоянное воздействие онлайн-персон и идеализированного образа жизни может привести к ощущению неадекватности, одиночества, беспокойства и депрессии, которые могут формировать самовосприятие людей и их эмоциональные переживания.

4. Модели поведения и зависимости:

Зависимость от современных технологий, особенно социальных сетей, онлайн-игр и использования смартфонов, вызвала обеспокоенность по поводу технологической зависимости и ее влияния на поведение. Системы вознаграждения на основе дофамина, встроенные в цифровые интерфейсы, могут привести к компульсивному использованию, абстинентному синдрому и трудностям с управлением временем, проведенным перед экраном. Технологическая зависимость может мешать повседневной деятельности, отношениям и общему качеству жизни, подчеркивая необходимость цифровой детоксикации и разумного использования технологий.

5. Проблемы этики и конфиденциальности:

Всепроникающее влияние современных технологий также создало этические дилеммы и проблемы конфиденциальности, связанные с безопасностью данных, наблюдением, дезинформацией и алгоритмической предвзятостью. Сбор и анализ персональных данных технологическими компаниями могут нарушать права и автономию людей на неприкосновенность частной жизни, в то время как распространение дезинформации и пузырей фильтров в социальных сетях искажают восприятие и укрепляют эхо-камеры, социальные ценности и могут повлиять на демократические процессы.

Резюме:

В заключение, хотя современные технологии предлагают множество преимуществ и возможностей для инноваций, они также создают серьезные

проблемы для психологии и благополучия человека. Крайне важно, чтобы отдельные лица, политики и разработчики технологий критически оценивали влияние технологий на психологические процессы и продвигали цифровую грамотность, ответственное использование и этические практики в цифровом пространстве. Развивая сбалансированные отношения с технологиями, развивая осознанность и уделяя приоритетное внимание человеческим связям и благополучию, мы можем использовать преобразующую силу технологий, одновременно защищая наше психическое, эмоциональное и социальное здоровье в эпоху цифровых технологий.

Использованная литература:

- 1.Ходжаев Б., Махмудова М. Читалка – это технология развития культуры поиска информации у молодежи. - Т., «КРЫЛО МЫСЛИ», 2016 г.
- 2.Ю.Д. Бабаева, Психологические последствия информации / «Психологический журнал», Е 1, 1998, стр. 88-100.
- 3.Зимбардо Ф., Лейп М. Социальное влияние. - СПб.: Издательство «Питер», 2000, с.
- 4.Тайлаков Н.И. «Перспективы внедрения современных информационных технологий в систему образования».Ташкент-2017
- 5.www.ziyonet.uz

О'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISHDA MODULLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Raupova Zarina G'olib qizi

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU akademik litseyi
"Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada modulli o'qitish texnologiyalari zamonaviy texnologiya ekanligi, modulli ta'lim, o'quv moduli, modulli yondashuv, modulli o'qitishning xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Modulli yondashuvda axborotni o'zlashtirish, idrok etilgan axborotni mustaqil taxlil qilish, o'z mustaqil fikrini bildirishga undovchi va qisqa muddatda eng maqbul usullar yordamida belgilangan maqsadga erishish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: modul, modulli o'qitish, modulli yondashuv, modulli ta'lim, mustaqil taxlil, yangi pedagogik texnologiya.

Аннотация: В статье рассматривается, являются ли технологии модульного обучения современной технологией, модульное обучение, учебный модуль, модульный подход, особенности модульного обучения. При модульном подходе показаны пути усвоения информации, самостоятельного анализа воспринимаемой информации, достижения поставленной цели с помощью наиболее оптимальных методов, побуждающих к самостоятельному выражению мнения и в краткосрочной перспективе.

Ключевые слова: модуль, модульное обучение, модульный подход, модульное обучение, независимый анализ, новые педагогические технологии.

Annotation: The article reflects on the fact that modular teaching technologies are modern technology, the features of modular education, training module, modular approach, modular teaching. The modular approach outlines ways to achieve the goal set by mastering information, independently calculating perceived information, motivating to express one's own independent opinion and using the most optimal methods in the short term.

Keywords: modular, modular teaching, modular approach, modular education, independent thinking, new pedagogical technology.

O'quv jarayonida mustahkam o'rin olgan yangi texnologiyalardan biri modulli o'qitishdir. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, o'quvchi o'z-o'zidan bilim olishi kerak, o'qituvchi esa uning o'quv faoliyatini boshqaradi.

Ushbu texnologiyada asosiy tushuncha moduldir. Modul - ta'lim mazmuni va uni o'zlashtirish texnologiyasini birlashtirgan maqsadli funktsional birlik. Modulli o'qitishning mohiyati shundan iboratki, o'quvchi modul bilan ishlash jarayonida

mustaqil ravishda yoki o'qituvchi yordamida o'quv va kognitiv faoliyatning aniq maqsadlariga erishadi. Modulni mazmuni, o'qitish usullari, mustaqillik darajasi, o'quv va kognitiv faoliyat sur'ati bo'yicha individuallashtirilgan o'quv dasturi deb hisoblash mumkin.

Modulli ta'lim texnologiyasi. Modulli ta'lim quyidagi asosiy g'oyaga asoslanadi: talaba o'z-o'zidan o'rganishi kerak, o'qituvchi esa o'z bilimini boshqarishga majburdir: rag'batlantirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, maslahat berish, nazorat qilish. Ushbu texnologiya mualliflarining fikriga ko'ra, u pedagogik nazariya va amaliyotda to'plangan barcha progressiv narsalarni birlashtiradi.

Modulli o'qitishning mohiyati shundaki, talaba to'liq mustaqil ravishda (yoki ma'lum bir yordam dozasi bilan) aniq maqsadlarga erishadi. modul bilan ishlash jarayonida o'quv va kognitiv faoliyat. Modul bu maqsadli funktsional birlik, birlashtiradi: ta'lim mazmuni va uni yuqori darajadagi yaxlitlik tizimiga o'zlashtirish texnologiyasi. Shunday qilib, modul modulli o'qitish vositasi sifatida ishlaydi, chunki unga o'z ichiga oladi: maqsadli harakatlar rejasi, axborot banki, uslubiy qo'llanma didaktik maqsadlarga erishish. Bu o'quv dasturi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan modul bo'lib, mazmuni, o'qitish usullari, mustaqillik darajasi va talabaning o'quv va kognitiv faoliyatining sur'ati bo'yicha individuallashtirilgan.

Modulli o'qitishning muhim xususiyatlari uning boshqa o'qitish tizimlaridan farqini o'z ichiga oladi.

1. *Birinchi*dan, o'qitish mazmuni to'liq mustaqil komplekslarda (axborot bloklarida) taqdim etiladi, ularning assimilyatsiyasi maqsadga muvofiq amalga oshiriladi.
2. o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot shakli o'zgarib bormoqda. U modullar va shaxsiy, individual aloqa orqali amalga oshiriladi.
3. talaba imkon qadar mustaqil ishlaydi, o'z faoliyatini rejalashtirishni, o'zini o'zi tashkil qilishni, o'zini o'zi nazorat qilishni va o'zini o'zi qadrlashni o'rganadi. Bu uning faoliyatida o'zini anglashi, bilimlarni o'zlashtirish darajasini o'zi aniqlashi, bilim va ko'nikmalaridagi kamchiliklarni ko'rish imkonini beradi.
4. bosma bazaga ega modullarning mavjudligi o'qituvchiga individual talabalar bilan ishlashni individuallashtirishga imkon beradi.

Tayyorgarlik bosqichi. Avvalo, o'qituvchi murakkab didaktik maqsad va ushbu maqsadga erishishni ta'minlovchi modullar majmuasidan iborat modul dasturini ishlab chiqishi kerak. Bunday dasturni yaratish uchun o'qituvchi kursning asosiy ilmiy g'oyalarini ajratib ko'rsatishi kerak. Ushbu texnologiya mualliflari o'qituvchilarga ishlayotganda modulli dasturlarni qurish uchun ba'zi nazariy asoslarga va asosiy tamoyillarga tayanishni maslahat berishadi. Avvalo, siz *maqsad printsipli haqida bilishingiz kerak.* Modullarni uch turga bo'lish mumkin: kognitiv, ular fan asoslarini o'rganish uchun ishlatiladi; operativ - faoliyat usullarini shakllantirish va rivojlantirish

uchun va aralash. Talabaning modul bilan muvaffaqiyatli ishlashi uchun *ta'lim mazmunini taqdim etish muhim talabdir*. Bu shunday bo'lishi kerakki, talaba uni samarali o'rganadi. O'qituvchi talaba bilan gaplashishi, uni fikrlashga, izlashga, taxmin qilishga, uni rag'batlantirishga va muvaffaqiyatga yo'naltirishga undashi maqsadga muvofiqdir. Ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun modulning tuzilishi katta ahamiyatga ega.

Tashkiliy bosqich. Modulli texnologiya bilan bir nechta qoidalardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Har bir moduldan oldin yangi modul ustida ishlashga tayyorlik darajasi haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarining kiruvchi testini o'tkazing.

2. Talabalar bilimida kamchiliklar aniqlansa, tegishli tuzatishlar kiritish kerak.

3. Joriy va oraliq nazorat har bir o'quv elementi oxirida amalga oshirilishi kerak (ko'pincha bu yumshoq nazorat: o'z-o'zini nazorat qilish, o'zaro nazorat, namuna bilan taqqoslash va boshqalar). Joriy va oraliq nazorat assimilyatsiyadagi kamchiliklarni bevosita ish jarayonida bartaraf etish uchun aniqlashga qaratilgan.

4. Modul bilan ishlashni tugatgandan so'ng, modulni o'zlashtirish darajasini ko'rsatishi kerak bo'lgan chiqish nazorati amalga oshiriladi; Modulli o'qitishga o'tish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratish kerak. Birinchi shart o'qituvchilarning motivatsiyasi bilan bog'liq. Ikkinchi shart - talabalarning mustaqil o'quv va kognitiv faoliyatini amalga oshirishga tayyorligi bilan bog'liq uchinchi shart - modullarni ko'paytirishda kollejning moddiy imkoniyatlari, chunki ular har bir talaba ushbu dastur bilan ta'minlanganda o'z rolini bajaradi.

“O'quv moduli” tushunchasi.

• O'quv moduli - bu o'quv fanining mazmuni qismining mantiqiy to'ldirilgan shakli, shu jumladan kognitiv va kasbiy jihatlar, uni o'zlashtirish talabalarning o'zlashtirishi natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni nazorat qilishning tegishli shakli bilan yakunlanishi kerak. ushbu modul.

• Modul kognitiv va kasbiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi, ular bilan bog'liq holda modulning kognitiv (axborot) va o'quv-professional (faol) qismlari haqida gapirish mumkin. Birinchisining vazifasi - nazariy bilimlarni shakllantirish, ikkinchisining vazifalari - olingan bilimlar asosida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish.

Modulli o'qitish tamoyillari

• O'quv material shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, u har bir o'quvchi o'z oldiga qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishishini to'liq ta'minlaydi;

• Ayrim modullardan murakkab didaktik maqsadga mos keladigan yagona o'quv mazmunini qurish mumkin bo'lgan to'liq blok sifatida taqdim etilishi kerak;

• O‘quv materialiga muvofiq o‘qitishning har xil turlari va shakllari birlashtirilgan, ko‘zlangan maqsadga erishishga bo‘ysunishi kerak. Har bir elementning mazmuni va shuning uchun har bir modul osongina o‘zgartirilishi yoki to‘ldirilishi mumkin;

• Turli modullarning elementlarini loyihalash orqali siz yangi modullarni yaratishingiz mumkin;

• Modul shunday ko‘rinishda taqdim etilishi kerakki, uning elementlari osongina almashtirilishi mumkin.

• Modulli dastur talabalarining mustaqil ravishda ma’lum darajada bilim olish imkoniyatini beradi. U o‘qituvchini sof axborot funksiyasini bajarishdan ozod qilish va maslahat va muvofiqlashtiruvchi funktsiyaning yanada yorqin namoyon bo‘lishi uchun sharoit yaratish uchun mo‘ljallangan.

Modullar o‘qituvchi va talabaning optimal ta’lim yo‘lini birgalikda tanlashi uchun sharoit yaratishi kerak.

Modulli o‘qitish jarayonida o‘qituvchi ba’zi boshqaruv funktsiyalarini modulli dasturga o‘tkazadi, bunda ular o‘zini o‘zi boshqarishga aylantiriladi. Modulli o‘qitishning yuqoridagi tamoyillari o‘zaro bog‘liqdir. Ular (paritet printsipidan tashqari) ta’lim mazmunini qurishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va paritet printsipi o‘quv jarayonida modulli yondashuvni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan yangi sharoitlarda o‘qituvchi va talabaning o‘zaro ta’sirini tavsiflaydi. . Bu tamoyillarning barchasi umumiy didaktik tamoyillarga asoslanadi va ular bilan o‘zaro bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, modulli yondashuvning maqsadi- axborotni o‘zlashtirish, idrok etilgan axborotni mustaqil tahlil qilish, o‘z mustaqil fikrlarini bildirishni taqozo etuvchi va qisqa muddatda optimal usullar yordamida belgilangan maqsadlarga erishishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rashidov H.F. va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” blokini o‘qitish metodikasi. /O‘quv-uslubiy qo‘llanma (Malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari uchun). –T.: O‘MKHTTKMO va UQTI, 2007. – 200 b.
2. Nishonova S., Hoshimov K. Pedagogika tarixi. 2006. – 297 b. 5. A. Abduqodirov, A. Pardayev. Masofali o b.
3. Абдукодиров А. Теория и практика интенсификация подготовки учителей физико математических дисциплин.
4. Агафонова А.С. Практикум по общей педагогике. Учебное пособие для вузов. Питер, 2003 – 416 с. 8. Farberman B.L. Progressivn
5. Xodiev B.Yu.Sposobi sredstva organizatsii samostoyatelnoy uchebnoy deyatelnosti/ B.Yu. Xodiev, L.V. Golish, D.P. Xashimova; Min Sentr innovatsionnykh obrazovatelnix texnologiy. 115 s: il..-(Innovatsionn 10. Tolipov O‘. Q. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.
6. <https://journal.buxdu.uz>
7. <https://articlekz.com>

BLOKCHAIN TEXNOLOGIYASI: BANKLAR VA IQTISODIYOTI UCHUN YANGI QULAYLIKLAR

Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna,

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

dilyuldasheva83@gmail.com

Mahmudova Oydin Nishon qizi

Iqtisodiyot fakulteti 1 kurs talabasi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ANNOTATSIYA

Blokcheyn texnologiyasi, xavfsizlik, transparensiya va ishonchlilikka ega bo'lish tizimini yaratadi. Bu platformalar banklar uchun moliyaviy transaksiyalarni amaldagi shaffoflik va ishonchlilik bilan bajarish imkonini yaratadi. Smart-kontraktlar yordamida tranzaksiyalar avtomatlashadi va xususiy shartlarga asosan ishlaydi. Bu maqsadlar uchun, banklar blokcheyn texnologiyasidan kuchli foydalanish orqali, qoldiq vaqt va moliyaviy resurslarni tejankor foydalanishga imkon yaratishadi.

Kalit so'zlar: blokcheyn, intellektual, muhofaza, obyektlar, transaksiya, xavfsizlik, banklar va iqtisodiyot;

KIRISH

Bugungi kunda blokcheyn texnologiyalari yangi inovatsion texnologiya yo'nalishi bo'lishiga qaramasdan bir qator ijtimoiy sohalarga kirib borib, o'z o'rnini egallagan. Insonlarning intellektual ijodi mahsuli yaratilishining jadallashishi bilan bir qatorda, ulardan foydalanish, muhofazasini ta'minlash masalasi ham dolzarblashib bormoqda. Qolaversa, internet tarmog'ining jamiyatimiz hayotida kirib kelishining takomillashishi oqibatida ma'lumotlar olish, axborot almashish hamda mulkka bo'lgan huquqlarning ruxsatsiz foydalanish ham oshib bormoqda. Ushbu holatda yaratilayotgan intellektual mulk obyektlarini shaffof, ishonchli himoyasini tashkillashtiruvchi texnologiyalarga talab ortib bormoqda. Sababi, intellektual mulk obyektlaridan foydalanishda, ularni fuqarolik huquqiy munosabatlar muomalasiga tatbiq etishda, ularning muhofazasi, nazorati va himoyasini ta'minlashda bir qator texnik usullarni amalda qo'llanilishi bugungi kunda barchamizga ma'lum. Hozirgi kun jamiyatining yashash sharoitlarini yengillashtirish vositasi sifatida qaralayotgan internet tarmog'i o'z o'rnida, intellektual mulk siyosatida yaratilgan obyektlarni muhofazasini ta'minlashda ishonchlilik nuqtai nazaridan emas, balki, ularning muhofazasini buzilishiga sababchi bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin.

Shu o'rinda, jamiyatimizning ijtimoiy munosabatlarining barcha sohalarini axborotlashtirish dolzarbdir. Har bir jamiyat va davlatning rivojlanishi uchun raqamli

texnologiyalarning ahamiyatini oshirmog‘imiz, uning jamiyatimizning barcha jabhalariga kirib borishini ta‘minlashimiz darkor. Barcha ma‘lumotlarni saqlashning eng qulay usuli – bu uni taqsimlab qayd etishdir. Taqsimlangan ma‘lumotlarning reyestri sifatida, bugungi kunda blokcheyn texnologiyasi namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, blokcheyn tushunchasiga, uning kelib chiqish doirasiga aniqlik kiritadigan bo‘lsak, ushbu tushuncha borasida, bir qator ta‘riflar mavjud bo‘lib, ularga birma-bir to‘xtalib o‘tsak. Avvalambor, “blokcheyn” so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “blokklar zanjiri” ma‘nosini anglatadi. Boshqa bir adabiyotda keltirilgan ta‘rifga asosan, “Blokcheyn – bu markazlashtirilmagan ma‘lumotlar bazasi bo‘lib, u o‘zida undan ro‘yxatdan o‘tgan barcha ishtirokchilar ma‘lumotlari (o‘tkazmalari) haqida ma‘lumotlarni alohida “zanjir” shaklida saqlash imkonini beradi”. Angliya bankining fikricha, “blokcheyn – bu bir-birini bilmaydigan insonlarga ishonchli tarzda va birgalikda foydalanish imkonini beradigan texnologiyadir”. Bir so‘z bilan aytganda, Blokcheyn – ma‘lum qoidalar asosida tuzilgan ma‘lumotni o‘z ichiga olgan bloklarning doimiy ketma-ket zanjiridir.

ASOSIY QISM

- Harflar va ularning elementlarini bajarishda gorizontaal va vertikal bo'yicha harakatlarning joylashuvi (yuqorida, pastda, xat chizig'ida) va boshqalar.

O'zgartirilgan yozuv (dastxat) orqali sodir etilyaotgan g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etilish darajasi ko'rsatkichlarining joriy yillarda keskin oshib ketayotganligi holatlarini inobatga olgan holda xatshunoslik ekspertizasida alohida ahamiyatga ega bo'lgan *o'zgartirilgan xatni tadqiq qilishning* zamonaviy tadqiqotlarini ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiqdir.

Dastxatni o'zgartirishning ikki shakli mavjud bo'lib, ular dastxatning tabiiy o'zgarishi va dastxatning atayin o'zgartirilgan dastxat hisoblanadi.

1) Dastxatni tabiiy buzuvchi bir qancha omillar bo'lib, ularga:

- Xatning g'ayriodatiy tashqi sharoiti (o'zgartirilgan holat, o'ziga xos bo'lmagan yozuv quroli, yetarli bo'lmagan yoritilganlik);
- Yozuvchini ichki holati (bosh-miya jarohatlari, funksional holati-toliqish, tormozlanish, ko'rish qobiliyatini yetishmasligi va b.);
- Yozuvchining o'z dastxatini o'zgartirish xohishi bilan bog'liq bo'lmagan g'ayriodatiy yo'l tutishi (xafsala, sekin yoki tez yozuvli xat)

2) Dastxatni atayin o'zgartirilishi – xatning atayin o'zgartirilishi yozuvchida mavjud bo'lgan yozma harakat ko'nikmasining o'zgarishi bilan bog'liq. Yozuvdagi harakatlarni stereotipligini aniqlovchi ko'nikma tizimi butunlay buzilmaydi va oxirgisi saqlanib qoladi. Atayin o'zgartirilgan dastxat bilan bajarilgan qo'lyozmalarda alomatlarining ikki nguruhi aks ettiriladi – stereotip harakatlarning buzilishi natijasida paydo bo'lgan “o'zgargan” va yozuvchining oddiy dastxatiga xos “o'zgarmagan”. Xat atayi o'zgartrilganda, yozuvchi dastxatning umumiy va muayyan xususiy alomatlarini o'zgartiradi. Shuningdek, ba'zan yozma nutqning stilistik, leksik, grammatik alomatlar ham atayin o'zgartirilishi mumkin.

O'zgartirilgan dastxat bilan bajarilgan xatda matnning boshlang'ich qismiga nisbatan keying qismlari tezroq bajarilishini ekspert hisobga olishi kerak. Bunday alomat juda ham ahamiyatli, chunki o'zgartirilmagan dastxatda u uchramaydi. Dastxatning alohida xususiy alomatlarini o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Ko'proq buzilishlar quyidagi harflarda kuzatiladi:

- “b”, “d”, “j”, “m”, “x” harflarida;
- “j”, “l”, “m”, “i” harflardagi elementlarni bog'lashdagi harakatlarning shakli;
- “b”, “d”, “r”, “sh”, harflaridagi elementlarning boshlang'ich qismlarini bajarishdagi harakatlarning shakli.

Atayin o'zgartirilgan dastxat bilan bajarilgan qo'lyozmalar tadqiqotida ekspert, avvalambor, yozuvchi o'z dastxatini o'zgartirganini aniqlaydi, ya'ni qo'lyozmaning g'ayriodatiy shart-sharoitlarda bajarilganligini o'rganadi. Dastlab bu savolni ekspert

hujjatni ko'zdan kechirganda va alohida tadqiqotlarning boshida hal qiladi. Dastxatning umumiy alomatlariga e'tibor qilganda, alohida harakatlarning koordinatsoiyasi va bajarish sur'ati, avtomatlashgan harakatlar bilan bajarilgan qo'lyozmaning alohida qismlari aniqlanishi va o'rganilishi kerak. Shu bilan birga, avtomatlashgan harakatlar bilan bajarilgan lavxalar qo'lyozmada takrorlanishi lozim. Faqat bu holatda ekspert haiqiqiy ishlov darajasi va yozuvchining umuman dastxati to'g'risida to'g'ri xulosa qilish mumkin.

Buzilish usulidan qat'i nazar, atayin o'zgartirilgan dastxatlar uchun quyidagilar xosdir:

1) Butun hujjatda u yoki bu alomatga sun'iy kiritilgan o'zgartirishlar qatorida oddiy dastxatga xos bo'lgan variantlar. Yozuvchi quyidagi holda o'zini oddiy dastxatiga qaytadi: agar yozuvchi xatni yozuviga e'tibor berib grafik ustidan nazoratni yo'qotsa, hujjatni hajmi katta bo'lgani sabab, toliqish sabab va b;

2) Sun'iy ravishda kiritilgan variantlar tabiilaridan, ularda qo'shib chizib qo'yishlar mavjudligi, ishonchsiz harakat alomatlari, yozuv qurolining to'xtab qolishi, qo'shimcha chizib qo'yishlar va analogik sekinlashuvlar;

3) Kopincha sun'iy ravishda kiritilgan harflarning variantlari o'zining grafiikasi bo'yicha o'zgarmagan harflardan farqlanadi. Ba'zan buzilgan harflardagi satr pastidagi elementlarning tabiiy bo'lmagan chizilib ketishi va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Forensic Handwriting Examination and Human Factors: Improving the Practice Through a Systems Approach (*The Report of the Expert Working Group for Human Factors in Handwriting Examination 2020* Fevral);
2. Xatshunoslik ekspertizasi ma'ruzalar kursi (mas'ul moharrir yuridik fanlar nomzodi, dotsent T.B.Mamatqulov);
3. Xatshunoslik ekspertizasi (SH.Komilov, R.Maxmudov, Sh.Hasanov *Toshkent 2003*);
4. Kriminalistika darslik;
5. "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonun 1.06.2010 y. 250-sonli O'RQ;
6. Jinoyat-protsessual kodeksi.

INTERNET SAYTLARI

1. <http://akadmvd.uz> (Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси)
2. [http:// www.academy.uz](http://www.academy.uz) (Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси)
3. [http:// www.nuu.uz](http://www.nuu.uz) (Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети)
4. [http:// www.tuit.uz](http://www.tuit.uz) (Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот - технологиялари университети)
5. <http://195.158.18.42/> (Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси миллий нашрларнинг электрон архиви)

ENERGIYANING BIR TURDAN IKKINCHI TURGA AYLANISHI

Aziza Muhammadova Naim qizi
Vobkent tuman 1-son kasb-hunar maktabi
Fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Energiyani bir turdan ikkinchisiga aylantirish koinotimizdagi energiya harakatini boshqaradigan asosiy printsiptir. Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra, energiya yaratilishi ham, yo'q qilinishi ham mumkin emas, faqat bir shakldan ikkinchisiga aylanadi. Energiyani aylanish jarayoni son-sanoqsiz tabiiy hodisalar, texnologik ilovalar va kundalik vazifalar uchun ajralmas hisoblanadi. Energiya turli shakllarda, jumladan kinetik, potentsial, issiqlik, kimyoviy va elektromagnit energiyada mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyat va xususiyatlarga ega. Mexanik ish, issiqlik uzatish, kimyoviy reaksiyalar va elektr jarayonlari kabi energiyani aylantirish mexanizmlari orqali energiya o'zining umumiy miqdorini saqlab, bir shakldan ikkinchisiga o'tkazilishi mumkin. Energiyaning bir turdan ikkinchisiga aylanishini tushunish fizika, muhandislik, ekologiya fanlari va barqaror energiya texnologiyalari kabi sohalarni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Ushbu maqolada energiyani konvertatsiya qilish tamoyillaridan foydalangan holda biz energiyadan foydalanishni optimallashtirish, samarali tizimlarni loyihalash va global energiya muammolarini hal qilish uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiqishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: energiya, kinetik energiya, mexanik energiya, potentsial energiya, elektr, volt.

Energiya— har qanday ko'rinishdagi materiya, xususan, jism yoki jismlar tizimini tashkil etuvchi zarralar harakatining hamda bu zarralarning o'zaro va boshqalar zarralar bilan ta'sirlarining miqdoriy o'lchovi. Xalqaro birliklar tizimida energiya xuddi ish kabi joulda; atom fizikasi, yadro fizikasi va elementar zarralar fizikasida esa elektronvolt on o'lchanadi. Energiya yo'qdan bor bo'lmaydi va mavjud energiya yo'qolmaydi, faqat u bir turdan ikkinchi turga o'tadi. Fizika materiya o'zaro bog'langan modda va maydon shaklida o'rganiladi. Materiyaning harakatlariga mos holda energiya shartli ravishda mexanik, ichki, elektromagnit, kimyoviy va boshqalar turlarga ajratib tekshiriladi. Masalan, kimyoviy energiya elektronlarning kinetik energiyasi hamda elektronlarning bir-biri va atom yadrolari bilan o'zaro ta'sirlari natijasida vujudga kelgan energiyalar yig'indisiga teng. Muayyan tizimning holatini ifodalovchi parametrlarga bog'liq bo'lib, tizimning har bir holatiga aniq bir energiya qiymati to'g'ri keladi. Tizimlashning istalgan holatidagi energiya qiymati tizim bu holatga qanday usul bilan kelganligiga bog'liq emas. Binobarin, energiya tizim

holatining funksiyasidir. Tutash muhit yoki maydon uchun energiya zichligi va energiya oqimi tushunchalari qoʻllaniladi. Birlik hajmdagi energiya energiya zichligi va energiya zichligining uning tarqalish tezligiga koʻpaytmasiga teng kattalik esa energiya oqimi deb ataladi. Tartibsiz harakatlanuvchi juda koʻp zarralardan iborat tizimlarning, yaʼni makroskopik jismlarning oʻzaro taʼsirida issiqlik miqdori muhim rol oʻynaydi. Tizimning mexanik harakatlanishi uchun tashqi kinetik energiyasini, boshqa tizimlar bilan maydonlarning oʻzaro taʼsiri tashqi potensial energiyasini hosil qiladi. Tizimning tashqi energiyasi tashqi kinetik va tashqi potensial energiyalari yigʻindisiga teng. Makroskopik harakatsiz, boshqa tizimlar va maydonlar bilan oʻzaro taʼsir qilmagan tizim energiyasi uning ichki energiyasi boʻladi. Tizimning har qanday holatidagi ichki energiyasi aniq qiymatga ega, yaʼni ichki energiya holat funksiyasidir. Tizimni tashkil qilgan atomlar va molekulalarning energiyalari, ular tarkibidagi elektronlar, yadrolarning oʻzaro taʼsir energiyalari va h.k. ichki energiya tarkibiga kiradi.

Agar biror-bir jism harakatlanayotgan boʻlsa, oʻsha jism bilan bogʻliq holda energiya mavjud boʻladi. Nima uchun bunday boʻlishi kerak? Harakatlanuvchi narsalar oʻzgarishga sabab boʻlishi yoki, boshqacha aytganda, biror-bir ishni bajarishi mumkin. Masalan, vayron qiluvchi toʻp (taran) haqida oʻylang. Hatto sekin harakatlanadigan vayron qiluvchi toʻp boshqa bir jismga, misol uchun, boʻsh uyga juda koʻp zarar yetkazishi mumkin. Biroq vayron qiluvchi toʻp harakatsiz boʻlganda hech qanday ish bajarmaydi (yoki biror-bir uyga borib urilmaydi).

Jismning harakati bilan bogʻliq energiya kinetik energiya deb ataladi. Otilgan oʻq, yurayotgan odam va yorugʻlik kabi elektromagnit nurlanishlar — bularning barchasi kinetik energiyaga ega. Kinetik energiyaga yana bir misol atom yoki molekulalarning doimiy va tasodifiy harakatlanishi bilan bogʻliq energiya hisoblanadi. Bu issiqlik energiyasi deb ham ataladi, issiqlik energiyasi qanchalik katta boʻlsa, atomlar harakatining kinetik energiyasi ham shuncha katta boʻladi. Bir guruh molekulalarning oʻrtacha issiqlik energiyasini harorat deb ataymiz, shuningdek, issiqlik energiyasi ikkita jism oʻrtasida uzatilganda issiqlik deb nomlanadi. Yana vayron qiluvchi toʻp misoliga qaytamiz. Harakatsiz vayron qiluvchi toʻp hech qanday kinetik energiyaga ega emas. Biroq toʻp kran bilan ikki qavat yuqoriga koʻtarilib, biror-bir mashinaning tepasida tutib turilsa, nima sodir boʻladi? Ushbu vaziyatda vayron qiluvchi toʻp harakatlanmayapti, lekin aslida u bilan bogʻliq energiya hali ham mavjud. Yuqorida koʻtarilib turgan vayron qiluvchi toʻpning energiyasi ishni bajarish potensialini aks ettiradi. Agar vayron qiluvchi toʻp qoʻyib yuborilsa, ish bajariladi, yaʼni kimningdir mashinasi pachoq boʻladi. Toʻp qanchalik ogʻir boʻlsa, u bilan bogʻliq energiya ham koʻproq boʻladi. Bu turdagi energiya potensial energiya deb nomlanadi va bu jismning joylashuvi yoki strukturasi bogʻliq boʻlgan energiyadir. Misol uchun, biror-bir molekulaning kimyoviy bogʻlaridagi energiyasi molekulaning strukturasi va undagi

atomlarning bir-biriga nisbatan joylashuviga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, kimyoviy energiya kimyoviy bog'larda saqlanadigan energiya bo'lib, potensial energiya hisoblanadi. Potensial energiyaga kundalik misol sifatida to'g'on ortidagi suvning energiyasini yoki samolyotdan chiqib, parashyutda parvoz qilish arafasidagi odamning energiyasini keltirsak bo'ladi.

Energiyaning bir turdan ikkinchisiga aylanishi koinot faoliyatining asosini tashkil etuvchi asosiy jarayondir. Energiyani yaratish yoki yo'q qilish mumkin emas, lekin u bir shakldan ikkinchisiga o'zgarishi mumkin. Bu printsip energianing saqlanish qonuni sifatida tanilgan, fizikaning asosi bo'lib, yopiq tizimdagi umumiy energiya vaqt o'tishi bilan doimiy bo'lib qoladi.

Energiya turli shakllarda, masalan, kinetik energiya (harakat energiyasi), potensial energiya (to'plangan energiya), issiqlik energiyasi (issiqlik), kimyoviy energiya (kimyoviy bog'larda saqlanadigan energiya) va boshqalarda mavjud. Energiya konversiyaga uchraganda, u ushbu shakllarning biridan ikkinchisiga o'tadi, tizimdagi energianing umumiy miqdori bir xil bo'lib qoladi. Misol uchun, elektr isitgichni ulaganingizda, quvvat manbaidan keladigan elektr energiyasi issiqlik energiyasiga aylanadi, bu esa atrofdagi muhitni isitadi. Xuddi shunday, gidroelektrostantsiyada suv omborida to'plangan suvning potensial energiyasi turbinaga o'tayotganda kinetik energiyaga aylanadi, keyin esa uni elektr energiyasiga aylantiradi. Bular bizning dunyomizni quvvatlantirish uchun energiya doimiy ravishda bir shakldan ikkinchisiga aylantirilishining bir nechta misolidir. Energiyani bir turdan ikkinchisiga o'tkazishni tushunish qayta tiklanadigan energiya texnologiyalaridan tortib smartfon va avtomobillar kabi kundalik qurilmalargacha bo'lgan turli ilovalar uchun juda muhimdir. Energiyaning ushbu o'zgaruvchan kuchidan foydalangan holda, olimlar va muhandislar jamiyatning o'sib borayotgan energiya ehtiyojlarini qondirish va atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirish uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiqishlari mumkin. Aslini olganda, energianing bir turdan ikkinchisiga aylanishi koinot dinamikasini boshqaradigan ajoyib jarayondir. U energianing turli shakllarining o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi va kelajak avlodlar uchun barqaror kelajakni shakllantirishda energiyadan samarali foydalanish muhimligini ta'kidlaydi.

Xulosa:

Energiyani bir turdan ikkinchi turga aylantirish energianing saqlanish qonuniga asoslangan asosiy tushunchadir. Bu qonun energiyani yaratish yoki yo'q qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi; balki u faqat bir shakldan ikkinchisiga o'zgarishi mumkin. Energiya kinetik, potensial, issiqlik, kimyoviy va elektromagnit energiya kabi ko'p shakllarda mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos xususiyat va xususiyatlarga ega. Tabiat hodisalari va inson tomonidan yaratilgan jarayonlar davomida energiya doimo bir shakldan ikkinchisiga aylanadi. Energiyaning bu konvertatsiyasi mexanik ish, issiqlik uzatish, kimyoviy reaksiyalar va elektr jarayonlari kabi turli mexanizmlar

orqali sodir bo'ladi. Ushbu energiya konvertatsiya jarayonlarini tushunish va ulardan foydalanish fizika, muhandislik, ekologiya fanlari va barqaror energiya texnologiyalari kabi sohalardagi yutuqlar uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.X. Avliyoqulov. Zamonaviy o'qitishning texnologiyalari. -Buxoro: "Matbaa" 2001 y.
2. A.V. Pyorishkin. Fizika o'qitish metodikasi asoslari. -T.: O'qituvchi. 1990. 320-b.
3. Б.Р. Андрусенко. От эксперимента к эмпирическим формулам. -М.: Учпедгиз.
4. Р.Б. Бекжонов. Физика. -Т.: 1995 й.
5. www.ziyonet.uz

НЕПОЛНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В РАЗНЫХ СТИЛЯХ РЕЧИ

Дилноза Садиева Хайрулло кизи

Учитель русского языка ПТУ №1 Вобкентского района

Аннотация: В этой статье мы исследуем нюансы неполных предложений в разных стилях речи, как их можно использовать для создания чувства неуверенности, усиления напряжения или передачи глубоких эмоций в словесных выражениях. Подчеркивая роль неполных предложений в формальном, неформальном, художественном и публицистическом стилях речи, мы стремимся раскрыть артистизм и универсальность использования частичных выражений для эффективной передачи идей, чувств и историй. Благодаря этому исследованию мы стремимся раскрыть сложные способы формирования неполных предложений и улучшения общения, предлагая читателям оценить силу языковой краткости и внушения в нашем повседневном взаимодействии.

Ключевые слова: Язык, речь, тон, общение, стили речи, мысль, художественный стиль речи.

Язык — это динамичный и универсальный инструмент, который позволяет людям выражать себя с помощью различных стилей речи, включая неполные предложения. Неполные предложения, характеризующиеся отсутствием подлежащего, глагола или законченной идеи, можно встретить в различных формах общения, каждая из которых имеет свой тон и акцент на передаваемом сообщении. Неполные предложения играют важную роль в создании интересной и эффективной речи в различных контекстах: от создания напряжения в рассказе до вызова эмоций в поэзии. Язык — это универсальное средство общения, позволяющее людям передавать мысли, чувства и идеи разнообразие стилей речи. Одним из наиболее важных аспектов эффективного общения является использование полных предложений, которые придают структуру, ясность и связность нашим устным выражениям. Полные предложения играют решающую роль в разных стилях речи, от формального до неформального контекста, каждый из которых имеет свои языковые особенности и условности. В этой статье мы рассмотрим важность полных предложений в разных стилях речи к ясности и эффективности общения в различных условиях. От официальных презентаций до случайных разговоров — полные предложения позволяют говорящим ясно выражать свои мысли и точно передавать смысл. Изучая роль полных предложений в разных стилях речи, мы пытаемся осветить нюансы использования языка и различные способы, которыми грамматические структуры формируют общение.

Официальный стиль речи:

В формальных стилях речи, таких как академические лекции, деловые презентации или официальные обращения, полные предложения играют важную роль в передаче сложных идей и поддержании профессионализма. Полные предложения в официальной речи характеризуются грамматической точностью, логической последовательностью, соблюдением стандартных правил синтаксиса и пунктуации. В формальной обстановке ораторы полагаются на полные предложения, чтобы выразить свои аргументы, представить свои аргументы и привлечь аудиторию в структурированной и организованной форме.

Неформальный стиль речи:

Напротив, в неформальных стилях речи, таких как случайные разговоры, истории или повседневное общение, полные предложения могут проявлять большую гибкость и неформальность. Хотя полные предложения по-прежнему важны для ясности и связности в неформальном общении, говорящие используют разговорные фразы, фрагменты или свободную грамматику, чтобы создать разговорный тон и, по возможности, установить чувство взаимопонимания со своими собеседниками. В неформальных стилях речи полные предложения служат для передачи чувств, обмена личным опытом и участия в спонтанном диалоге с другими людьми.

Стиль художественной речи:

В художественных стилях речи, таких как поэзия, литература или творческое письмо, полные предложения поэтичны и выразительны, часто наполнены метафорическими образами, ритмическими узорами и символическими значениями. Полные предложения в художественной речи служат для пробуждения эмоций, создания ярких душевных переживаний, приглашают читателей или слушателей в мир воображения и творчества. Художники используют силу полных предложений, чтобы создавать захватывающие истории, передавать глубокие идеи и очаровывать аудиторию красотой и красноречием языка.

Журналистский стиль речи:

В стилях журналистского дискурса, таких как новостные статьи, тематические статьи или интервью, полные предложения поддерживают принципы точности, объективности и краткости. Журналистское письмо опирается на полные предложения, чтобы передать фактическую информацию, представить различные точки зрения и привлечь читателей ясным и связным повествованием. Полные предложения в журналистской речи служат для передачи новостей, анализа событий, точного и профессионального взгляда на текущие события.

Резюме.

Таким образом, полные предложения играют решающую роль в различных стилях речи и служат строительными блоками общения, которые позволяют людям эффективно выражать свои мысли и взаимодействовать с другими в различных контекстах. Будь то формальная, неформальная, художественная или журналистская обстановка, полные предложения обеспечивают структуру, связность и ясность наших устных высказываний, увеличивая глубину и воздействие нашего общения. Понимая нюансы полных предложений в разных стилях речи, мы можем использовать силу языка, чтобы общаться с другими, точно передавать смысл и обогащать наши отношения посредством искусства эффективного общения.

Использованная литература:

1. Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Т.: Fan, 1985.
2. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высш.школа, 1987.
3. Жуманиезов О. Овладение германскими языками узбекским языком. - Т.: Наука, 1987.
4. Искандаров Ш. Изучение лексики узбекского языка как смыслового поля (личностного микрополя). Доктор дисс.... автореф. - Ташкент, 1999.
5. Искандаров Ш. Полевой подход к языковым системам. - Т.: Наука, 2007.

ИНДИВИДУАЛЬНО-ОБРАЗНАЯ СЕМАНТИКА МНОГОЗНАЧНОГО СЛОВА

Дилноза Садиева Хайрулло кизи

Учитель русского языка ПТУ №1 Вобкентского района

Аннотация: В этой статье мы отправляемся в путешествие по разгадке сложностей индивидуально-образной семантики внутри многозначных слов. Посредством углубленного изучения нюансов значений и метафорических расширений слов мы стремимся осветить глубокое влияние индивидуально-образной семантики на понимание, выражение и общение языка. Посредством серии лингвистических исследований и тематических исследований мы стремимся пролить свет на тонкости того, как слова могут охватывать несколько слоев значения, выходить за пределы их буквального значения и вызывать яркие мысленные образы и эмоциональные реакции.

Ключевые слова: многозначные слова, значение, слово, интерпретация, семантика, лингвистика.

Язык служит сложной системой символов и значений, которые позволяют передавать мысли, чувства и идеи как основной аспект человеческого общения. В этом сложном переплетении слов полисемия предстает как увлекательное явление, которое придает языковому выражению глубину и универсальность. Под полисемией понимается способность одного слова иметь несколько взаимосвязанных значений, допускающих слои интерпретации и нюансы в лексической единице. Разнообразные аспекты полисемии. Среди них интересными аспектами изучения языка являются индивидуально-образная семантика многозначных слов. Этот подмножество многозначности попадает в область переносного значения, где слова используются для того, чтобы вызвать абстрактные понятия, чувства, а образы в их буквальном значении превосходят подводные камни. Взаимодействие между личными интерпретациями и образными ассоциациями наполняет многозначные слова богатыми смысловыми слоями и предлагает говорящим ориентироваться в сложной сети семантических возможностей. Исследуя взаимодействие отдельных интерпретаций и образных ассоциаций в рамках этой структуры, мы раскрываем динамическую природу многозначных слов язык и сила слов для передачи абстрактных концепций и сложных идей. Благодаря этому исследованию мы надеемся углубить наше понимание роли индивидуально-образной семантики в обогащении языкового выражения, развитии творческих способностей и повышении тонкостей общения.

Присоединяйтесь к нам в этом научном путешествии, когда мы исследуем увлекательную территорию индивидуально-образной семантики в рамках полисемии и раскрываем скрытые сокровища языковых значений и интерпретаций обнаруженный. В основе этой сложности лежат многозначные слова, лингвистические жемчужины, выражающие множество значений в одной лексической единице. Среди этих многозначных сокровищ индивидуально-образная семантика слов выделяется как привлекательный аспект изучения языка. В этой статье мы отправляемся в путешествие в глубь индивидуально-образной семантики, распутывая сложное смысловое полотно, сотканное внутри многозначных слов.

Полисемия, явление, при котором одно слово имеет несколько связанных значений, представляет собой богатую область для лингвистического анализа. В этой области индивидуально-образная семантика возникает как уникальное подмножество, позволяющее понять, как слова выходят за рамки буквальных интерпретаций, создавая тонкие и образные ассоциации. В отличие от омонимии, где разные слова имеют одинаковую форму, но несвязанные значения, полисемия означает переплетение смысловых нитей внутри одного слова, обогащающее язык за счет зимы. В основе индивидуально-образной семантики лежит сложный танец между буквальными значениями и метафорическими значениями. Слова с индивидуально-переносным значением выходят за рамки своих основных определений и вызывают образы, чувства и абстрактные понятия. Благодаря контексту, использованию и культурным нюансам многозначные слова приобретают важные слои, позволяя говорящим передавать нюансы значения и наполнять свой язык глубиной и богатством. Чтобы проиллюстрировать нюансы индивидуально-образной семантики, давайте посмотрим на несколько многозначных слов, которые являются многозначными охватить языковое явление.

Возьмем, к примеру, слово «свет». В дополнение к своему буквальному значению, связанному с освещением, «свет» также может образно вызывать понятия ясности, просветления или невесомости. Аналогично слово «сердце» выходит за рамки своего анатомического значения, показывая многозначность многозначных слов, выражающих эмоции, любовь, внутренние чувства. Раскрывая индивидуально-образную семантику многозначных слов, мы получаем более глубокое понимание богатства и многозначности языка. Понимание того, как слова несут слои значения, увеличивает нашу способность эффективно общаться, вызывать яркие образы и выражать сложные идеи ясно и тонко. Принимая сложность полисемии, мы обогащаем наше взаимодействие и открываем мир лингвистических возможностей, которые связывают нас через общее полотно языка.

Резюме:

В области языка и семантики изучение отдельных переносных значений в многозначных словах открывает мир сложности и глубины. Снимая слои языковой двусмысленности и исследуя тонкие оттенки значения, присущие словам, мы расширяем нашу способность к выражению, творчеству и связям. Продолжая странствовать по обширному ландшафту языка, давайте сосредоточимся на многогранной природе слов, отмечая красоту и сложность индивидуально-образной семантики как свидетельство богатства человеческого общения.

Использованная литература:

1. Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. – Т.: Fan, 1985.
2. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высш.школа, 1987.
3. Жуманиезов О. Овладение германскими языками узбекским языком. - Т.: Наука, 1987.
4. Искандаров Ш. Изучение лексики узбекского языка как смыслового поля (личностного микрополя). Доктор дисс.... автореф. - Ташкент, 1999.
5. Искандаров Ш. Полевой подход к языковым системам. - Т.: Наука, 2007.

XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA ADABIYOTNING ROLI

Mahmudova Dilfuza Ulug'bek qizi

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) 3-kurs talabasi
Chirchiq davlat Pedagogika universiteti.*

Annotatsiya: Maqolada xorijiy tillarni o'rganishda badiiy adabiyotdan foydalanishning ahamiyati, unga ijodiy (reproduktiv) kompetensiyani shakllantirish omili sifatida qarash masalasi doirasida fikr yuritilgan. Shuningdek, chet tili mashg'ulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishning afzal tomonlari va kamchiliklari to'g'risidagi asos va dalillar nemis pedagog nazariyotchilarining qarashlari bilan taqqoslab o'rganilgan.

Kalit so'zlar: badiiy adabiyot; badiiy matn; autentik matnlar; xorijiy til mashg'ulotlari; interpretatsiya; germevika; retsepsion estetika; reproduktiv kompetensiya; badiiy adabiyotdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari.

Xorijiy tillarni o'qitishda badiiy matndan foydalanish pedagoglardan muayyan nazariy va amaliy jihatdan didaktik bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Badiiy matndan chet tilini o'rganishda foydalanishning tarixi juda uzoq emas. XX asrning 70-yillarida chet til o'rganish didaktikasida chet tilidagi autentik matn, dialog kabilardan foydalanish afzal ko'rilardi. Ko'p vaqt o'tmay, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini o'rganish boshlanishi bilan chet tilini o'qitishda badiiy adabiyotni qo'llash muhim ahamiyat egallay boshladi.

Chet tili mashg'ulotlarida badiiy adabiyotdan foydalanishni chet til o'qitish didaktikasining bo'limi – badiiy adabiyot(dan foydalanish) didaktikasi o'rgana boshladi. Badiiy adabiyot didaktikasi adabiy tahlil, adabiy tanqid va nazariya bilan shug'ullanuvchi adabiyotshunoslik bilan chambarchas bog'liqdir. Adabiy matnlar nafaqat har bir o'quvchi tomonidan, balki chet tilni o'rganuvchilar tomonidan ham muayyan tarzda tushuniladi, tahlil qilinadi. Shu bois adabiy talqin (interpretatsiya) badiiy adabiyot didaktikasi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Adabiy interpretatsiya bilan shug'ullanuvchi asosiy metodlardan biri germevika hisoblanadi. Unga ko'ra, matn interpretatsiyasi matn to'g'risida gepoteza qilish va o'sha gepotezani konkretlashtirishning tuganmas jarayonidir. Germevika o'quvchini ham, balki uning o'zlashtirgan tajriba, ko'nikma hamda egallagan bilimini ham interpretatsiya qilishni maqsad qiladi. O'quvchi matnga ilk (ko'pincha xato) tasavvur, taassub deb nomlanuvchi (2, 13) o'z hayotiy tajribalari va bilimi bilan yondashadi va ular yordamida matn haqida gepoteza tuzadi. Matnni o'qish jarayonida ular matn mazmuni bilan taqqoslanadi, matn yordamida yanada aniqlashadi yoki ba'zan uning o'zgarishiga turtki bo'ladi. Shu tarzda yana yangi gepoteza uyg'onadi, u yana matn bilan to'qnash

keladi va hokazo. Bu interpretatsiyalar jarayoni “germenevtik doira (hermeneutischer Zirkel)” deb ataladi.

Germenevtika bilan bir qatorda chet tilni o‘rganishda badiiy adabiyotdan foydalanishga turtki bo‘lib xizmat qiladigan keyingi sabab – retsepsion (idrok, zehn) estetika turadi. U germenevtikaning keyingi rivojlanish bosqichi sifatida ham qaraladi. Retsepsion estetikaning diqqat markazida matn emas, balki o‘quvchi hamda uning matnni qay darajada idrok etishi, qabul qilishi turadi. Unga ko‘ra adabiy matn mazmunini dastavval o‘quvchi o‘zicha tuzadi, idrok etadi. O‘quvchining (kitobxonning) badiiy matnni qay darajada tushunishi nafaqat uning o‘z tajribasiga, balki uning milliy madaniyatiga ham bog‘liq. Demak, bir matn turli o‘quvchilar tomonidan turlicha idrok etilishi mumkin, chunki har bir o‘quvchi matnni o‘z individual kechinmalari, tajribasi hamda egallagan bilim-ko‘nikmalaridan kelib chiqib tushunadi. Bundan tashqari, chet tilini o‘rganayotgan o‘quvchi va o‘rganilayotgan til o‘z ona tili bo‘lgan o‘quvchi bir matnni turlicha tushunadi, chunki ular matnga bir xil bo‘lmagan madaniy nuqtai nazardan qaraydilar. Demak, retsepsion estetika chet til o‘rganuvchisi tomonidan adabiy matnlarni muayyan darajada o‘zgacha tushunilishini nazarda tutadi.

Elersning ta’kidlashicha, badiiy matnni o‘quvchining o‘z bilim va ko‘nikmalari, kechinma va tajribasi orqali anglashi uni xato va noto‘g‘ri tushunishga sabab bo‘lishi mumkin. Inson o‘z dunyosini matn yordamida shakllantira olmaydi, bu tushunish, anglab yetish emas. “Tushunish, anglash bu – matn mazmunini, undagi ma’lumotlarni o‘zaro bog‘lay olish, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni bir-biriga qo‘sha olish demakdir”. Matnda bu bog‘liqliklar to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilmaydi, balki ularga muayyan yo‘nalish –ko‘rsatmalar beriladi, xolos.

Bir adabiy matnning har xil o‘quvchi tomonidan turlicha talqin qilinishi, tushunilishi, interpretatsiya qilinishi – bu haqiqatdir. Bu esa o‘sha adabiy matnni chet tili mashg‘ulotlarida muhokama qilishga, uning ustida bahs olib borishga, matn interpretatsiyasining yagona yechimini qidirishga sabab bo‘ladi, boshqacha aytganda, undan gapirish – muloqotni keltirib chiqarish omili sifatida foydalanish mumkin.

Demau, badiiy matnni chet tilining reproduktiv kompetensiyalari – gapirish (og‘zaki nutq) va yozish (yozma nutq)ni o‘rgatish jarayonidagi eng maqbul omil sifatida ko‘rish tavsiya etilishi mumkin.

Chet tilini o‘qitishda badiiy adabiyotdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Chet tili darslarida badiiy matnlarni qo‘llash yoki qo‘llamaslik to‘g‘risida bir qancha asoslar mavjud. Xolisona yondashish maqsadida adabiy matnlarni chet tilini o‘qitishdagi nafaqat afzalliklari, balki kamchiliklari haqida ham fikr yuritiladi. Dastavval, adabiy matnlarning boshqa matnlardan farqli tomonlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Badiiy matn deganda qanday matnlar tushuniladi?

Chet tilini o'qitishda matnlardan foydalanmaslikning iloji yo'q, lekin biz qanday matnlardan foydalanashimiz maqsadga muvofiq? – degan savol ham turadi. Javob esa oddiy: qanday matndan foydalanish bu – qo'yilgan maqsadga bog'liq, ya'ni biz nimani o'rganmoqchi ekanligimizga. Har bir matn turi darsda foydalanishda o'zgacha imkoniyatlarni yaratadi. Masalan, muayyan matn turlarida (misol uchun, xat) o'ziga xos lug'at va shakl (Hurmatli...; Hurmat bilan v.b.) uchraydi, demak, xat yozishni o'rganish uchun shu matn turidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Chet tilini o'qitishda foydalanish uchun badiiy va noadabiy (gazetajurnal, dialoglar va boshqalar) matnlar bizning ixtiyorimizda bo'ladi. Badiiy matnlar o'zining estetik-poetik xususiyatlari, milliy-madaniy unsurlarni o'zida aks ettirishi hamda polisemantik xususiyatga egaligi bilan boshqa matnlardan ajralib turadi. Badiiy matnlar orqali o'quvchi (kitobxon) va muallif o'rtasidagi bevosita muloqot amalga oshadi va ular har bir kitobxon tomonidan turli tarzda qabul qilinishi mumkin. Noadabiy matnlar esa buning aksini, ya'ni ular hamma tomonidan bir xil tushuniladi va ularning bir xil interpretatsiya qilinishi talab etiladi.

Badiiy matnlardan chet tili o'rganishda foydalanilayotgan chog'i uchrayotgan kamchiliklari haqida to'xtalganda, shuni aytib o'tish joizki, ular biz so'zsiz – albatta o'qishimiz kerak bo'lgan matnlar emas. Chunki chet elda muayyan maqsadda bo'lgan vaqtlarimizda, hatto kundalik hayotimizda biz ko'proq boshqa matn turlariga, jumladan, transport vositalarida harakatlanish jadvallari, ma'lumotnomalar, taomnomalar, ko'cha yozuvlari, yo'riqnomalar, elektron pochta yoki gazeta-jurnal ma'lumotlariga duch kelamiz, ularni o'qishga ehtiyojmandmiz. Chet tili darslarida ushbu faktlarning ham hisobga olinishi, bunday matn turlaridan mashg'ulotlarda foydalanish zarur.

Badiiy matnlarni tushunish uchun o'quvchilardan chet tilini juda yaxshi bilish talab etiladi, shu sababli ulardan, odatda, endigina chet tilini o'rganayotganlar uchun foydalanish tavsiya etilmaydi. Bunday darajadagi o'quvchilarga qisqa she'riy parchalar, bolalar adabiyotidan foydalanish ba'zan tavsiya etilsa-da, bu kabi badiiy matnni tushunish qiyinroq va murakkabroq deb hisoblanadi. Odatiy tilga qaraganda badiiy matnlar o'z tarkibida kengroq mazmunli lug'at, semantik qochirmalar va istisnolarni qamrab oladi. Vesthoffning fikriga ko'ra, buning uchun o'quvchilarda oldindan ma'lum bir bilim-ko'nikmalarni (ma'lum so'z birikmalari va boshqalarni) shakllantirish kerak. Uning fikricha, badiiy matnni tushunish, uni anglab yetib, undan ma'naviy hordiq olish uchun, avval badiiy adabiyotning odatiy tildan farq qiladigan badiiy vositalarini tushuna olish kerak.

Badiiy matnlardan chet tili mashg'ulotlarida foydalanishning afzalliklari haqida quyidagilarni aytib o'tish joizdir:

Yuqorida tilga olingan badiiy matnlar vujudga keltirishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, kundalik hayotimizda uchraydigan boshqa nobadiiy matn turlaridan

(masalan, transport vositalarida harakatlanish jadvallari, ma'lumotnomalar, taomnomalar, yo'riqnoma va boshqalar) chet tili mashg'ulotlarida foydalanish zaruriyati muhokamasiz talab etilishiga qaramasdan, badiiy adabiyotni chet tili mashg'ulotlarida qo'llash uchun ham yetarli asoslar mavjud.

1. Adabiy matnlarda matnning boshqa turlarida kuzatilmaydigan polisemiya, konnotatsiya, metafora va boshqalar ko'p uchraydi. Bu esa til kompetensiyasi sifatida talab etiladigan tilning estetik sifatini ta'minlaydi.

2. Bundan tashqari, adabiy matnlar orqali tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi milliy-madaniy, geografik, demografik va boshqa ma'lumotlar bevosita o'rganiladi. Boshqacha aytganda, ular yordamida o'sha mamlakat hayot tarziga nazar tashlanadi.

3. Adabiy matnlarni o'qish talabalarning lug'at boyligini mustahkamlash va kengaytirish, shuningdek o'zlari sezmagani tarzda bevosita grammatik bilimlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Kontekst orqali o'rganilgan lug'at va grammatika qoidalarini esda saqlash osonroqdir.

4. Bundan tashqari, adabiy matnlar orqali mashg'ulotlarda umumiy ta'lim-tarbiya berish funksiyasi ham amalga oshiriladi. Ular shaxsiy xususiyatlarning shakllanishi, taraqqiy etishi va albatta, tili o'rganilayotgan mamlakat haqidagi noto'g'ri fikrlarni bartaraf etishga hissa qo'shadi.

5. adabiy matnlar muloqotni amalga oshirish yoki yozish uchun asos, turtki bo'lishi mumkin. Adabiy matnlar boshqa matnlardan o'zlarining ochiqqligi, noaniqligi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ularda bo'sh qoldirilgan fikrlar mavjud, ya'ni vaziyat yoki hodisalar to'liq tasvirlanmaydi, balki faqat muayyan jihatlar yoritiladi hamda "kitobxon (o'quvchi)ga o'z hayotiy tajribasi, o'z qarashlari, milliy-madaniy qadriyatlari orqali uni tushunishga, interpretatsiya qilishga va o'sha bo'shliqlarni o'zicha to'ldirishga imkoniyat qoldiradi".

Demak, badiiy adabiyot o'quvchilarning o'z fikrlarini bildirish (gapirish), muhokama qilish yoki kreativ tarzda yozish kompetensiyalari rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Adabiy matnlarni tanlash mezonlari to'g'risida fikr yuritilganda, qanday adabiy matnlardan chet tilni o'qitishda foydalanish maqsadga muvofiqligi, foydali – samaraliroqligi haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Adabiy matnlardan foydalanishning afzallik tomonlarini ro'yobga chiqarishning birinchi sharti bizning qanday (munosib) adabiy matnni tanlashimizga bog'liqdir. Adabiy matnlarni tanlashda quyidagi mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. O'rganuvchiga (talabaga) moslashish. Matnni tanlashda o'rganuvchining chet tilidagi bilimi, uning yoshi, matn bilan ishlash tajribasi va albatta, uning qiziqishlari e'tiborga olinishi zarur. Talabalarning qiziqishlarini ham qamrab olish maqsadida matnlarni tanlashda ularning o'zlari ishtirok etishiga imkon yaratish kerak, degan

taklifni beradi Riymer. Eng muhimi shuki, matnlarning murakkablik darajasi va mavzusi talabalarga mos bo'lishi kerak.

2. Matn didaktik-metodik funksiyani bajarishi hamda mashg'ulotga qo'yilgan maqsadga mos bo'lishi zarur. Agar matndan foydalanishda muloqot (gapirish kompetensiyasi) yoki yozishni (kompetensiyasini) rivojlantirish maqsad qilib olinsa, matnda ochiq qoldirilgan fikrlar, tugallanmagan gaplar, yechimsiz muammolar, mulohazalar, bahslar mavjud bo'lishi shar va ular to'g'risida o'rganuvchilar o'z qarashlari, mulohazalarini bildirishga majbur bo'lishi, hech bo'lmaganda shunday imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, matn tili o'rganilayotgan mamlakatga xos ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi tavsiya etiladi. Shu bilan birga, matnning qiziqarli hamda interpretatsiya qilish uchun qulay, mazmunga boy bo'lishi talab etiladi.

3. Matnning murakkablik darajasi. Bunda biz ob'ektiv va sub'ektiv murakkablikni farqlashimiz kerak. Sub'ektiv murakkablik deganda, o'rganuvchining shaxsiyati e'tiborga olinadi, ya'ni uning dunyoqarashi, matnlar bilan ishlay olish ko'nikmalari va qiziqishi ahamiyatlidir. Ob'ektiv murakkablik esa, matnning tuzilishi, mazmuni, badiiy qurilishi va shu kabilar nazarda tutadi. Ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

– Matn o'rganuvchining qarashlari, boshqacha aytganda, dunyosidan qancha uzoq bo'lsa, u kitobxonga shuncha ko'p qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli zamonaviy badiiy adabiyotdan foydalanish tavsiya etiladi, chunki bu bugungi kun kitobxonining kundalik hayotiga yaqinroqdir.

– Matn qanchalik odatiy (oddiy) til normasidan yiroq bo'lsa, u shuncha murakkab bo'ladi.

– Mavhum yoritilgan matnlardan ko'ra aniq chizma va tasvirli harakatlarga boy matnlarni tushunish uchun osonroq kechadi.

– Oddiy badiiy syujetlar, murakkab syujetlar nisbatan ancha tushunarli bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Bischof M., Kessling V., Krechel R. Landeskunde und Literaturdidaktik. Fernstudieneinheit 3 (Cultural studies and literary didactics. Distance learning unit 3), Berlin: Langenscheidt, 1999, 288 p.

2. Ehlers S. Lesen als Verstehen: Zum Verstehen fremdsprachlicher literarischer Texte und zu ihrer Didaktik. Fernstudieneinheit 2. (Reading as understanding: for understanding foreign-language literary texts and their didactics. Distance learning unit 2.), Berlin: Langenscheidt, 1992, 13 p.

3. Götz D., Haensch G., Wellmann H. Langenscheidts Großwörterbuch. Deutsch als Fremdsprache. Das neue einsprachige Wörterbuch für Deutschlernende. 5. Aufl., (Langenscheidt's dictionary. German as a foreign language. The new monolingual dictionary for learners of German. 5th edition.), Berlin: Langenscheidt, 1997, 9-98 (78 p.)

4. Heyd G. Aufbauwissen für den Fremdsprachenunterricht (DaF). (Advanced knowledge of foreign language teaching (DaF).), Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1997, 121-122 (121 p.)

МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY ASOSLARI

Sodiqova Sharifa Ikrom qizi

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) 3-kurs talabasi
Chirchiq davlat Pedagogika universiteti.*

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar tomonidan pedagogik jarayonni tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanishning samarali usullari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: mashg'ulot, ta'lim, tadqiqot, innovatsiya, interaktiv, refleksiya, enerjayer.

So'nggi yillardagi ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yangilashga e'tibor berish, maktabgacha ta'limga oid innovatsiyalarni izlash, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kiritib borishda malaka oshirish tizimining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, pedagogik jarayonga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsiyalarni joriy etish, o'qituvchi va tarbiyachilarni zamonaviy usullardan foydalanish, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish malaka oshirish tizimi oldiga qo'yilgan vazifalar zahirida amalga oshirilmoqda.

Pedagogika yo'nalishida tatbiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masala borki, u ham bo'lsa tarbiyachilarning pedagogik jarayonni zamonaviy usullar asosida maqsadli, tizimli va natijalarni bashorat qila olish orqali metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishlarini ta'minlashdir. Interfaol usullar hozirgi kunda ta'lim islohotlaridagi ustuvor jihati va pedagogik muammolarni hal etishdagi roli, ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan ekanligini e'tirof etish joizdir. Pedagogik texnologiya nazariyasining muhim jihati har bir pedagogning o'z imkoniyati darajasida, shuningdek, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'quv faolligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalana olish bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda dunyo psixologlari ta'kidlaganidek, «indigo»¹ bolalar dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni kattalardanda tez sezmoqdalar. Shuning uchun bugungi kun tarbiyachilari oldida bir qator dolzarb vazifalar turibdi. Shulardan biri ta'lim jarayonida interaktiv usullardan foydalanishdir. «MTM tarbiyachilari qaysi interaktiv usullardan qanday foydalana oladi?» degan haqli savol tug'iladi.

«...Pedagog bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimga ega bo'lishi kerak»². Tarbiyachilarni interaktiv usullardan oqilona, maqsad va sharoitga muvofiq tarzda didaktik tamoyillarga asoslangan holda foydalanishga o'rgatish bugungi kunda zamonaviy pedagogikaning muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

MTM tarbiyachilari o'z faoliyatlariga zamonaviy usullarni maktabgacha ta'limga oid ilmiy maqolalar, risolalar, mahalliy ilg'or tajribalarni o'rganish orqali tatbiq etib kelmoqdalar. Ba'zan, interaktiv usullarning mohiyati va maqsadini to'liq anglamagan holda qo'llamoqdalar. Shuning uchun malaka oshirish jarayonining o'zida interaktiv

o'quv muhiti yaratilib, tarbiyachilar uning bevosita ishtirokchisiga aylansalar, ya'ni har bir interfaol usulni bevosita o'zlaridan o'tkazib o'zlashtirsalar, ushbu usullarni maktabgacha ta'limga moslashtirib, amaliyotga tatbiq etishlari shunchalik oson va qulay kechadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida interaktiv usullardan «Aqliy hujum», «Rolli o'yin», «Kichik guruhlarda ishlash», «Bahs-munozara», «Galereyaga sayr», «Klaster», «Bumerang», «Enerjayerlar»dan foydalanish mumkin. Tarbiyachi mashg'ulot o'tkazish jarayonida mashg'ulotning boshi va oxirida mavzu yuzasidan bolalarning tushunchalarini aniqlash hamda olgan bilimlarini mustahkamlash uchun aqliy hujum usulidan foydalanishi maqsadga muvofiq. «Kichik guruhlarda ishlash» bolalarning o'zaro muloqot va fikr almashuviga asoslanadi. Bunda guruhda tahlil qilish, tekshirish asosida berilgan mavzu ishlab chiqiladi. «Rolli o'yinlar»da bolalarga biror muammoli vaziyat beriladi. Bolalar bu metod yordamida real hayot holatlarini jonlantiradilar. Bahs-munozara metodida bolalarga bir kun oldin mavzu beriladi. Bolalar savollarga ota-onalaridan so'rab javob topib keladilar hamda berilgan savollarga javoblar «bahsmunozara» asosida olib boriladi.

Hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar bor bo'lsada, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglarida texnologiyani metodikadan farqlay olmaslik kabi muammolar uchraydi. Vaholanki, ular orasida jiddiy farqlar mavjud bo'lib, quyida ular haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.

Pedagogik texnologiya – bolani mustaqil ijod qilish, bilim olish, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Metodika – pedagogning bilimi, ko'nikmasi, mahorati, shaxsiy sifatlari, temperamentiga bog'liq bo'lib, ma'lum shaxs, pedagog uchun qulay bo'lgan o'qitish usullari va yo'llari majmuidir. U alohida metodikalarga ajratiladi. Pedagogika fani ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana bilish talab etiladi. Ular orasidagi farqlar 1-jadvalda keltirilgan. «Pedagogik texnologiya» tushunchasi xususiy fanlar va mahalliy darajalardagi o'qitish metodikalari tushunchasi bilan mos keladigan hollar xususiy darajadagi pedagogik texnologiyalarga tegishli.

Texnologiyalarda ko'proq protsessual, miqdoriy va hisob-kitob komponentlari ifodalansa, metodikalarda maqsad, mazmun, sifat va variantli yo'naltiruvchi tomonlari ko'proq ifodalanadi. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg'unligi, ko'plab «agar»lar (agar tarbiyachi iste'dodli, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, agar yaxshi ota-onalar bo'lsa...) yo'qligi bilan farq qiladi. Ya'ni, texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi.

Ushbu interfaol usullardan foydalangan holda turli qiziqarli mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish bolalarning ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, interfaol usullarni amalda qo'llash natijasida bolalar bu usullarni o'zidan o'tkazib, ko'proq amaliy bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib quyidagilarni aytish joiz:

- maktabgacha yoshdagi bolalar qiziquvchan, harakatchan, tashabbuskor, erkin fikrlovchi, kuzatuvchan, sog‘lom bo‘lishi kerak. Hozirda har bir bola erkin ijod qilishi va o‘zining qobiliyatini ko‘rsata olish huquqiga ega. Noan’anaviy mashg‘ulotlarda ilg‘or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda mehr bilan bolalarga iqtidorini namoyon qilishiga sharoit yaratib berishimiz zarur. Tarbiyachilarning o‘tayotgan mashg‘ulotlari zamon talablari asosida bo‘libgina qolmasdan, tarbiyalanuvchining o‘zi ham bu mashg‘ulotdan zavq olsin;

- maktabgacha ta’lim muassasalarida maktabga tayyorlashda bolalarni har tomonlama faollashtiruvchi usullar-interaktiv metodlardan foydalanish zarurdir, chunki ilg‘or pedagogik texnologiyalar, noan’anaviy usullar bilan ta’lim-tarbiya berish hozirgi davrda juda yaxshi samara beradi, ta’lim sifatini oshiradi;

- maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyachilari metodika va pedagogik texnologiyalarni bir-biridan ajratishda qiynaladi va xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Shuning uchun ushbu maqolada ularning bir-biridan farqli jihatlari ko‘rsatib o‘tildi;

- maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyachilar belgilangan pedagogik vaziyat uchun ketadigan taxminiy vaqtni aniq belgilab olishlari, mashg‘ulotni interfaol usullardan foydalanib, texnologik xarita asosida ketma-ketlikni to‘g‘ri belgilashlari darkorligi ko‘rsatib o‘tildi.

Tarbiyachi tomonidan qo‘llaniladigan interaktiv usullar bolalarning qiziqishi va ehtiyojlarini qondiradigan darajada tashkil etilishi maktabgacha ta’limning sifatini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi. To‘plam. / Tuzuvchilar Sh.Quronov, H.Saidov, R.Ahliddinov. – T.: «Sharq», 1999.

2. «O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalashtirish – yuksak ma’naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir» mavzusidagi Respublika ilmiyamaliy anjumani materiallari. – T., 2009.

3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – T.: «Iste’dod», 2008.

4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga jo‘l riy qilish. – T.: «Fan va texnika», 2008.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI ROLI

Sodiqova Sharifa Ikrom qizi

*Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) 3-kurs talabasi
Chirchiq davlat Pedagogika universiteti.*

Annatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida chet tillarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy yo'nalishlari bo'lgan; -chet tillarini talabaga yondashgan holda eslab qolish funksiyasi, turli aqliy tarbiya usullaridan foydalanish va talabaga yo'naltirilgan dasturlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: yondashuv, funksiya, raqobatbardosh, pedagogik texnologiya, metodika, audiovizual, audial vositalar.

Bugungi globallashuv davr insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassisleri o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarda muloqot qila olishi maqsadga muvofiq.

Shu maqsadda chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish choratadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishlari muntazam o'tkazib kelinmoqda. Unda Davlatimiz rahbari "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti-soati keldi deb ta'kidlaydilar. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart deb ta'kidlaydilar. Bu qat'iy talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim", degan ta'kidlari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida, ko'p marotaba pedagogik texnologiyalarni, ularni o'quv muassalarimizga olib kirish zarurligi uqtirilgan. Xozirgi kundagi pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Ta'lim texnologiyasi», «Innovatsion texnologiya» kabi tushunchalar ko'p uchrab turgani bilan ularning o'zbek tilidagi ta'rifi o'rganilmoqda. Xar qanday oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash vazifasi pedagogdan bevosita ijodiy faoliyatni xamda ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan soxa bilimlarini talab etadi.

Oliy o'quv yurtlarida chet tillarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy yo'nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

-chet tillarini o'rganayotgan talabaning yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o'tishi, ya'ni o'zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o'tishi;

-bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy xarakatni dinamik tarkibiy tizimlariga o'tish;

-o'rtacha bilimli talabaga yo'naltirilganlikdan o'qitishning tabaqalashgan va individuallashtirilgan dasturlariga o'tish;

-talabaning tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o'tish.

Xozirda pedagogik texnologiyaning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga so'zsiz erishish o'quv jarayonida loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijani amalga oshirish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyani pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida yoki faqat ta'lim amaliyotini muqobillashtirishga yo'naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. Pedagogik texnologiya bu soxadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Bugungi kunda fan-texnika rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nixoyatda kengayib boryapti. Yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, audial vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni real voqelikka aylantirdi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z hususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir. Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'lik bilimlar soxasi sifatida murakkab va xammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborot texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiya - bu ta'lim samaradorligini oshirish uchun qo'llan hamda pedagogika nazariyasi va amaliyotining barcha soxalari bilan o'zaro bog'lik bo'lgan o'qitish shakllari, metodlari, vositalari, unga yondashuvlar, tizimlar, konsepsiyalar, tendensiyalar, g'oyalarning fanlararo o'zaro birikib yagona majmua tarzida ifodalanishini bildiradi. O'qituvchi tomonidan har bir mashg'ulotni yaxlit xolatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun mashg'ulot jarayonini loyilashtirib olishi kerak. Bunda talabaga u tomonidan bo'lajak mashg'ulotni texnologik kartasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir, chunki mashg'ulotning texnologik kartasi har bir mavzu, har bir mashg'ulot uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik kartani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi chet tili, pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalardan xabardor bo'lishi, shuningdek, juda kup metodlarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir o'tiladigan mashg'ulotni rang-barang,

qizikarli bo'lishi avvaldan puhta uylab tuzilgan mashg'ulotning loyallashtirilgan texnologik kartasiga bog'liqdir.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, texnologik yondashuv ishlab chiqarishdan olingan bo'lib, unda minglab texnologik jarayonlar loyihalashtirilgan. Ular ishlab chiqarishda kerakli natijalarga erishish garovi xisoblanadi. Bu texnologiyalarni qo'llash vaqtida xudud va ularning ijrochisi o'zgarsa ham, kerakli maxsulot chiqaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Putin, N.I. Cheksiz shakllar grammatikasida turkumlararo aloqalar: Dis.... doc. Filol. Fanlar / N.I. Pushina. - Izhevsk, 2001. - 330 p.
2. M.V.Lyakovitskaya, A.A.Mirol'yubov. O'rta maktabda chet tillarini o'qitish metodikasi. 2002, 145-158 betlar
3. X. Alimova. Nutq faoliyatining barcha turlarini kompleks tayyorlashda mashqlarning ahamiyati. No 6(73)-b.: 2020.

ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ МОЗГОВОГО НАТРИЙУРЕТИЧЕСКОГО ПЕПТИДА И N-ТЕРМИНАЛЬНОГО НАТРИЙУРЕТИЧЕСКОГО ПЕПТИДА ПРИ ХРОНИЧЕСКИХ СЕРДЕЧНЫХ ДИСФУНКЦИЯХ С ХРОНИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ПОЧЕК

*Болуни Е. А., Исломжонова М.М., Абдухалимова К.Д.
ТАШКЕНТСКАЯ МЕДИЦИНСКАЯ АКАДЕМИЯ*

Актуальность. Мозговой натрийуретический пептид (МНП) и N-терминальный промозговой натрийуретический пептид (N-МНП) являются биомаркерами сердечно-сосудистых заболеваний, которые часто встречаются у пациентов с хронической болезнью почек (ХБП). Противоречивые данные о влиянии скорости клубочковой фильтрации (СКФ) на уровни МНП и N-МНП при ХБП могут быть вызваны неспособностью в полной мере учитывать последствия сопутствующих заболеваний сердца, дисфункции и перегрузки объемом.

Цель исследования. Оценить значимость мозгового натрийуретического пептида и N-терминального натрийуретического пептида в диагностике сердечной дисфункции при ХБП.

Материал и методы исследования: Проспективное сравнение уровня МНП в плазме крови N-МНП у амбулаторных пациентов с эволюционной ХБП с нормальной фракцией выброса ЛЖ и отсутствием выраженных сердечных или сосудистых заболеваний. СКФ оценивали по изменению рациона питания в формуле почечной недостаточности, МНП и N-МНП измеряли с помощью тестов Abbott AxSYM и Roche Elecsys соответственно, а морфологию и функцию сердца оценивали с помощью трансторакальной эхокардиографии.

Результаты. Было обследовано 126 пациентов (39% женщин) среднего возраста 60 +/- 11 год. Средняя фракция выброса левого желудочка составила 69% (+/- 8%), СКФ 35 (+/- 15) мл/мин на 1,73 м², и срединный уровень МНП и N-МНП 57 и 315 пг/мл соответственно. Многофакторными предикторами уровня N-МНП были СКФ, прием бета-блокаторов, индекс массы ЛЖ и уровень гемоглобина. Уровень МНП в плазме независимо прогнозировался индексом массы ЛЖ и приемом бета-блокаторов, но не СКФ. У 77 пациентов без диастолической дисфункции наблюдалось значительное повышение N-МНП, но не МНП, поскольку СКФ снижалась.

Выводы. В отличие от N-МНП, уровень МНП в плазме относительно не зависит от СКФ. Таким образом, МНП может быть более подходящим биомаркером для скрининга сердечной дисфункции при ХБП.

NARKOZ VOSITALARI

Saloxiddinova Mohichehra O'rol qizi

Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti Mikrobiologiya,

Farmakologiya va Virusologiya Kafedrasida

Ilmiy rahbar: Nigora Yakubova

Kafedra katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'nggi yillarda anesteziologiya texnologik va dinamik ravishda rivojlanayotgan tibbiyot mutaxassisliklaridan biriga aylangan. Anesteziologiya turlari haqida batafsil; narkoz vositalari turlari, foydali va salbiy ta'raflari batafsil keltirilgan.

Kalit so'zlar: Anesteziologiya, anesteziya, analgeziya, miopelgiya, ingalyatsion anesteziya

“Anesteziologiy” atamasi grekcha so'z bo'lib, an-yo'qolmoq, aistesis -sezgi, logos-fan ma'nosini anglatadi. Shunday qilib, anesteziologiya sezgi yo'qolishi bilan bog'liq og'riqsizlantirish usullarini o'rganadigan fanidir. Lekin anesteziologiya dastlab operatsiya vaqtida hayotiy muhim organlar faoliyatini saqlab turish vazifasini, keyinchalik operatsiyadan keyingi davrda operatsiyaning stress holatlaridan himoya qilishni o'z zimmasiga oldi. Anesteziologiyaning asosiy vazifalari organizmning hayotiy muhim funksiyalarini operatsiyaning zararli ta'sirlaridan himoya qilish, premedikatsiya o'tkazish, operatsiya paytida og'riqsizlantirish usulini tanlash va ta'minlash. neyrovegetativ reaksiyalarning oldini olish, nafas buzilishlarini korreksiyalash va lozim bo'lganda o'rnini bosish, gemodinamikani boshqarish, modda almashinuvi buzilishlarini korreksiya qilishdan iborat.

Zamonaviy anesteziya turlari

1. Mahalliy anesteziya.

1. Yuzaki (terminal) anesteziya.

2. Infiltratsion anesteziya.

3. Regionar anesteziya.

II. Umumiy anesteziya.

1. Ingalyatsion anesteziya (niqobli, endotraxeal, endobronxial)

2. Noingalyatsion anesteziya (m/o, vena ichiga, total)

III. Kombinatsiyalangan anesteziya.

1. Mahalliy va umumiy anesteziya.

2. Ingalyatsion va noingalyatsion anesteziya.

IV. Zamonaviy ko'p tarkibli umumiy anesteziya. (1)

Noingalyatsion anesteziya. Vena ichi umumiy anesteziyasi. Zamonaviy anesteziologik muolaja o'z ichiga quyidagi tarkibiy qismlarni (komponentlarni) oladi:

Anesteziya, narkoz (ongni yo'qotish) ingalyatsion yoki venaga qilinuvchi anestetiklar ta'sirida hush yo'qoladi

-Analgeziya (og'riq yo'qligi) analgetiklar qo'llanilishi sababli og'riq va og'riq javoblarining yo'qolishi.

-Mioplegiya (kundalang-targ'il mushaklarning bo'shashishi) miorelaksantlar ta'siri hisobiga vujudga keladi va operatsiya o'tkazish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Miorelaksantlar qo'llanilishi SO'V o'tkazilishini taqozo etadi.

Gemodinamikani boshqarish.

Nafas faoliyatini boshqarish.

Metabolizm, energetik ta'minotni boshqarish.

Organizmga kiritilish yo'llariga qarab umumiy anesteziya ingalyatsion va noingalyatsion turlarga bo'linadi

Ingalyatsion anesteziya gazsimon (azot 1 -oksidi) yoki bug'simon (galogenlar ftorotan, galotan, narkotan, izoflyuran, sevoflyuran) narkotik preparatlarni hidlatish yoki nafas yo'llariga ingalyatsiya yo'li bilan kiritilib amalga oshiriladi.

Noingalyatsion anesteziya nafas yo'llarini chetlab o'tib (venaga, mushakka, tug'ri ichakka, suyak ichiga va x.k.) erishiladi. Monoanesteziya (bir komponentli anesteziya) -faqat bir narkotik preparat yordamidagi anesteziya. Bu usul uchun ftorotan, efir qo'llaniladi.

Kombinatsiyalangan anesteziya bir necha narkotik preparatlarni turli nisbatlarda va bu narkotik preparatlarning salbiy ta'sirlarini kamaytirish maqsadida umumiy anesteziya bilan mahalliy anesteziyani qo'shib qo'llashdir.

Kirish anesteziyasi. Odamni oz vaqt oralig'ida uyqu holatiga kiritish uchun qo'llaniluvchi qisqa muddatli anesteziya. Odatda buning uchun venaga ishlatiluvchi preparatlar (geksenal, tiopental, NLA va x.k.) qo'llaniladi va qisqa vaqtda, qo'zg'alishsiz anesteziyaning xirurgik stadiyasiga erishiladi. Bazis-anesteziya yordamida narkotik analgetiklar ta'siri uchun fon hosil qilinadi. Yuqoridagilardan tashqari maxsus anesteziya turlari (elektroanesteziya, gipnoanesteziya, akupunktur elektroanalgeziya va x.k.) mavjud. Lekin bu usullar eksperimental hisoblanadi va amaliyotda keng foydalanilmaydi.

Narkoz bir komponentli (bitta anestetik yuborilganda), ko'p komponentli, (bir nechta narkotiklar qo'llanganda), asosiy — bazis, potensirlangan, kirish narkozi bo'ladi.

Anesteziologiyada bir komponentli — bitta narkotik moddani (mononarkoz) yuborish usuli kamdan-kam qo'llanadi; odatda ikki yoki uchta narkotiklar birga ishlatiladi. Ko'p komponentli kombinirlangan narkoz paydo qilish uchun ingalyatsion narkotik noingalyatsion narkotik bilan birga qo'llanadi. Kombinirlangan narkoz ba'zi

narkotik moddalarning, masalan, efiming qo'zg'alish davrini bartaraf qilish, narkoz holatiga tez kirish uchun qo'llanadi. Bunda narkozni venalarga noingalyatsion narkotik yuborishdan (natriy tiopental, propanidid) boshlab, keyin ingyalyatsion narkotik (efir) nafas yo'llari orqali yuboriladi. Moddalami yakka o'zini yuborgandan ko'ra, kombinirlangan narkozda ularning har bining miqdori kamroq bo'ladi, shu tufayli zaharliligi hamda salbiy ta'sirlari ham kamayadi. Kirish narkozida markaziy nerv sistemasini qisqa muddat ichida chuqur falajlovchi modda yuboriladi, shundan keyin ingyalyatsion narkotik moddalarning ta'sirini kuchaytiradigan narkotik analgetik, neyroleptik, trankvilizatorlar bilan birga yuboriladi. Bu moddalar premedikatsiya uchun ham qo'llanadi.

Narkozdan oldin bemor operatsiyaga tayyorlanadi, ya'ni premedikatsiya qilinadi. Narkotik moddalarning bezlar sekretsiasiga, yurakka, nafasga reflektor ta'sirining oldini olish uchun atropin va atropinsim on m oddalar qo'llanadi. M ushaklarni yetarlicha bo'shashtirish uchun anesteziologiyada narkotik moddalar bilan birga miorelaksantlar keng qo'llanadi. Agar narkoz davrida qon bosimini boshqarib turish kerak bo'lsa, ganglioblokatorlar qo'llanadi. Umumiy og'riq qoldirish usullariga neyroleptanalgeziya ham kiradi, bunda narkotik analgetiklar neyroleptiklar bilan birga qo'llanadi.

Narkoz davrida yuz beradigan salbiy ta'sirlar va ulaming oldini olish. Narkoz paydo qiluvchi moddalar qo'llanganda ko'ngil aynish, qayt qilish, nafas, yurak, qon-tomir sistemasida va boshqa a'zolarida salbiy ta'sirlar kuzatiladi. Ko'ngil aynib, qayt qilish ko'pincha shilliq pardalami ta'sirlovchi narkotik moddalar — efir qo'llanganda 40- 60%, ftorotan qo'llanganda kamroq 15-20% uchraydi. Narkotik moddalar bevosita qusish markazini qo'zg'atadi, qusish nafas yo'llari, vestibulyar apparatning reflektor yo'l bilan qo'zg'alishi tufayli kelib chiqadi. Bemor ko'pincha narkozdan uyg'onish davrida ko'ngli aynib qayt qiladi, bu salbiy ta'sirlar qo'zg'alish davrida ham uchrab turadi, ulami oldini olish uchun narkozdan oldin jarrohlikdan keyin qusishga qarshi moddalar qo'llanadi.

Narkozning xavfli asoratlari ham bor, bular laringospazm, bronxospazmlardir. Bu asoratlar reflekslar tufayli shu holatga moyil bemorlarda, ayniqsa, bronxial astmada, parasimpatik innervatsiyani qo'zg'atuvchi moddalar qo'llanganda uchraydi. Laringospazm va bronxospazmning oldini olish uchun M - xolinolitiklar — atropin qo'llanadi. Inglyatsion narkoz paydo qiluvchi moddalar bronxial bezlar sekretsiasini oshirib yuboradi, bronxiolalar shilimshiq bilan yopilib qoladi, o'pkaning shu qismidan drenaj to'xtab qoladi, yopilib qolgan joy tagidagi havo qonga so'riladi, o'pkaning shu qismi puchayib qoladi — atelektaz hosil bo'ladi. Atelektaz tufayli keyin zotiljam — pnevmoniya boshlanadi. Bu asoratning oldini olish uchun narkozdan oldin atropin yuboriladi, faol nafas, jarrohlikdan keyin davolash gimnastikasi tavsiya qilinadi.

Narkoz yurak-qon tomir sistemasida ham xavfli o'zgarishlar paydo qiladi. Narkoz holatiga kirish davrida yurak urishdan to'xtab qolishi mumkin. Yurak ingalyatsion narkotiklar qo'llanganda reflektor jarayonlar tufayli hamda tiopentalning yurakka zaharli ta'sir etishi sababli to'xtashi mumkin. Narkotiklarning vagotonik xususiyatlari, gipoksiya, giperkapniya yurakning to'xtashiga moyillik yaratadi. Narkozdan oldin atropin bilan premedikatsiya qilish bu asoratni kamaytiradi. Yurak to'xtaganda massaj, sun'iy nafas, yurakka adrenalin yuborish, elektr toki bilan defibrillyatsiya qilish kerak. Qonda adrenalinning hajmi yoki yurakning katexolaminlarga sezuvchanligi oshganda (siklopropan, ftorotanli narkozda) yurak to'xtashi dan oldin fibrillyatsiya bo'ladi. Shuning uchun siklopropan hamda ftorotanli narkozda katexolaminlar — adrenalin, noradrenalinni qo'llash man etiladi. Narkoz holatida, ayniqsa, ftorotan qo'llanganda qon bosimi pasayib ketishi mumkin. Ingalyatsion narkotik moddalarni yuborish to'xtatilgandan keyin qon bosimi ko'tariladi. Noingalyatsion narkotiklar qo'llanganda ro'y beradigan gipotenzivni davolashda qon tomirlarni qisqartiruvchi moddalar qo'llanadi.

Dori moddalar

Moddalarning nomi Saqlash sharoitlari	Kattalar va bolalar uchun miqdorlar; Konsentratsiyalar, yuborish yo'llari	Chiqariladigan shakllari
Ingalyatsion narkoz uchun qo'llaniladigan moddalar		
Aethyer pro narcosi(B)	NK: 2-4 hajm % analgiziya va es-hushni yo'qotish; 5-8 hajm% - yuza narkoz, 10-12 hajm % -chuqur narkoz	100-130 ml li flakonlarda
Phthorothanum (B)	NK: 3-4 hajm % - narkoziga kiritish uchun, 0,5-2 hajm% - narkozning xirurgik davrini cho'zish uchun	50 ml li flakonlarda

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Sh. Eshonov. Anesteziologiya va reanimatologiya Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent „Vorishnashriyot" 2010,—368 (1)
- 2 Xirurgiya va reanimatsiya asoslari A.J.Xamroyev 2017(2)
3. Клинический Анестезологи Дж. Эдвард Морган-мл. Мэвид С. Михаил 2000 (3)
4. Anesteziologiyada va Reanimatsiyada hamshiralik ishi. V.N.Turaqulov B, F.A.Qurbonov, K.R.Tongotarova. Navoiy 2019 y
5. S.S.Azizova .Farmakologiya. Toshkent-2006

VIRUSLARGA QARSHI VOSITALAR

To'ychiboyev Alisher Nigmatullayevich

Ilmiy rahbar: Yakubova Nigora

Toshkent davlat stomatologiya instituti talabasi

Annotasiya: Antiviral preparatlar organizmga zararli viruslar bilan kurashishga yordam beradi. Preparatlar simptomlarni engillashtirishi va virusli infeksiyaning davomiyligini qisqartirishi mumkin. Antiviral vositalar, shuningdek, herpes va OIVni keltirib chiqaradigan viruslarni yuqtirish yoki tarqatish xavfini kamaytiradi. Antiviral vositalar tanangizga kasallikka olib kelishi mumkin bo'lgan ba'zi viruslar bilan kurashishga yordam beradigan dorilardir. Antiviral preparatlar ham profilaktik hisoblanadi. Ular sizni virusli infeksiyalardan yoki virusni boshqalarga yuqtirishdan himoya qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: Antiviral, Bovireks, Virogel, Remantadin.

Kirish

Viruslar – bu organizmning tirik hujayralari ichida o'sadigan va ko'payadigan mayda (mikroskopik) yuqumli kasalliklar. Viruslar sizning tanangizdagi sog'lom (xost) hujayralarga birlashtirilishiga imkon beruvchi retseptorlarga ega. Virus xost-hujayraga qo'shib, unga kirgandan so'ng u replikasiya qilishi (o'zidan nusxa olishi) mumkin. Xost hujayra o'ladi va virus boshqa sog'lom hujayralarni yuqtiradi. Ba'zida viruslar xost hujayrasida ko'paymasdan yoki unga zarar bermasdan qoladi. Virus hali ham mavjud (ya'ni siz yuqumli bo'lishingiz mumkin), ammo sizda alomatlar yo'q. Ushbu yashirin yoki faol bo'lmagan virus har qanday vaqtda faol bo'lib, simptomlarni keltirib chiqarishi yoki boshqalarga yuqishi mumkin. Viruslarning tarqalish usuli virus turiga bog'liq.

Viruslarning tarqalish usullari (virus turiga qarab farqlanadi):

➤ Qon, siydik, najas (najas), qusish, ejakulyatsiya (sperma) va tupurik kabi ifloslangan tana mahsulotlari.

➤ Xato chaqishi (virusning bug'ning tupurigidan odamning qoniga o'tishi).

➤ Teri bilan aloqa qilish, shu jumladan jinsiy aloqa.

Antiviral vositalar ta'sir qilish mexanizmi

Antiviral dorilar preparat va virus turiga qarab har xil ishlaydi. Antiviral vositalar:

➤ Viruslar sog'lom hujayralar bilan bog'lanib, ularga kira olmasligi uchun retseptorlarni blokirovka qilish.

➤ Immunitet tizimini mustahkamlang, unga virusli infeksiya bilan kurashishga yordam bering.

➤ Immunitet tizimini mustahkamlang, unga virusli infektsiya bilan kurashishga yordam bering.

Vrach yoki hamshira siz bilan antiviral vositalardan foyda olishingiz mumkinligini muhokama qiladi. Aksar odamlar Virusga qarshi vositalarni talab qilmaydi, chunki ular engil kasallikka duchor bo'radi va tezda tuzalib ketadi. Bularda Bunday hollarda, ushbu dorilarning nojo'ya ta'sirlari xavfi ularni qabul qilishning foydasidan yuqori bo'lishi mumkin. Biroq, ba'zi odamlar antiviral preparatlarni qabul qilishlari kerak. Antiviral vositalar grippni davolamaydi, lekin ular Odamlarning tiklanishiga yordam berishi mumkin:

- Ba'zi alomatlarni engillashtiradi
- Kimdir kasal bo'lish vaqtini qisqartirish

Asosiy qism

Viruslarga qarshi vositalarning ta'sir yo'nalishi har xil va hujayra bilan Virusning o'zaro ta'sirini turli bosqichiga taalluqlidir. Jumladan, quyidagilarga Susaytiruvchi ta'sirga ega bo'lgan moddalar ma'lum:

- 1) Virusni hujayraga adsorbsiyalanishi yoki uni hujayraga kirishi (enfuvirtin, γ -Globulin);
- 2) virus genomini ozodlikka chiqish ("deproteinizasiya") jarayoni (midantan, remantadin);
- 3) viruslarning erta oqsil-fermentlarini sintezi (guanidin);
- 4) nuklein kislotalarini sintezi (zidovudin, asiklovir, vidarabin, idoksuridin va boshqa nukleozid analoglari);
- 5) viruslarni "kechki" oqsillarining sintezi (sakvinavir);
- 6) virionlarni yig'ilishi (metisazan).

Bundan tashqari organizmga tushgach viruslar hujayrada biologik farq bo'lgan glikoprotein – interferonlarni hosil bo'lishiga olib keladi va ular orqali immunitetni gumoral hamda hujayra bo'g'imlarini ishga tushiradi. Virus oqsillari kuchli antigen bo'lganliklaridan viruslarni neytrallovchi antitelalar hosil bo'lishiga olib keladi. Interferonlar sintezini va antitelalar hosil

Bo'lishini rag'batlantiruvchi dori vositalarini yaratish ham virusli infeksiyalar bilan kurashishda ulkan kelajakka ega, deb hisoblanadi. Dori vositalari sifatida qo'llanilayotgan viruslarga qarshi moddalar quyidagi Guruhlardan iborat bo'lishlari mumkin.

Sintetik vositalar:

Nukleozidlar analoglari – *zidovudin, asiklovir, vidarabin, gansiklovir, Trifluridin, idoksuridin*

Peptidlar unumlari – *sakvinavir*

Adamantan unumlari – *midantan, remantadin*

Indolkarbon kislota unumlari – *arbidol*

Fosfono chumoli kislota unumlari – *foskanet*

Tiosemikarbazon unumlari – *metisazon*

Bovireks (Atsiklovir)

Farmakologik xususiyatlari. Oq yoki sarg'ish tusli oq rangli sirtga qo'llash uchun krem. Bovireks viruslarga qarshi preparat bo'lib, Herpes simplex 1 va 2 turlari va o'rab oluvchi Varicella zoster viruslariga qarshi faol moddadir. Virus bilan infeksiyalangan xujayralar ichida virus – timidikinazasi ta'siri ostida atsiklovir qator ketma-ket reaksiyalar oqibatida mono-, di- va trifosfat atsiklovirga aylanadi. Atsiklovir – trifosfat virusning DNK zanjiriga joylashib oladi va virus DNK-polimerazasini raqobatli ingibirlashi orqali uning sintezini bloklaydi. U DNK-virusning sinteziga xalaqit qiladi, lekin xujayra ichidagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatmaydi.

Qo'llanilishi. O'tkir va oddiy uchuq virusi (Herpes simplex 1 va 2 turi) chaqirgan, shu jumladan lablardagi pufakchalari (lablarni yallig'lanishi Herpes labialis) teri infeksiyalari.

- sitomegalovirusni davolashda.
- organizmning immunologik holati yomonlashgan bemorlarda oddiy uchuq virusi chaqiradigan infeksiyalarni oldini olishda.
- immun tizimida o'zgarish bo'lmagan bemorlarda o'rab oluvchi temiratki virusi (Varicella zoster) chaqirgan birlamchi va qaytalanuvchi infeksiyalarni davolashda.
- 2 yoshdan katta bo'lgan bolalardagi suvchechakni (Varicella) davolashda -ayollardagi sitomegalovirusida (SMV)
- Herpes genitalis chaqirgan birlamchi va ikkilamchi genital infeksiyalarda.

Kremni qo'llash usuli va dozalari. Preparat zararlangan joylarga va uning atrofiga yupqa qavat qilib kuniga 5 marta (har 4 soatda) surtiladi. Davolash 5 kun davom ettiriladi. Agarda shu davrda toshmalar yo'qolmasa davolashni yana 5 kun davom ettirish mumkin. Agarda 10 kun davolashda uchuqning belgilari yo'qolmasa, shifokorga murojaat qilish lozim. Zararlangan sohalarga boshqa infeksiya tushmasligi uchun, kremni paxta tampon yoki toza qo'l bilan qo'yish lozim. Davolashni pufakchalar qurimagunicha va to'la tuzalguncha davom ettirish kerak.

Davolashning davomiyligi 5 kun, lekin 10 kundan oshmasligi kerak.

Nojo'ya ta'sirlari. Ayrim hollarda terida toshma paydo bo'lishi mumkin. Preparatni qabul qilish to'xtatilganidan so'ng toshmalar yo'qoladi. Buyraklarning faolliyati buzilgan patsientlarda ba'zan takroriy nevrologik reaksiyalar, masalan bosh aylanishi, psixoz, gallyutsinatsiya, uyqusizlik, charchoqlik kuzatiladi.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar. Bovireks kremiga o'ta yuqori sezuvchanlikka ega patsientlarda qo'llash mumkin emas. Preparatni homiladorlik va

emizish davrida, ona uchun kutilayotgan foyda, homila uchun potentsial xavfdan ustun bo'lgan holdagina qo'llash mumkin.

Boshqa dori vositalari bilan o'zaro ta'siri. Bovireks sirtga qo'llanganida boshqa dori vositalari bilan o'zaro ta'siri aniqlanmagan.

Maxsus ko'rsatmalar. Yuqori terapevtik samara olish uchun, preparatni kasallikning boshlang'ich davrida qo'llash kerak. Mahalliy yallig'lanish rivojlanishi mumkinligini inobatga olib, kremni og'iz bo'shlig'I, ko'zlarning shilliq qavatiga qo'yish tavsiya etilmaydi.

Virogel

Farmakologik ta'siri. Gel, nazal qo'llanganida grippni erta davolash uchun ishlatiladi, burun bo'shlig'ida rinovirus ko'payishini ingibirdaydi, burun shilliq qavatini tomirlarini torayishiga yordam beradi va sekretiyanini kamaytiradi (ajralib chiqish), burunda salqinlik tuyg'usini hosil qiladi.

Qo'llanilishi. Virus etiologiyali tumovni simptomatik davolash, kattalar va 3 yoshdan oshgan bolalarda nafas yo'llarini rinovirus va gripp virusidan profilaktik himoyalash.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar. Faol moddalar va/yoki gelni har qanday boshqa komponentlariga bo'lgan yuqori sezuvchanlik.

Ehtiyotkorlik choralari va qo'llashdagi maxsus ko'rsatmalar. Ko'zga gel tushishiga yo'l qo'yilmasin! Gel ko'zga tushgan holda, darhol katta miqdordagi suv bilan yuvilsin! 3 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'llanilmasin!

Boshqa dori turlari bilan o'zaro ta'siri bo'yicha. Ma'lumotlar yo'q.

Homiladorlik va laktatsiya. Davrida preparatni nojo'ya ta'siri haqida ma'lumotlar yo'q. Transport vositalarini haydash va mexanik moslamalarda ishlash qobiliyatiga ta'sir qilmaydi.

Qo'llash usuli va dozalari. Gelni ko'p bo'lmagan miqdori burun bo'shlig'ini oldingi qismiga yupqa qavat qilib qo'yiladi va burun orqali keskin nafas olib gelni burun bo'shlig'iga chuqurroq kirishiga erishiladi.

Oldini olish maqsadida gel har 4 soatda qo'yiladi, kasallik holida har soatda. Preparat 1-2 hafta qo'llanadi, surunkali kasallik holida shifokor ko'rsatmasi bo'yicha davolashni cho'zish mumkin.

Nojo'ya ta'sirlari. Preparat qo'llanganida ba'zida ignabargli daraxtlar turlarini efir moylariga nisbatan yuqori sezuvchanlikka ega bo'lgan shaxslarda allergik reaksiyalar bo'lishi mumkin. Allergiya simptomlari yoki boshqa noxush reaksiyalar paydo bo'lgan holda, darhol davolovchi shifokor bilan preparatni keyinchalik qo'llash bo'yicha maslahatlashish kerak.

Remantadin

Farmakologik xususiyatlari. Remantadin viruslarga qarshi yaqqol ta'sir etuvchi amantadin hosilasidir. U A turidagi har xil grupp viruslarga qarshi samaralidir, hamda

V turdagi viruslar chaqirgan kasalliklarda antitoksik ta'sirga ega. Remantadin virus replikasiyasini erta davridayoq sekinlashtiradi. Genetik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, remantadinni A virusga qarshi ta'sirida, virionning M2 geni tarkibidagi spetsifik oqsil muhim ahamiyatiga ega. Remantadin entsefalitni qo'zg'atuvchi arboviruslarga ham qarshi sekinlashtiruvchi ta'sir etadi. Ko'pincha ushbu virusni kanalar tarqatadi. Remantadin jigarda tezda metabolizmga uchraydi, qabul qilingan dozaning 25% siydik orqali 72 soat davomida chiqariladi. Bir marta peroral 200 mg. dozada qabul qilingan preparat farmakokinetikasi, jigar stabil sirrozi bilan kechayotgan surunkali jigar kasalligi bo'lgan bemorlarda va sog'lom odamlarda deyarli farqlanmaydi.

Qo'llanilishi. Remantadin kattalarga va maktab yoshidagi bolalarga, grippni erta davolash maqsadida, hamda kattalarga epidemiya davrida oldini olish uchun buyuriladi. Virus chaqiradigan kana entsefalitini oldini olish uchun tavsiya etiladi.

Qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar. Adamantan guruhi birikmalariga yoki yordamchi moddalarga o'ta sezuvchanlik holati; o'tkir jigar kasalliklari; o'tkir va surunkali buyrak kasalliklari; tireotoksikoz, xomiladorlik va emizikli davr.

Nojo'ya ta'siri. Preparat odatda yaxshi o'zlashtiriladi. Agar, tavsiya etilgan dozadan yuqori dozalar qo'llanilsa, me'da-ichak yo'llari va nerv tizimi tomonidan kuzatiladigan nojo'ya ta'sirlar kuchayadi.

- Me'da-ichak yo'llari: Diareya, dispepsiya;
- Nerv tizimi: Es-xushning chalkatishlari, diqqat-e'tiborni buzilishlari, ataksiya, uyquchanlik, bezovtalik, depressiya, eyforiya, giperkinez;
- Teri: toshmalar;
- Eshituv va vestibulyar apparat: Tinnitus;
- Nafas olish a'zolari tizimi: Dispnoe, bronxospazm.

Ehtiyotkorlik choralari. Remantadinni me'da-ichak yo'llari kasalliklari bo'lgan, jigar faoliyatining og'ir buzilishlari bo'lgan odamlarda, keksalarda ehtiyotkorlik bilan qo'llash kerak. Bunday hollarda preparat dozasi kamaytirish tavsiya etiladi. Agar anamnezda tutqanoq kasalligi bo'lsa va epileptik tutqanoqlarga qarshi davolash belgilangan bo'lsa, remantadinni birga qo'llash davrida epileptik tutqanoqlar rivojlanish xavfi ortadi. Bu holatlarda remantadin kuniga 100 mg dozada tutqanoqqa qarshi davolash bilan birga qo'llanadi. Agar xurujlar rivojlansa, remantadinni qabul qilish to'xtatiladi.

Homiladorlik vaqtida va emizikli davri. Qo'llash mumkin emas.

Transport vositalarini boshqarish qobiliyatiga ta'siri. Ehtiyotkorlikka rioya qilish kerak, chunki remantadin markaziy nerv tizimi tomonidan nojo'ya ta'sirlarni chaqirishi mumkin.

Boshqa dorilar bilan o'zaro ta'siri. Paratsetamol va atsetilsalitsil kislotasi remantadinning samaraliligini pasaytiradi. Alkogol` qabul qilishdan o'zini tutish kerak, chunki MNT tomonidan kutilmagan reaksiyalar paydo bo'lishi mumkin.

Qo'llash usuli. Remantadin ovqatdan keyin, suv bilan ichib qabul qilinadi.

A grippida davolash. Remantadinni qabul qilishini kasallikni birinchi simptomlari boshlanishi bilan darhol 48 soat ichida boshlash zarur.

Kattalarga: birinchi kuni preparatni 100 mg (2 tabletka) kuniga 3 martadan, ikkinchi va uchunchi kunlari 100 mg dan 2 marta, to'rtinchi va beshinchi kunlari 100 mg dan 1 marta buyuriladi. Kasallikning birinchi kunida preparatni 3 tabletkadan 2 marta yoki 6 tabletka 1 qabul qilishda qo'llash mumkin.

Bolalarga: 7 -10 yoshgacha remantadin 50 mg dan (1 tabletka) 2 marta,

11 – 14 yoshgacha 50 mg dan 3 marta,

14 yoshdan oshganlarga kattalar uchun dozalari bilan bir xil.

Davollash kursi 5 kundan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- <https://my.clevelandclinic.org>
- Фармакология : учебник / Д. А. Харкевич. — 10-е изд., испр., перераб. И доп. — М. : ГЭОТАР-Медиа, 2010. — 752 с. : ил
- [://www.ronl.ru/formakologiya/](http://www.ronl.ru/formakologiya/); [://www.evrocet.ru/cshop/book-18921](http://www.evrocet.ru/cshop/book-18921);
- [://nmu-student.narod.ru/farmacology](http://nmu-student.narod.ru/farmacology);
- <http://max.1gb.ru/farm/>
- [://www.cibis.ru/catalogue/pharmacology_pharmacy_toxicology/a/sites/52185.html](http://www.cibis.ru/catalogue/pharmacology_pharmacy_toxicology/a/sites/52185.html); [://medvedev-ma.narod.ru/farmakologia/0.htm](http://medvedev-ma.narod.ru/farmakologia/0.htm);
- Azizova C.C. Farmakologiya. Darslik, T.:2006
- Yakubova K.A. Farmakologiya. Darslik, 2021
- Bertram G. Katzung, Susan B. Masters, Anthony J. Trevor. Basic & clinical pharmacology 12 edition.

ADRENORETSEPTORLARNI QO'ZG'ATUVCHI VOSITALAR

Bobodo'stova Husnora G'ayrat qizi
Toshkent davlat stomatologiya instituti
Davolash ishi fakulteti talabasi

Kafedra: Mikrobiologiya, Farmakologiya va Virusologiya
Ilmiy rahbar: Nigora Yakubova
Kafedra katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adrenoretseptorlarni qo'zg'atuvchi vositalar ya'ni adrenomimetik moddalar va ularni turlari α va β - adrenoretseptorlarni bevosita qo'zg'atuvchi moddalar tasnifi va qo'llanilishi va ta'sir doiralari haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Adrenoretseptorlar, adrenomimetik, adrenalin, noradrenalin, mezaton, izadrin, salbutamol, inotrop, xronotrop, glazolin, naftizin.

Adrenomimetik vositalar

1. α va β — adrenoretseptorlarni bevosita qo'zg'atuvchi moddalar
-adrenalin gidroxloridi (β 1-2 , α 1-2)
-noradrenalin gidrotartrati (α 1-2 , β 1)
2. α — adrenoretseptorlarni bevosita qo'zg'atuvchi moddalar
-mezaton (α 1)
-naftizin (α 2)
-glazolin (α 2)
3. β — adrenoretseptorlarni bevosita ta'sir etuvchi moddalar
-izadrin
-salbutamol
-tarbutadin
-fenoterol
-dobutamin

1Adrenalin adrenomimetiklarning asosiy moddasi bo'lib, α -va β -adrenoretseptorlarni qo'zg'atadi. Adrenalin yurakda, yurak o'tkazuvchan sistemasida joylashgan β -adrenoretseptorlarni qo'zg'atib, yurak urishini tezlashtiradi, musbat-inotrop, musbat -xronotrop ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga miokardning kislorodga bo'lgan ehtiyojini, qon bosimini, asosan sistolik bosimni oshiradi.

Qon bosimi qisqa muddatga ko'tariladi, chunki pressor jarayonda tomirlarning mexanoretseptorlari reflektor bradikardiyaning paydo qiladi. Adrenalin chetda joylashgan tomirlarning umumiy qarshiligini kamaytiradi, bu holat mushak tomirlarining β -adrenoretseptorlarining qo'zg'alishi, ularning kengayishi bilan bog'liq, shu tufayli

diastolik bosim pasayadi. Venoz bosimini adrenalin oshiradi, teri, ichak, buyrak tomirlarini qisqartiradi, skelet mushaklarining tomirlarini, toj tomirlami kengaytiradi, miya, o'pka tomirlariga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi. Adrenalinning yuqori miqdori umumiy periferik qarshilikni oshirib yuborishi mumkin.

Adrenalin bronxlarni silliq mushaklarida joylashgan β 2-adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, mushaklarni bo'shashtiradi, bronxlarni kengaytiradi. Radial mushaklarda joylashgan α - adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, qorachiqni kengaytiradi. Adrenalin ichakda joylashgan α - hamda β - adrenoreseptorlarni qo'zg'atadi, ichak tonusini hamda peristaltikasini kamaytiradi. Qora taloq hamda sfinkterlarda joylashgan α adrenoreseptorlar qo'zg'alishi tufayli, ular qisqaradi. Adrenalin modda almashinuviga ta'sir krsatadi, glikogenoliz va lipolizlarda qatnashadigan adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, qondagi qand hamda erkin yog' kislotalar miqdorini oshiradi. Bu jarayon adenilasiklaza mexanizmi tufayli amalga oshadi: adrenoreseptorlarni qo'zg'atib, adenilasiklaza fermenti faolligini oshiradi, shuning uchun siklik AMF konsentrasiyasi oshib, fosforilaza hamda trigliseridlipaza fermentlarining faolligini oshiradi, glikogeni glyukoza -6 fosfatga, trigliseridlarini gliserin hamda yog' kislotalarga parchalaydi.

Ilgari noradrenalin asosan α - adrenoreseptorlarni qo'zg'atadigan modda hisoblanardi, keyingi vaqtda bu moddaning yurakdagi β - adrenoreseptorlarga ta'siri ma'lum bo'ldi, shuning uchun noradrenalin α - hamda β - adrenoreseptorlarga bevosita ta'sir etuvchi moddalar orasida o'z o'rnini oldi. Noradrenalin yurakdagi α -adrenoreseptorlarni adrenalning nisbatan kuchsizroq qo'zg'atadi, yurak zarbinning hajmi oshsa ham yurak urishi tezlashmaydi, hatto biroz sekinlashishi mumkin, chunki yurakdan katta zarb bilan chiqqan qon aortadagi baroreseptorlarni qo'zg'atib, reflektor yo'l bilan vagus nervi faolligini oshirib yuboradi. Noradrenalin yuborilganda yuz beradigan bradikardiyaning oldini olish uchun atropin qo'llash mumkin.

Noradrenalin qon bosimi keskin pasayib ketganda — qon tomirlar kollapsida qo'llaniladi; kardiogen shok hamda qon quyilganda ro'y beradigan gemotransfuzion shoklarda noradrenalinni qo'llash man etiladi.

Noradrenalin faqat venaga tomchilatib yuboriladi, og'iz orqali yuborilsa, parchalanib ketadi, teri ostiga yuborilsa qon tomirlarini keskin toraytirib, to'qimalarda nekroz hosil qilishi mumkin. Noradrenalinning faolligi tezda kamayib ketadi, qisqa muddat ta'sir ko'rsatadi. Organizmda tez parchalanib, noradrenalin va uning metabolitlari buyrak orqali chiqib ketadi. Noradrenalin bilan davolanganda ham noxush asoratlar uchraydi — bemorning boshi og'riydi, nafas olishi qiyinlashadi, bolalarda buyrak tomirlari torayib, buyrak yetishmovchiligi ro'y beradi, noradrenalin teri ostiga tushsa, nekroz yuz berishi mumkin.

2. Mezon asosan qon tomirlardagi α — adrenozeptorlarni qo'zg'atib, qon bosimini oshiradi. β - adrenozeptorlarga deyarli ta'sir qilmaydi, ko'z qorachig'ini kengaytiradi. Mezon pressor modda sifatida gipotoniyalarni davolashda qo'llaniladi.

Qon bosimini noradrenalin adrenaliga nisbatan kuchli oshiradi, ta'siri davomliroq bo'ladi, chunki kimyoviy jihatdan katexolaminlardan farq qiladi, katexolaminlarni parchalaydigan KOMT fermentiga nisbatan chidamliroq bo'ladi. Mezon rinitlarni davolashda hamda mahalliy anestetiklar bilan birga qo'llaniladi.

Mezonni gipertoniya, ateroskleroz kasalliklarida qo'llash man etiladi: gipertireoz, yurak kasalliklarida, qariyalarda ehtiyotkorlik bilan qo'llaniladi;

mezon og'iz orqali, teri ostiga, mushaklar orasiga, venalarga yuboriladi. Rinitlarda tomchi sifatida ham qo'llaniladi.

a -adrenomimetiklar naftizin va galazolin o'tkir rinitda, burundan qon oqishini to'xtatishda qo'llaniladi. Bu moddalar qon tomirlarni keskin va davomli qisqartiradi, shuning uchun faqat mahalliy qo'llaniladi, surunkali rinitlarda hamda takroriy yuborilganda ta'siri kamayishi mumkin, shuning uchun 5-6 kundan keyin qo'llanishdan tanaffus qilinadi. Galazolin naftizinga nisbatan to'qimalarga ko'proq o'tkazadi, yosh bolalarla uzoq muddat qo'llanganda burun shilliq pardasidagi qon tomirlarning doimiy qisqarishi tufayli uning to'sig'ida atrofiya va nekroz paydo bo'lishi mumkin- Naftizin «ehtiyotsizlik bilan qo'llanganda burun shillig'idan qonga so'rilib, hamma tomirlar umumiy qisqarishi mumkin, shu tufayli 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga naftizinni qo'llash man etiladi.

3. Moddalar tanlab β_1 - va β_2 -adrenozeptorlarni qo'zg'atib, asosan yurakka, bronxlarga va qon tomirlarga ta'sir ko'rsatadi. Yurak va yurakning o'tkazuvchan sistemasidagi β -adrenozeptorlarni qo'zg'atib yurak kuchini, urish tezligini, atrioventrikulyar o'tkazuvchanligini, avtomatizmini, sistolik bosimni oshiradi. Qon tomirlarda joylashgan β_2 -adrenozeptorlarni qo'zg'atib, ularni kengaytiradi, diastolik bosim pasayadi. Chetda joylashgan qon tomirlarning umumiy qarshiligini pasaytiradi, venalar qisqaradi. Izadrin yurak mushaklarining kislorodga bo'lgan ehtiyojini oshirishi tufayli gipoksiya yuz berishi mumkin. Izadrin bronxlardagi β_2 - adrenozeptorlarni qo'zg'atib, ularni kengaytiradi. Moddalar almashinuviga adrenaliga o'xshab ta'sir ko'rsatadi, qand va erkin yog' kislotalar miqdorini oshiradi, giperglikemiya adrenaliga nisbatan kamroq bo'ladi. Yurak mushaklarining hujayralarida kreatinfosfat, ATF, kaliy miqdori kamayadi. Yosh bolalarda izadrinning moddalar almashinuviga ta'siri kattalarga, ayniqsa, qariyalarga nisbatan kamroq bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va emizikli bolalarda katexolammlarning qaytadan neyronlar bilan qamrab olinishi, MAO va KOMT fermentlarining faoliyati kamroq bo'lishi tufayli izadrin ta'siri ularda davomliroq bo'ladi. Izadrin boshqa a'zolarida joylashgan β_2 - adrenozeptorlarni ham qo'zg'atib, me'da-ichak, bachadon tonusini susaytiradi, skelet mushaklarini bo'shashtiradi, markaziy nerv sistemasini qo'zg'atadi.

Izadrin bronxial astma xurujlari, astmoid bronxitlarni, atrioventrikulyar bloklarni davolash uchun asosan aerosol hamda til osti tabletkalari shaklida qo‘llaniladi. Izadrin ta’sirida quyidagi noxush asoratlar ro‘y beradi: yurak tez uradi, aritmiyalar paydo bo‘ladi, bemor qaltiraydi, boshi og‘riydi. Ingalyasiyani, ayniqsa, bolalarda ehtiyotlik bilan o‘tkazish lozim, chunki bolalarga izadrin nazoratsiz tez-tez qo‘llanilsa, yurak tomirlarida og‘ir asoratlar, o‘pkada havo almashinuvining o‘zgarishi, hatto hayot uchun xatarli holatlar ro‘y berishi mumkin.

Bronxial astma astmoid holatlarda qollanilganda noxush asoratlar kelib chiqadi, masalan, taxikardiya, taxiaritmiya paydo bo‘lishi mumkin. shuning uchun ushbu kasalliklarni davolashda tanlab, asosan bronxlarda joylashgan β - adrenoreseptorlarga ta’sir etuvchi moddalarni izlash zarur bo‘ladi. Salbutamol, alupent moddalari shu talablarga qisman javob berishi mumkin. Bular kimyoviy tuzilishidan izadringa o‘xshaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.Sh. Eshonov. Anesteziologiya va reanimatologiya Oliyva O'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent „Vorishnashriyot" 2010,—368 (1)
- 32 Клинический Анестезологический Журнал. Эдвард Морган-мл. Мэвид С. Михаил 2000 (3)
- 43 Anesteziologiyada va Reanimatsiyada hamshiralikishi. V.N.Turaqulov B, F.A.Qurbonov, K.R.Tongotarova. Navoiy 2019 y
4. S.S.Azizova .Farmakologiya.Toshkent-2006

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	INSON HUQUQLARI HIMOYASI	3
2	KIBERJINOYAT- GLOBAL XAVF: DUNYO QONUNCHILGI SHARHI	7
3	AXBOROT HUQUQI VA “YOLG‘ON XABAR” (“FAKE NEWS”) MUAMMOSI	14
4	XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA QO‘LLANILADIGAN HUQUQLAR TAHLILI	20
5	M va N-XOLINORETSEPTORLAR	28
6	LINGUISTIC AND CULTURAL CONCEPTS OF “GOOD” AND “EVIL” IN RUSSIAN, ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES	31
7	URGANCH SHAHRIGA KIRIB KELUVCHI AVTOTRANSPORT OQIMI JADALLIGINI BAHOLASH VA PRAGNOZ QILISH	36
8	CHET TILLARINI O‘RGANISHNING YOSHLAR MA‘NAVIYATIGA TA‘SIRI	44
9	METHODOLOGY OF FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN PRESCHOOL INSTITUTIONS	48
10	ИСТОРИЯ И ЗНАЧЕНИЕ ЯДОВИТЫХ РАСТЕНИЙ	51
11	ВЛИЯНИЕ ТАБАЧНОГО ДЫМА НА РАСТЕНИЯ	59
12	ЗНАЧЕНИЕ ДЕРМАТОЛОГИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА	62
13	USING INTERACTIVE METHODS OF NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING PROFESSIONAL SKILLS OF TEACHERS	70
14	TALONCHILIK JINOYATNI FOSH ETISHNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI YECHIM VA MUAMMOLAR	74
15	TALONCHILIK JINOYATNI FOSH ETISH VA OLDINI OLISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	78
16	ORGANIZMNI CHINIQTIRISH USULLARINING FIZIOLOGIK VA BOKIMYOVIYASOSLARI	82
17	IJTIMOY SIYOSATDA AHOLINING IQTISODIY FAOLLIGI	85
18	CONDUCTING A LESSON ON THE SUBJECT OF "RATIONAL EQUATIONS" IN AN INTERACTIVE WAY (EXAMPLE OF VOCATIONAL SCHOOL STUDENTS)	94
19	ANALGETIKLAR	98
20	GLOBALIZATSIYA JARAYONINING OBYEKTIV MAVJUDLIGI VA HUQUQ GLOBALIZATSIYASI TUSHUNCHASI	105
21	O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOEMOTSIONAL HOLATLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	113
22	O‘SMIRLIK DAVRIDA O‘SMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN DISTРУКТИВ XULQ-ATVOR	117
23	O‘SMIRLIK DAVRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	120

24	ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПСИХОЛОГИЮ ЧЕЛОВЕКА	124
25	O'QUV JARAYONINI TASHKIL QILISHDA MODULLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	128
26	BLOCKCHAIN TEXNOLOGIYASI: BANKLAR VA IQTISODIYOTI UCHUN YANGI QULAYLIKLAR	132
27	IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSIY O'ZGARUVCHILARI	137
28	INVESTITSIYALAR VA SAVDO MUNOSABATLARI: GLOBAL TENDENTSIYALAR VA ULARNING IQTISODIY O'ZGARISHLARGA TA'SIRI	142
29	IQTISODIY INTEGRATSIYA VA SAVDO QO'SHILISHI: OCHIQ BOZOR TALABLARI VA MUSTAHKAMLASH YO'LLARI	147
30	INSON QO'L YOZUVI STRUKTURASI TIZIMI TUZILISHINI O'RGANISH VA UNING KRMINALISTIK TADQIQOTLARDAGI AHAMIYATI	152
31	ENERGIYANING BIR TURDAN IKKINCHI TURGA AYLANISHI	157
32	НЕПОЛНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ В РАЗНЫХ СТИЛЯХ РЕЧИ	161
33	ИНДИВИДУАЛЬНО-ОБРАЗНАЯ СЕМАНТИКА МНОГОЗНАЧНОГО СЛОВА	164
34	XORIJY TILLARNI O'RGATISHDA ADABIYOTNING ROLI	167
35	МАКТАВГАЧА ВА BOSHLANGICH TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY ASOSLARI	172
36	ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING CHET TILLARINI O'RGANISHDAGI ROLI	175
37	ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ МОЗГОВОГО НАТРИЙУРЕТИЧЕСКОГО ПЕПТИДА И N-ТЕРМИНАЛЬНОГО НАТРИЙУРЕТИЧЕСКОГО ПЕПТИДА ПРИ ХРОНИЧЕСКИХ СЕРДЕЧНЫХ ДИСФУНКЦИЯХ С ХРОНИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ ПОЧЕК	178
38	NARKOZ VOSITALARI	179
39	VIRUSLARGA QARSHI VOSITALAR	183
40	ADRENORETSEPTORLARNI QO'ZG'ATUVCHI VOSITALAR	189

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2024-г.





OPEN  ACCESS

